O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENt DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

JALILOV NODIRJON AZAMATOVICH

BO‘LAJAK CHAQIRIQQACHA HARBIY TA’LIM O‘QITUVCHILARINING KREATIV SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH

MONOGRAFIYA

Toshkent-2023

UDK 355:371.126
BBK 68:74
J 21

Jalilov Nodirjon Azamatovich Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirish /Monografiya/

Ushbu monografiyada bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining harbiy kreativ sifatlarini rivojlantirish omillari aniqlashtirilgan, o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirish jarayoni modeli takomillashtirilgan, kreativ sifatlarini rivojlantirish texnologiyalari takomillashtirilgan, kreativ sifatlarini rivojlanganligini baholash mezonlari va daraja ko‘rsatkichlari takomillashtirilgan. Oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan yosh avlodni intelektual salohiyatli va kreativ fikrlaydigan qilib tarbiyalash hozirgi zamon pedagoglarining muhim vazifasi ekanligi belgilab berilgan.

Monografiya pedagogika ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan bakalavriat va magistrlarga, harbiy ta’lim fakultetlari chaqiriqqacha harbiy ta’lim bakalavriat va magistrlarga hamda barcha pedagog xodimlarga mo‘ljallangan.

В данной монографии определены факторы развития военных креативных качеств педагогов военного образования до предстоящего призыва, усовершенствована модель процесса развития креативных качеств педагогов, усовершенствованы технологии развития их креативных качеств, усовершенствованы критерии оценки развития их креативных качеств и градусные показатели. Было отмечено, что воспитание молодого поколения, обучающегося в высших учебных заведениях, интеллектуально талантливым и творчески мыслящим, является важной задачей современных педагогов.

Монография предназначена для студентов и магистров, обучающихся по специальностям педагогика, магистрантов и магистров военного образования, а также всего профессорско-преподавательского состава.

This monograph identifies the factors for the development of military creative qualities of military education teachers before the upcoming conscription, improves the model of the process of developing the creative qualities of teachers, improves the technologies for developing their creative qualities, improves the criteria for assessing the development of their creative qualities and degree indicators. It was noted that raising the younger generation studying in higher educational institutions to be intellectually talented and creatively thinking is an important task of modern teachers.

The monograph is intended for students and masters studying in the specialties of pedagogy, undergraduates and masters of military education, as well as all teaching staff.

Mas’ul muharrir:
B.S.Abdullayeva - Nizomiy nomidagi TDPU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo’yicha prorektor pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Taqrizchilar:
A.A.Uzoqov - Nizomiy nomidagi TDPU Harbiy ta’lim fakulteti boshlig‘i pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

A.R.Xonimkulov - Nizomiy nomidagi TDPU Harbiy ta’lim fakulteti Umumqo‘shin tayyorgarlik sikl katta o‘qituvchisi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

A.T.Baboyev - Buxoro davlat pedagogika instituti Harbiy ta’lim fakulteti boshlig‘i dotsent

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy-texnik kengashining 2023-yil 17-noyabrdagi 11-sonli qaroriga muvofiq nashrga tavsiya etilgan.

KIRISH

Jahon ta’lim muassasalari faoliyatida bo‘lajak pedagoglarning, kreativ sifatlarini rivojlanttirishning innovatsion modullari ilm-fan amaliyotiga tatbiq etilmoqda. 2015-yilda Janubiy Koreyada o‘tkazilgan ilm-fan forumida 2030-yilgacha mo‘ljallangan YUNESKOning Inchxon deklaratsiyasi qabul qilinib, unda “Ta’lim-taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlariga yetkazuvchi muhim faoliyatdir”,-deb e’tirof etilgan. Shuningdek, bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan yirik ijtimoiy loyihalarni amaliyot jarayoniga tatbiq etish yuzasidan tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida ta’limga kreativ yondashuv asosida bo‘lajak bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, yetuk pedagog kadrlar sifatida tarbiyalashga kreativ yondashuvlar orqali ta’lim jarayoniga ta’sir etish hamda innovatsion metodik ishlanmalardan foydalangan holda bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining ijodkorligi, o‘z ustida mustaqil qarorlar qabul qilishi, tashabbuskorligi, vatanparvarligi, liderlik sifatlarini rivojlantirishda interaktiv-interfaol texnologiyalarni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirish o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilishning me’yoriy asoslari yaratilmoqda. “Oliy ta’lim qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish”- vazifasi ustuvor etib belgilandi. Natijada bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari kengayadi.

Mamlakatimiz ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning tub zamirida zamonaviy ko‘nikmalar va o‘z qat’iy pozitsiyasiga ega bo‘lgan yetuk,

barkamol shaxslarni tarbiyalash ustuvor vazifa sifatida me’yoriy hujjatlarda belgilab berilgan.

Jumladan, prezidentimizning 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy Majlisga Murojaatnomasida yoshlar masalasiga to‘xtalar ekan: “O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bunga nafaqat jadal islohotlar, ilm-ma’rifat va innovatsiya bilan erishamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo‘lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur”[1]-degan ushbu murojaati mazmun-mohiyatida ham oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan yosh avlodni intelektual salohiyatli va kreativ fikrlaydigan qilib tarbiyalash hozirgi zamon pedagoglarining muhim vazifasi ekanligini belgilab beradi.

Ma’lumki, Sharq uyg‘onish davrida ta’lim-tarbiya masalalariga katta e’tibor berilgan, yaratilgan asarlarda Sharqqa xos bo‘lgan insonning axloqiy-ruhiy kamolotini ulug‘lash yetakchi o‘rin tutgan. Zero, insoniylik g‘oyasida yuksak axloqiy xislatlar ifodalangani uchun ham Sharq uyg‘onish davri falsafasi va pedagogikasida ta’limiy-axloqiy yo‘nalish ekanligi bilan ifodalangani bejiz emas. Imom Buxoriy o‘z ta’limotida “ilm o‘rganish, uni o‘rgatish yo‘llari va qoidalarini bilish masalasiga chuqur e’tibor qaratgan”[2].

Sharqda “Muallimi soniy” (“Ikkinchi muallim”) nomi bilan mashhur Abu Nasr Forobiy “ta’limda barcha fanlarning nazariy asoslari o‘rganilsa, tarbiyada ma’naviy-axloqiy qoidalar, odob me’yorlari o‘quvchilarga singdiriladi, ularga kasb-hunarga oid ko‘nikmalar hosil qilinadi”[3],-degan g‘oyani ilgari suradi.

Uning fikricha, “o‘qituvchi aql-farosatga, chiroyli nutqqa ega bo‘lmog‘i va o‘quvchilarning aytmoqchi bo‘lgan fikrlarini to‘la va aniq ifodalay olishni bilmog‘i zarur, o‘qituvchi fan bilan shug‘ullanib qolmay, balki o‘z bilimlarini o‘quvchilariga berishi ta’kidlangan. Shu bilan bir qatorda, u ilm olish masalasiga inson mohiyatini

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
[2] Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad. T.; 1990-yil. B. 83
[3] To‘xtaxo‘jayev M.X..Pedagogika nazariyasi va tarixi. Pedagogika nazariyasi. T.: 2007-yil. – 379 b.

tushuntirib berishning tarkibiy qismi sifatida qarab, ilm olish, kasb-hunar egallash har bir fozil jamiyat va fozil shahar aholisining zaruriy xislatidir”[4],-deya uqtiradi.

Xoja Bahouddin esa “o‘qituvchi, ya’ni ustozning harakatini quyidagicha tasvirlaydi: shamga o‘xshagin, toki hammaga ravshanlik bag‘ishla, o‘zing esa qorong‘uda bo‘l, ya’ni uning fikricha ustoz o‘zining ilmi, salohiyati bilan o‘zgalar yo‘lini, kelajagini shamdek yoritmog‘i, o‘zi esa doimo izlanishda, ibodatda bo‘lmog‘i lozimligiga urg‘u bergan”[5].

Xususan, mutafakkir Yusuf Xos Hojib “Yurtni idora etuvchi va xalqni boshqaruvchilarni ikki toifaga bo‘lib, birinchisi adolatli siyosatni yurituvchi beklar va ikkinchisi dono olimlar, o‘qituvchilar,-deydi. Binobarin, siyosatchilar yurtni boshqarsa, olimlar ma’rifiy yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi”[6]-degan purmano fikrlari tahsinga sazovordir.

Abu Rayhon Beruniy, “tarbiyachining o‘zi o‘rnak bo‘lmasa, aytgan gapiga o‘zi rioya etmasa, uning talabi va tarbiyasi samarasizdir”[7]-deya ta’kidlasa.

Voiz Koshifiyning uqtirishicha, “insonni ta’lim-tarbiya orqali qayta tarbiyalash, aqliy qobiliyatini o‘stirish mumkin. Buning uchun bolaga yaxshi ta’lim-tarbiya berish, unda yaxshi sifatlarni o‘stirish, uni nojo‘ya xatti-harakatlardan qaytarish lozim”[8],-deb ta’kidlaydi.

Behbudiy “ta’lim-tarbiyada muvaffaqiyatga erishishning birdan bir yo‘li o‘lkada ilm-fanni rivojlantirish ekanini aytadi”. Behbudiy “ta’lim-tarbiya ishini ijtimoiy hayot, jahon miqyosida sodir bo‘layotgan voqealar bilan hamohang tarzda olib borishni talab etadi”[9]-degan mazmunli mulohazasi muhim ahamiyatga ega.

Abdulla Avloniy “insonni kamolotga yetkazishda bosh omil bo‘lgan aql ilm va tajriba tufayli rivojlanadi. Ilm olish riyozat chekishni, sa’y-g‘ayratni talab qiladi”[10],- degan purmano so‘zlari tahsinga sazovordir.

---

[4] To‘xtaxo‘jayev M.X..Pedagogika nazariyasi va tarixi. Pedagogika nazariyasi. T.: 2007-yil. – 379 b.
[5] Zunnunov A. Pedagogika tarixi. – T.: 2004-yil. B. 333.
[6] Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/turk/yusuf-xos-hojib-qutadgu-bilik-emin-usmon-tarjimasi.html.
[7] Beruniy A.R. Tanlangan asarlar. https://elib.buxdu.uz/index.php/ kutubxona/o-zbek-tilidagi-adabiyotlar/item/9537.
[8] Zunnunov A. Pedagogika tarixi. – T.: 2004-yil. B. 335.
[9] Zunnunov A. Pedagogika tarixi. – T.: 2004. B. 335.
[10] Zunnunov A. Pedagogika tarixi. – T.: 2004-yil. B. 335.

Abdurauf Fitrat “o‘zining ilmiy, adabiy, ma’rifiy asarlarida vatanparvarlik, insonparvarlik, millatparvarlik, ma’rifatparvarlik g‘oyalarini bayon etdi, ma’rifatni keng yoyishni o‘zining vijdoniy burchi deb bildi”[11].

Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirishda kreativ sifatlarni muhim o‘rin tutishi bilan alohida ajralib turadi, bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ sifatlarini rivojlantirishda pedagogik-psixologik jihatlar muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Sharq va G‘arb mutafakkirlarining shaxs kreativligi, o‘qituvchining kreativ sifatlari xususidagi fikrlarning asoslarini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, shaxsdagi kreativ sifatlarni rivojlanishiga ta’sir etuvchi eng muhim omil mustaqillik hisoblanadi va ta’lim jarayonida mustaqil faoliyat bilan shug‘ullanish uchun zaruriy shart-sharoitni yaratish alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu o‘rinda kreativlik so‘zining konseptual izohiga, uning mazmun-mohiyatiga olimlar va tadqiqotchilarning ilmiy qarashlari hamda fikrlarini o‘rganish ayni muddaodir. Bugungi kunga kelib, kreativlik va bilim o‘rtasidagi yaqin aloqani ko‘rsatadigan mamlakatimiz va chet el olimlari tomonidan olib borilgan ko‘plab tadqiqotlar mavjud.

[11] Zunnunov A. Pedagogika tarixi. – T.: 2004-yil. B. 335.

I BOB. BO‘LAJAK CHAQIRIQQACHA HARBIY TA’LIM O‘QITUVCHILARINING KREATIV SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1. Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.

Mamlakatimiz ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning tub zamirida zamonaviy ko‘nikmalar va o‘z qat’iy pozitsiyasiga ega bo‘lgan yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash ustuvor vazifa sifatida me’yoriy hujjatlarda belgilab berilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Jamiyatimizda oliy ma’lumotga ega, yuksak malakali mutaxassislar qancha ko‘p bo‘lsa, rivojlanish shuncha tez va samarali bo‘ladi”[12],-deya ta`kidlaganligi va mustaqilligimizning 31-yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilga bayram tadbirida so‘zlagan nutqlarida “Yangi O‘zbekiston maktab bitiruvchisi zamonaviy ko‘nikmalarni egallagan, axborot texnologiyalarini puxta o‘zlashtirgan, kreativ fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan, dunyoqarashi keng shaxs bo‘lib yetishadi”[13]-degan fikrlari tahsinga sazovordir.

Xususan, mamlakatimiz olimlaridan G.N.Ibragimova[14], Ch.T.Shokirova[15], M.A.Tilakova[16], I.M.Sirojiddinova[17], D.Sh.Djo‘rayeva[18] lar talabalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha, A.R.Aripdjanova “ta’limni axborotlashtirish sharoitida oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini

[12] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
[13] Prezedintimiz Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston mustaqilligining 31-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi so‘zlagan nutqi. https://xabar.uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyevning-ozbekiston-mustaqilligining-31-y
[14] Ibragimova G.N. Interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. Des. fal dok (PhD).T:. 2017-yil. B. 33-34.
[15] Shokirova Ch.T. Talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish va dasturiy nazorat asosida o‘qitish samaradorligini oshirish. Des....Ped. fan. nomz. A .: 2009-yil. B. 45.
[16] Tilakova M.A. “VIII-IX sinf o‘quvchilarida sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik shart sharoitlari”. Des. fal dok (PhD). 2019-yil. B. 101.
[17] Sirojiddinova .I.M Oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish. Des.... Ped. fan.fal dok (PhD).T:.2020-yil. B. 65.
[18] Djurayeva D.Sh. “Muammoli yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish” Des. fal dok (PhD). 2022-yil. B. 16.

rivojlantirishga doir tadqiqot ishi”[19], T.Ch.Aliboyev “innovatsion ta’lim muhitida o‘quvchilarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish”[20], Sh.X.Pozilova “Oliy ta’lim muassasalari tinglovchilarini qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida kreativ o‘qitish metodikasi”[21], R.Y.Musinova “bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ o‘zini-o‘zi boshqarishni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari”[22]ga doir tadqiqot ishlari olib borilgan.

Jumladan, olimlar N.A.Muslimov, M.H.Usmonboyeva, D.M.Sayfurov, A.B.To‘rayevlar tomonidan “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari”[23], M.Usmonboyeva, A.To‘rayevalar “Kreativ pedagogika asoslari”[24], M.M.Musurmonova “Kreativ yondashuv asosida o‘qitishning didaktik ta’minotini yaratish mexanizmlari”[25], A.I.Avazboyev, J.E.Pardaboyev “Talabalarda kreativ sifatlarni rivojlantirishning samarali yo‘llari”[26] nomli ilmiy risolalari chop etishgan.

Bizning fikrimizcha, bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq ekanligi va o‘qituvchilarning kelajak faoliyatlarida yuz berishi mumkin bo‘lgan har xil tezkor vaziyatlarda ulardan oqilona foydalanib yechimga ega qarorlar qabul qilishlarida o‘qituvchilarning, ya’ni bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlashga yo‘naltiradi.

Pedagogika fanlari doktori professor G.N.Ibragimova, “kreativ mutaxassis quyidagi fazilatlarga ega bo‘lishi kerak: topqirlik, o‘z-o‘zini tanqid qilish va tanqidiylik, moslashuvchan fikrlash, mustaqillik, fikr-mulohazalar, jasorat va

---

[19] Арипджанова А.Р. Развития креативного потенциала педагоговвысших образовательных учреждений в условиях информатизатсии образования. дис. ... док фил (ПҳД) педаг наук. 2017-г. 15 с.

[20] Aliboyev.T.CH. Innovatsion ta’lim muhitida o‘quvchilarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish. Des... Ped fan fal dok (PhD). J.: 2021-yil. B. 46.

[21] Pozilova Sh.X. Oliy ta’lim muassasalari tinglovchilarini qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida kreativ o‘qitish metodikasi. Des.fal.dok.(PhD). 2019-yil. B. 22.

[22] Мусинова Р.Ю. “Социолно-психологические особенности формирование креативной сомарегулясии у будущех педагогов”. Дес. док фил (ПҳД) по псих-ким науком. Самарқ. 2019-йил.112. с.

[23] Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – T.; 2015-yil.B 120.

[24] Usmonboyeva M., To‘rayev A. “Kreativ pedagogika asoslari” Toshkent 2016 -yil. 18-19 betlar.

[25] Musurmonova M.M. “Kreativ yondashuv asosida o‘qitishning didaktik ta’minotini yaratish mexanizmlari”. “Science and education” Scientific journal. 2018-yil. https://www.iiste.org/.

[26] Avazboyev A.I., Pardaboyev J.E. Talabalarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yo‘llari. Zamonaviy ta’lim / Sovremennoye obrazovaniye 2018-yil. 8. B. 20-25.

g‘ayrat, ishni oxirigacha yetkazishda matonat, maqsadga muvofiqlik”[27],-degan fikrni bildirsa.

Sh.X.Pozilova “kreativlik deganda tinglovchilarning nostandart fikrlashi natijasida yangi, original g‘oyalarni yaratishga qaratilgan faoliyati, “kreativ o‘qitish” esa pedagog va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi ijodiy munosabat, o‘zaro ta’lim oluvchi yoki ma’lum bir vosita orqali ta’lim oluvchi orasidagi kreativ jarayon bo‘lib, u shaxs kreativligini rivojlantirishga xizmat qiladi”[28]-deb hisoblaydi.

Shuningdek, Professor N.A.Muslimov “o‘qituvchilarning kreativ sifatlarini rivojlantirishning muhim sharti mashg‘ulot paytida ijodkorlik muhitini yaratish hisoblanadi, chunki bu holda faqat turli xil o‘quv faoliyatida qobiliyatlarni namoyon etish imkoniyati mavjud. Shu bilan bir qatorda, har bir shaxsning umumiy ishga qo‘shgan hissasi muhim, uning qiziqishini o‘stirish va uni rag‘batlantirish, ularda motivatsiyani, so‘z va harakat erkinligini oshirish kerak”[29]-deya o‘z ilmiy fikrini bayon qilgan bo‘lsa.

R.Y.Musinovaning ilmiy qarashlarida “kreativ o‘zini-o‘zi boshqarish jarayonining o‘zi kreativ maqsadni tanlash va amalga oshirishni, individual kreativ, kreativ imkoniyatlarni anglash va hisobga olishni, hakaratlar ketma-ketligini tuzish haqidagi g‘oyalarni shakllantirishni, ma’lumotlar va natijalarni baholash normalari va mezonlarini belgilashni, kreativ maqsadga erishish uchun dasturlarni tuzishni o‘z ichiga olgan shartli, izchil harakatlar shaklida taqdim etilishi mumkin”[30]-degan fikri muhim ahamiyatga ega.

I.M.Sirojiddinovaning ilmiy tadqiqotlarida “kasbiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonining barqarorligi bo‘lajak o‘qituvchining yoshi, uning psixologik va individual xususiyatlari hamda oliy ta’lim muassasasining tarbiyaviy

[27] Ibragimova G.N. Interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. Des. fal dok (PhD).T:. 2017-yil. B. 33-34.
[28] Pozilova Sh.X. Oliy ta’lim muassasalari tinglovchilarini qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida kreativ o‘qitish metodikasi. Des.fal.dok.(PhD). 2019-yil. B. 22.
[29] Muslimov N.A. “Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirish”.T.: Fan, 2004-yil, 124 bet.
[30] Мусинова Р.Ю. “Социолно-психологические особенности формирование креативной сомарегулясии у будущех педагогов”. Дес. док фил (ПҳД) по псих-ким науком. Самарқ. 2019-йил.112-бет.

ishlari samaradorligiga, o‘z tarbiyaviy ta’sirlari va faolliklari bilan qanday umumlashtira olishiga bog‘liq”[31]-deya1 ta’kidlaydi.

Bizning fikrimizcha, kreativlik shaxsning ijodiy yondashuvi asosida, o‘ziga xos sifatlarga ega bo‘lgan va innovatsion g‘oyalarni yarata oladigan intellektual salohiyatga ega qobiliyatlar tushunilsa, unda kreativ sifatlar insonning ichki manbai sifatida qaraladi.

Psixolog olim E.G‘oziyev “Talabalarning kreativ sifatlarni rivojlantirish mezonlari: motivatsion - kasbiy yo‘naltirilgan faoliyatga qiymat munosabati. Bu bilan biz harbiy fanlarni o‘rganishga qadriyatli motivatsion munosabatni nazarda tutamiz: turli darajadagi murakkablikdagi muammolarni hal qilish istagi; guruhlarda ishlash istagi (boshqa talabalar bilan bog‘lanish qobiliyati), kasbiy o‘sishga qiziqish”[32]-deb hisoblaydi.

Olimlarning ilmiy izlanishlaridan kelib chiqib kreativ sifatlarni rivojlantirish mezonlari ko‘rsatkichlarini quyidagi holda belgilashimiz mumkin: motivatsiya, kreativ sifatlar va bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatni rivojlantirish uchun yo‘naltirilganligi. Shaxsning hissiy va irodaviy fazilatlari ular: maqsadga muvofiqlik, samaradorlik, qat’iyatlilik, o‘ziga ishonch, o‘z harakatlarini boshqarish qobiliyati, faoliyatdan qoniqish; intellektual va ijodiy ko‘nikmalar.

Bularga turli xil manbalardan o‘quv ma’lumotlarini qidirish quyidagi qobiliyatlari kiradi: vazifalarni amalga oshirishda ijodiy ishlash, nostandart qarorlar qabul qilish, yangi sharoitlarda tezda harakat qilish qobiliyati; oddiy vazifalarni o‘ziga xos tarzda hal qilish, mavjud g‘oyalarni ijodiy qayta ishlash qobiliyatlarini ta’kidlab o‘tishimiz mumkin.

Ma’lumki, ijodiy faoliyat bizning kundalik hayotimizni jozibali qiladi, fan va san’atni ijodsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Biz har doim murakkab fikrni ifodalaganimizda yoki oq qog‘ozni matn bilan qoraytirganimizda ijod qilamiz. Agar biz shu ishni samarali va g‘ayrioddiy tarzda uddalay olsak, bizni rosmana ijod kishisi

[31] Sirojiddinova .I.M Oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish. Des.... Ped. fan.fal dok (PhD).T:.2020-yil. B. 65.
[32] G‘oziyev E. Umumiy psixologiya. T.; 2002-yil . B. 7-8.

deb atash mumkin[33]. Shuningdek, ijodiy faoliyat kundalik faoliyatimizdagina ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biridir.

Jumladan, psixolog olim Yu.M.Asadov “kreativ salohiyatning eng qimmatli xususiyati uning innovatsiya sohasidagi yuksak rolidir. Innovatsiya asosan inson aqlining mahsuli bo‘lgan intellektual qator sifatida kreativ salohiyatdan foydalanishning eng tizimli va vizual natijasidir”[34]-degan fikri asosli hisoblansa.

T.Ch.Aliboyevning “kreativlik sifatiga ega shaxs faoliyatida izchil ravishda yangi g‘oyalarni ilgari surish, masala, muammoning yechimini topishda oqilona qarorlarni qabul qilish, mahsulotni o‘zgacha ko‘rinishda talqin etish, uni original elementlar bilan boyitish orqali amaliy qiymatga ega 6 natijaga ega imkoniyatni yaratuvchi qobiliyat aks etadi”[35]-deya ta’kidlaydi.

Shuningdek, T.T.Kaziyevaning ilmiy izlanishlarida “o‘quvchilarga fonetik sathni puxta, tizimli o‘rgatish ta’lim sathlararo va fanlararo aloqadorlik tamoyiliga amal qilgan holda modulli ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish, berilgan ta’riflarning qay darajada anglay olishlarini aniqlash, kreativ sifatlarini rivojlantirish maqsadida izlanishga yo‘naltirish, o‘quv topshiriqlarining uzluksiz ta`limini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish orqali uning yechimini topish”[36]-deb ta’riflaydi. Shu nuqtayi nazardan kreativlik fanlararo integratsiyalashuvda namoyon bo‘lib takomillasha boradi.

D.Sh.Djo‘rayevaning fikriga ko‘ra, “ijod tushunchasini psixologik aktni ifodalashga jonlantiruvchi, qabul qiluvchi yoki ongimizga oid turli xil ma’lumotlarni kombinatsiyasi shartli ravishda badiiy va amaliy faoliyatdagi original va yangi rivojni namoyon etuvchi xususiyat sifatida belgilanadi”[37]-deya izohlaydi.

---

[33] Shokirova Ch.T. Talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish va dasturiy nazorat asosida o‘qitish samaradorligini oshirish. Des....Ped. fan. nomz. A .: 2009-yil. B. 45.

[34] Asadov Yu.M. Individualno-psixologicheskiye osobennosti uchitelya kak faktorы razvitiya professionalizma: Avtoref. dis. … kand. psix. nauk. T.; 2007-yil. 25 s.

[35] Aliboyev.T.Ch. Innovatsion ta’lim muhitida o‘quvchilarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish. Des... Ped fan fal dok (PhD). J.: 2021-yil. B. 46.

[36] Kaziyeva T.T. Fonetik uslubiyotni o‘rganishda o‘quvchilarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari Des. fal dok (PhD). 2019-yil.B. 35.

[37] Djurayeva D.Sh. “Muammoli yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish” Des. fal dok (PhD). 2022-yil. B. 16.

M.M.Musurmonova “shaxsda kreativ sifatlarni rivojlantirish, har doim, ularning tanqidiy fikrlash bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishni talab etadi”[38]-deya ta’rif berib o‘tadi.

Umuman olganda, pedagogik faoliyatning muhim mikroelementlari nostandart yechimlardan iborat, o‘qituvchi faoliyatida pedagogik vaziyatlar bir qarashda bir-biriga o‘xshash ko‘rinsada, o‘qituvchining ushbu vaziyatlardagi har bir xatti-harakati muhim sanaladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ sifatlarini rivojlantirish, birinchi o‘rinda, ularda ahamiyatga molik bo‘lgan tanqidiy munosabat bildirish ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonida bir-biriga hamohang tarzda kreativ fikrlash sifatlarini takomillashtirish asosiy o‘rin tutadi.

Kreativ sifatlarni rivojlantirish yuzasidan Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan E.R.Varlakova oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak pedagogik ta’lim talabalarining kreativ sifatlarini rivojlantirish bo‘yicha[39], N.M.Gnatko ijodkorlik muammosi va taqlid hodisasi haqida[40], L.D.Lebedeva boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativligi to‘g‘risida[41], V.F.Lugovaya kreativlik shaxsning moslashuvchan potensialining tarkibiy qismi sifatida[42], L.A.Zatsepilova[43], O.G.Pozdnyakov[44], O.N.Ovsyannikova[45] oliy harbiy ta’lim muassasalari ko‘rsantlarining kreativ sifatlarini rivojlantirish masalalari tadqiq qilingan.

Xususan, kreativ sifatlarning rivojlanish jihatlari, psixologiya va ijodiy fikrlash pedagogikasi, intellektual darajadagi faoliyatning ijodkorlik muammosi, ijodkorlik psixologiyasi va pedagogikasi hamda mikromuhitni kreativ sifatlarini rivojlantiruvchi ta’siri doirasida eksperimental o‘rganish bo‘yicha tadqiqotchi

---

[38] Musurmonova M.M. “Kreativ yondashuv asosida o‘qitishning didaktik ta’minotini yaratish mexanizmlari”. “Science and education” Scientific journal. 2018-yil. https://www.iiste.org/.
Варлакова Ю.Р. “Развитие креотивности будуших бакалавров педагогического образования в вузе” Дес. кан.пед.наук. Красн. 2013.

[40] Гнатко Н.М. Проблема креативности и явление подражания. https://search.rsl.ru/ru/record/01001690092.

[41] Лебедева Л. Д. Креативност младших школников. Дис. ... канд. пед. наук. Уляновск. 2004. 194 с.

[42] Луговая В.Ф. Креативност как компонент адаптационного потенциала личности. Дис. ... канд. псих. наук Санк – Петер. 2005.

[43] Затсепилова Л.А. “Развитие креативности курсантов при изучении гуманитарных диссиплин в высшем военно-учебном заведении”. Дис. Кан пед наук. Улянск. 2011. 27. с.

[44] Поздняков.О.Г. Педагогические пути развития творческих способностей к познавателной деятелности у курсантов военных вузов. Дес. Кан пед наук. Красно. 2013. 39. с.

[45] Поздняков.О.Г. Педагогические пути развития творческих способностей к познавателной деятелности у курсантов военных вузов. Дес. Кан пед наук. Красно. 2013. 39. с.

olimlar Ye.F.Kolomiyets[46], I.N.Semenov[47], D.B.Bogoyavlenskaya[48], V.N.Drujinin[49], E.A.Ponomaryov[50] tomonidan ilmiy risolalar chop etilgan. V.N.Drujinin “yuqori kreativ subyektlarning rivojlanish bosqichi hayotiy faoliyat muvozanatini oshirish bo‘yicha moslikni ifodalaydi”[51],-degan so‘zlarni ta’kidlagan.

Demak, didaktik tizimdagi ijodkorlik elementlarini hisobga olgan holda P.Y.Galperin ва N.F.Talizina “Boshqaruvning namuna, ko‘rsatma berish, eng katta rivojlangan effekt kabi uch turini aniqladilar. Natijada, talabalar mehnat yo‘llarini umumiy shakllantirish, bilimni kengroq ulashish, moslashuvchanlik, fikrlash mustaqillik va shubhasiz zarur shart-sharoitlar va talabalarning ijodiy erkinlik ko‘rsatkichlari namoyon bo‘ladi”[52]-deya ta’kidlagan bo‘lsa.

E.A.Ponomaryov “kreativ faoliyat natijasi sezgi kiritishni o‘z ichiga oladi va uni mantiqiy xulosa asosida olish mumkin emas. Ikki shaxsiy fazilat ijodkorlik bilan bog‘liq, ya’ni fikrlash jarayonida paydo bo‘ladigan izlanish motivatsiyasi va yondosh bilimlarga nisbatan sezgirlikning intensivligi”[53]-deb izohlaydi.

Bizning nazarimizda, bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ sifatlarini rivojlantirish bosqichlarida ijodiy qobiliyatlarning namoyon bo‘lish darajasi bilan bog‘liq jarayondir.

Jumladan, I.N.Semenov “ijodkorlik – bu obyektiv rivojlanish jarayonini odamlarning ongli faoliyati orqali amalga oshirishdir, deb hisoblaydi”[54].

N.M.Gnatko “ijodkorlik va kreativlik tushunchalarini ajratib, ushbu hodisalarning yagona doirasi sifatida ikki tomonini belgilaydi, bunda ijodkorlik bu

---

[46] Коломиес Е.Ф. Когнитивные аспекты современного исследования креативности Ананевские чтения, 2009. С.201-202.
[47] Семенов И.Н. Рефлексивная психология и педагогика творческого мышления. file:///D:/Google%20Chrome/refleksivnaya-psihologiya-tvorchestva-kontseptsii-eksperimentatika-praktika.pdf.
[48] Богоявленская Д.Б. Интеллектуалная активност как проблема творчества. https://rusneb.ru/catalog/000199_000009_001181731/.
[49] Дружинин В.Н., Хазратов Н.В. Экспериментальноэ исследование формирующего влияния среды на креативност. https://arxiv.gaugn.ru/s0205-95920000621-0-1-ru-1631/.
[50] Пономарёв Я. А, Психология творчества и педагогика. https://search.rsl.ru/ru/record/01007012898.
[51] Дружинин В.Н., Хазратов Н.В. Экспериментальноэ исследование формирующего влияния среды на креативност. https://arxiv.gaugn.ru/s0205-95920000621-0-1-ru-1631/.
[52] Галперин П. Я. Талызина Ф. Современная теория поэтапного формирования умственных действий. Вестник Московского университета. Серия 14: Психология. https://istina.msu.ru/publications/article/1255183/.
[53] Пономарёв Я. А, Психология творчества и педагогика. https://search.rsl.ru/ru/record/01007012898.
[54] Семенов И.Н. Рефлексивная психология и педагогика творческого мышления. file:///D:/Google%20Chrome/refleksivnaya-psihologiya-tvorchestva-kontseptsii-eksperimentatika-praktika.pdf.

birlikning protsessual-mahsulotli tomoni, kreativlik esa subyektni shartlashtiruvchi tomoni hisoblanadi”[55]-diya tariflaydi.

Xususan, ijodkorlikni tadqiq etish aspektiga doir tadqiqotlar olib borgan rus olimasi L.D.Lebedeva taklif etgan uchlik orqali “ijod strukturasi: shaxsning ijodiy yo‘nalganligi; ijodiy fikrlash; maxsus qobiliyatlar majmuidir”[56]-deya ta’kidlasa.

R.Petruneva, N.Dulina, O.Tokarevlarning fikricha, eng umumiy shaklda ijodkorlik tushunchasi jarayonning o‘tmish, hamkorlik va keyingi xususiyatlarini o‘z ichiga oladi, natijada bir kishi yoki bir guruh odamlar ilgari mavjud bo‘lmagan yangi narsalarni yaratadilar[57]-degan fikrni bildiradi.

Binobarin, ijodkorlik va kreativlik tushunchalari bir-birini to‘ldiruvchi mazmundor konseptual asosga ega bo‘lgan differensial leksemalardir.

Olimlarning kreativ sifatlarni rivojlantirish bo‘yicha fikrlarininh qiyosiy tahlili.

1-Jadval

Mualliflar	**Olimlarning kreativ sifatlarni rivojlantirish bo‘yicha fikrlari**
E.G‘oziyev[58]	- muammolarni hal qilish istagi; - guruhlarda ishlash istagi; - kasbiy o‘sishga qiziqish.
G.N.Ibragimova[59]	- topqirlik; - o‘z-o‘zini tanqid qilish; - moslashuvchan fikrlash; - mustaqillik; - fikr-mulohazalar erkinligi; - jasorat va g‘ayrat; - ishni oxirigacha yetkazishda matonat; - maqsadga muvofiqlik.

[55] Gnatko N.M. Проблема креативности и явление подражания. https://search.rsl.ru/ru/record/01001690092.
[56] Лебедева Л. Д. Креативност младших школников. Дис. ... канд. пед. наук. Уляновск. 2004. 194 с.
[57] Петрунева Р., Дулина Н, Токарев О. О главной сели образования. https://www.elibrary.ru/item.asp?id=21264835.
[58] G‘oziyev E. Umumiy psixologiya. T.; 2002-yil . B. 7-8.
[59] Ibragimova G.N. Interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. Des. fal dok (PhD).T:. 2017-yil. B. 33-34.

A.N.Luk[60]	- qiziqqonlik; - shiddatlilik; - qarashlarning mustaqilligi; - yuqori intellekt (bilimdonlik); - “o‘yin” ga moyillik; - yumor hissi; - originallik (asllik); - talabchanlik.
V.A.Kan-Kaalik[61]	- modifikatsiyalash kombinatsiyalash qobiliyati; - o‘z faoliyatini nostandart yechimga moslashtirish; - asosiy g‘oyani aniqlash qobiliyati; - eruditivlik xususiyatining mavjudligi.
E. P.Torrance[62]	- axborotni yangi tuzilmalarga kiritish jarayonida; - yetishmayotgan ma’lumotlarni aniqlash jarayonida; - yechimlarni topish va ularni tekshirish jarayonida; - natijalarni umumlashtirish jarayonida.

Jumladan, O.N.Ovsyannikova “ko‘rsatkichlar sifatida quyidagilarni tanlagan: kasbiy amaliy vazifalarni hal qilish texnikasi va ularning usullarini o‘zlashtirish hamda ulardan foydalanish qobiliyati; kreativ fikrlashni rivojlantirish; o‘zlarining faoliyatini aks ettirish, bilimlarni qayta ishlash (muhim fikrlarni ta’kidlash, muammoni aniqlash, g‘oyalarni yaratish, faktlar va hodisalar o‘rtasidagi munosabatlarni topish) qobiliyatida ifodalanadi; tanqidiy fikrlashda; harbiy fanlarni turli mavzularda o‘quv vazifalarini (reproduktiv, muammoli, qisman qidiriladigan) bajarish qobiliyatida; o‘quv ma’lumotlari bilan ishlashda, shuningdek yakuniy bosqichda (harbiy fanlarning imtihonida) tezislar va annotatsiyalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan hollarda amalga oshiriladi”[63]-degan purmano fikrlari tahsinga sazovordir.

[60] Лук А.Н. Психология творчества. https://search.rsl.ru/ru/record/ 01007801167.
[61] Кан-Калик В.А. Учителю о педагогическом общении. https://www.booksite.ru/fulltext/kankal/text.pdf.
[62] Torrance E. P. Guiding Creative Talent. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, Inc. http://dx.doi.org/10.1037/13134-000.
[63] Овсянникова О.Н. “Психолого-педагогические условия развития креативных способностей у курсантов военного вуза (на материале изучения курса иностранного языка)”. Дес. Кан пед наук. Орел-2005. 28. с.

O.G.Pozdnyakov “o‘z ilmiy izlanishlari orqali, turli manbalarda ijodkorlik tushunchasini ko‘rib chiqishda aksanlar quyidagicha joylashtirilgan. Ijodkorlik – bu mutlaqo yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorligi bilan ajralib turadigan va mustaqil omil sifatida shaxsning iqtidor tarkibiga kiritilgan qobiliyati”[64]-deb ta’kidlagan.

Ye.F.Kolomiyets “inson qanchalik ko‘p bilimga ega bo‘lsa, yangi, nostandart vazifalar va muammolarni hal qilishda uning yondashuvlari shunchalik xilma-xil bo‘ladi, deb hisoblaydigan olimlarning pozitsiyasiga amal qilgan holda. Asosiy fanlarni bilish o‘qituvchi zamonaviy bakalavr darajasini olishning zaruriy shartidir. Bunda yetakchi rolni nafaqat bilimlar hajmi, balki ularning tizimliligi, aniqligi, harakatchanligini ham bajaradi”[65]-deya o‘z fikrini bildirgan bo‘lsa, O.G.Pozdnyakov “o‘qitishda talabalarning ijodkorligi amaliyotda bilim, ko‘nikma va malakalarni chuqur o‘zlashtirish va qo‘llash, ularning ijodiy kuchlarini, iste’dodlarini, qobiliyatlarini bir vaqtning o‘zida rivojlantirish uchun samarali usul bo‘lib xizmat qiladi”[66].

L.S.Vigotskiy o‘z asarlarida ijodkorlik va shaxsiy rivojlanish masalalariga yuksak darajada e’tibor qaratadi, chunki inson atrofidagi hayotda paydo bo‘ladigan barcha yangi narsalar faqat uning ijodiy faoliyati tufayli sodir bo‘ladi[67]-degan 2 fikrni bildirgan.

Xorij olimlari J.P.Guilford[68] va E.P.Torrence[69] “ijodkorlikni insonning qobiliyati yoki mulki sifatida ta‘kidlaydi”. E.P.Torrence “kreativlik bilan shaxsning nostandart ijodiy fikrlash qobiliyatini, shaxsni o‘rganish va ularni hal qilish yo‘llarini hamda ushbu muammolarni aniqlash, ularning yechimlarini izlash kreativlikni jarayon sifatida ko‘rib chiqish va bu jarayonni rag‘batlantiradigan sharoitlarni aniqlagan”[70].

---

[64] Поздняков.О.Г. Педагогические пути развития творческих способностей к познавателной деятелности у курсантов военних вузов. Дес. Кан пед наук. Красно. 2013. 39. с.

[65] Коломиес Е.Ф. Когнитивные аспекты современного исследования креативности Ананевские чтения, 2009. С.201-202.

[66] Поздняков.О.Г. Педагогические пути развития творческих способностей к познавателной деятелности у курсантов военных вузов. Дес. Кан пед наук. Красно. 2013. 39. с.

[67] Выготский Л.С. О психологических системах. Психология развития как феномен культуры: http://lib.mgppu.ru/opacunicode/app/ webroot/index.php?url=/notices/index/IdNotice:179093/Source:default.


[68] Guilford J.P. Tri storonы intellekta. https://www. metodolog. ru/00736/00736.html.

[69] Torrance E. P. Guiding Creative Talent. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, Inc. http://dx.doi.org/10.1037/13134-000.

[70] Torrance E. P. Guiding Creative Talent. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, Inc. http://dx.doi.org/10.1037/13134-000.

Kreativlik bo‘yicha birinchi nazariy va amaliy tadqiqotlarni amerikalik psixolog J.P. Guilfordga tegishli: u 1959-yilda “kreativlik” atamasini kiritgan, uni tafakkurning alohida turi – muammoni hal qilishning ko‘plab usullarini ta’minlaydigan, kutilmagan xulosalar va natijalarga olib keladigan divergent (“divergent, turli yo‘nalishlarga boradigan”) fikrlash deb atagan. Bunday fikrlash yagona to‘g‘ri yechimga qaratilgan konvergent bilan taqqoslanadi. Konvergent (lotincha convergere – bir yo‘ldan) tafakkur formasi bo‘lib, muammoning bir qancha yechimlaridan faqat yagona to‘g‘risini tanlashdir[71].

Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativligini rivojlantiruvchi asosiy sifatlar (1.1-rasmda) ko‘rsatib o`tilgan.



1.1-rasm. Kreativlikni rivojlantiruvchi asosiy sifatlar.

Innovatsion – egallangan yangi bilimlarni haqiqiy harbiy harakatlarda amalda tatbiq eta olishi, o‘z ustida muntazam ishlashi va harbiy mashg‘ulotlarda olgan bilimlarini yosh avlodga etkaza olishi.

[71] Guilford J. P. Creative Talents. https://www.amazon.com/Creative-Talents-Their-Nature-Development/dp/0943456150.

Kommunikativ – harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni rivojlantirish, Vatanimizning hududiy yaxlitligini asrash va uni himoya qilish, o‘z jonini fido qilib so‘nggi nafasigacha vatanni himoya qilish, harbiy mashg‘ulotlarda olgan bilimlarini haqiqiy jang maydonlarida qo‘llay olishi.

Analitik – egallangan yangi bilimlarni amalda tatbiq qila olishi, olgan harbiy bilimlarni muntazam takrorlab borish va harbiy faoliyat bilan bog‘liq harakatlarni o‘zlashtirb borish 2.

Altruistik – chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni tashkil etish va uni o‘qitish metodikasi fanini, fanga doir dolzarb masalalarni bilishi, komandir sifatida jang maydonida turli xil vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila olishi.

Konsruktiv – harbiy faoliyat bilan bog‘liq tizimli bilim va ko‘nikmalarni egallashi.

Axborot oluvchi – turli axborot-informatsiyalarga ega bo‘lishi va ularni yig‘ish, saqlash va harbiy faoliyat nuqtayi nazardan tahlil qilish usullarini ishlab chiqishi, o‘z harbiy professional faoliyatida mustaqil qarorlar qabul qila olishi.

Muammolarni sezgir sintez qiluvchi – harbiy ta’lim mazmunini belgilash tamoyillari va mezonlariga rioya etish, harbiy moddiy ta‘minotni tanlash va tizimlashtirishga doir zamonaviy harbiy yondashuvlarni hisobga olish, harbiy o‘quv materiallarini tizimlashtirish.

Nostandart fikrlash qobiliyatiga ega – harbiy ta’lim jarayoniga ta‘luqli turli ta‘lim metodlarini va yangi turdagi qurol-aslaha harbiy texnikalarni qo‘llay olish, kreativ yondashuv asosida turli harbiy holatlarda kreativ fikrlash asnosida vaziyatlardan chiqish qobiliyati.

Zaruriy informatsiyaga ega bo‘lish – ijtimoiy va internet tarmoqlaridagi eng yangi qurol aslaha texnikalardan xabardor bo‘lish va bularni qo‘llay olishi, olingan yanggi ma’lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va uni topish.

Xususan, doktor E.De.Bono, “odamlar kreativ bo‘lishni o‘rganishlari mumkinligiga ishonadi. Buning uchun ularga motivatsiya, shuningdek, yangi muqobillarni topishga yordam beradigan texnikalar majmuasi kerak. Uning fikricha,

bu noma’lum farqlarni topish va yangi toifalarni yaratish qobiliyatiga ega bo‘lishni anglatadi”[72].

L.L.Thurstone “ijodiy yechimlar, uning fikriga ko‘ra, muammoni hal qilishga e’tibor qaratish vaqtida emas, balki dam olish, chalg‘itadigan paytda keladi”[73]-deya ta’kidlaydi.

C.R.Rogers “ijodiy jarayonni, bir tomondan, shaxsning o‘ziga xosligidan o‘sib chiqadigan, ikkinchi tomondan – moddiy, voqealar, odamlar va hayot sharoitlari bilan shartlangan harakat orqali yangi fikr yaratish”[74]-deb tushunsa.

P.Drapeau “Kreativlik fikrning shunday turiki, u shaxsga bir muammo yoki masala yuzasidan birdaniga bir nechta yechimlar paydo bo‘lishini taqozo etadi va shablonli, zerikarli fikrlashdan farq qilib, narsa va hodisalar mohiyatidagi o‘ziga xoslik, noyoblik sifatlarini anglashga yordam beradi”[75]-deya fikr bildiradi.

Shuningdek, A.Maslow “Kreativ sifatlarni aktuallashtirishda motivlar, qadriyatlar va shaxsiy xususiyatlar asosiy rol o‘ynaydi. Ijodiy shaxs kognitiv qobiliyat, muammolarga sezgirlik, mustaqil fikr yuritish kabi xususiyatlar bilan ajralib turadi”[76]-deya ta’kidlagan.

S.A.Mednick “Kreativ shaxslar konvergent fikrlashdan foydalangan holda o‘tmishdagi voqealarni hisobga oladilar, ammo divergent fikrlash yordamida ular ilgari tanish bo‘lgan mavzu uchun yangi ilovalar topadilar va shu bilan eski yechimlardan qochishadi”. Olimning fikricha, Og‘zaki kreativlik og‘zaki shaklda, masalan, muammoli vaziyatlar sohasida o‘ziga xos g‘oyalarni taklif qilishda, uzoq og‘zaki birikmalarni topish qobiliyatida ifodalanadi, og‘zaki bo‘lmagan kreativlik esa badiiy tasvirlar, rasmlar ko‘rinishidagi ijodiy qobiliyatlarning namoyon bo‘lishidir”[77].

---

[72] Bono E. De. Серезное творческое мышление Мн.: 2005 416. с.
[73] Thurstone L.L. Factorial studies of intelligence. https://psycnet.apa.org/record/1941-03743-001.
[74] Rogers K.R. Творчество как усиление себя. http://lib.mgppu.ru/OpacUnicode/app/webroot/index.php?url=/notices/index/IdNotice:85228/Source:default.
[75] Drapeau P. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. pp 16.
[76] Maslow A. Новые рубежи человеческой природы. http://psyberia.ru/ book/maslow01.pdf.
[77] Mednick S.A. The associative basis of the creative process. https://doi.org/10.1037/h0048850.

Bizning fikrimizcha, ta’lim berish sharoitida kreativ shaxs bo‘lish uchun bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilari Davlat ta’lim standarti va chaqiriqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi malaka talablarida taqdim etilgan zarur va yetarli darajada bilim, ko‘nikma va malaka hamda qobiliyatga ega bo‘lishi, yuqori motivatsiyaga ega bo‘lishi, o‘rganish va ijodiy faoliyatga qiziqish ko‘rsatishi, o‘ziga xosligi va fikrlash ravonligini namoyon qilishi kerak.

Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirish quyidagilardan iborat: motivatsion kasbiy va pedagogik yo‘naltirilganlik, o‘z bilimlari, qobiliyatlari, ko‘nikmalarini egallash va subyektiv munosabat bildirish, kelajakdagi kasbiy faoliyatga qiziqish uyg‘otish; bo‘lajak o‘qituvchi kasbiy faoliyatining asosi bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, kreativlikni rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatadigan bilim faoliyatining ijodiy xususiyatlarini qamrab olish; prakseologik kasbiy muammolarni hal qilishga ijodiy yondashish qobiliyati bilan tavsif berish hamda shaxs tomonidan bo‘lajak mutaxassis sifatida o‘z-o‘zini anglashni nazarda tutadi.

Shu bilan birga, bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirishning asosiy tendensiyalari quyidagilar: ta’lim jarayonini axborotlashtirish, harbiy ta’lim tizimini insonparvarlashtirish va kreativ sifatlarni rivojlantirishdan iborat.

Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilari kreativ shaxs sifatida quyidagi talablarga amal qilishi lozim. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 9-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarining harbiy tayyorgarlik o‘quv bo‘linmalari to‘g‘risida”gi VM-809-son qarorida[78] rezervdagi va zahiradagi ofitserlarni tayyorlaydigan harbiy tayyorgarlik o‘quv bo‘linmalari o‘z maqomiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi oliy harbiy ta’lim muassasalariga tenglashtiriladi deb ta’kidlanganligi, bo‘lajak o‘qituvchilarning umumharbiy nizomlar asosida komandir va boshliqlar tomonidan berilgan buyruqlarni so‘zsiz bajarilishi kerakligi, buyruqlar bajarilmagan

[78] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 9-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarining harbiy tayyorgarlik o‘quv bo‘linmalari to‘g‘risida” gi 809-son qarori. T.; 2017 y. www.lex.uz. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.10.2017 y. 09/17/809/0076.

holatlarda esa ularga nisbatan intizomiy ta'zir choralari yoki jinoiy javobgarlikka tortish holatlari ham qo‘llanishi mumkin.

Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilariga kreativ sifatlar kelajakda pedagogik faoliyatini olib borganda tashkiliy jihatlarini va uslubiyotini takomilashtirishda, shuningdek, motoo‘qchi guruh komandiri sifatida jangovor vazifalarni bajarish vaqtida tezkor va to‘g‘ri nostandart qarorlar qabul qilishda divergent fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi 6.

Bugungi kunda yosh avlodning har tomonlama yuqori saviyada ongi, tafakkuri, fikrlash qobiliyati va ijodkorligini rivojlantirish uchun qator shrt-sharoitlar,imkoniyatlar yaratilmoqda.

1.2. Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirishga ta`sir qiluvchi omillar.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” nomli asarida “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”[79]. Shuni aytish joizki, mustaqil va mantiqiy fikrga ega ta’lim subyektlari o‘z davlatining rivojlanib, taraqqiy qilishiga hissa qo‘sha oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil 6-yanvardagi Oliy majlisga murojatnomasida “Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish,

[79] Erkin va farovon, demokratii O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutkq/SH.M. Mirziyoyev. - Toshkent: «O‘zbekistan» NMIU, 2016. - 56 6.

ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim”[80].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” nomli asarida “Eng katta boylik-bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros-bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik-bu bilimsizlikdir! Shu sababli hammamiz uchun ilg‘or bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak”[81]-degan fikrlari muhim ahamiyatga ega. Prezidentimiz tomonlaridan bildirilgan fikrlarida yoshlarning keng qamrovli mazmundor tafakkur sohiblari va intelektual salohiyatli shaxsga aylantirish asosiy maqsad qilib olingan.

Shuningdek, psixolog olim E.G‘oziyev “psixologik omillarni ilmiy psixologiyada katta hajmdagi materiallar, qonuniyatlar, xususiyatlar umumlashtiriladi, insonning ichki imkoniyati, iste’dodi, ishchanligi, qobiliyati yuzasidan umuminsoniy tavsifga ega bo‘lgan teran xulosalar chiqariladi. Buning natijasida odam psixikasini aniqlash, bashorat qilish, mavjud ruhiy nuqsonlardan holi bo‘lish, salbiy kechinmalarni oldini olish imkoniyati tug‘iladi, bu esa ijtimoiy, ijtimoiy psixologik bog‘lanishlar mohiyatini oqilona tavsiflash uchun xizmat qiladi”[82]-deya ta’kidlasa.

A.R.Aripdjanova “atrof-muhit omillari shaxsga, uning ijodiy va kreativ sifatlarini rivojlanishiga ta’sir qiladi, o‘z navbatida, ijod jarayoni muammoning ham, shaxsning ham o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Bu shaxs intilayotgan ushbu mahsulotning xususiyatlarini belgilaydi”[83]-degan fikrni bildiradi.

Jumladan, M.Usmonboyeva, A.Turayevlar “Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o‘zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur’ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatlari, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy jihatdan ro‘y bergan

[80] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil 6-yanvardagi Oliy majlisga murojatnomasi.
[81] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T.; 2021-yil. B. 24-bet.
[82] G‘oziyev E. Umumiy psixologiya. O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati. – T.; 2010-yil.
[83] Арипджанова А.Р. Развития креативного потенциала педагоговвысших образователных учреждений в условиях информатизатсии образования. дис. ... док фил (ПҳД) педаг наук. 2017-йил. 15 с.

hodisalarga bog‘liqligi zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi taqozo etadi”[84]-deb ta’rif berganlar.

A.M.Shafqorovning fikricha, “shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehnni o‘tkirligini belgilab beradi”[85].

Xususan, V.N.Drujinin[86], N.V.Xazratov, J.Guilford[87], E.P.Torrance[88], E.Bono[89] larning asarlarini tahlil qilish asosida “kreativ sifatlarni rivojlantirishning yigirma sakkizta shaxsiy omillari aniqlangan: ijodkorlikning shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir qiluvchi qobiliyatlar va shaxsiy xususiyatlar; fikrlashning divergensiyasi; fikrlashning o‘ziga xosligi; semantik moslashuvchanlik; muammoni aniqlash va yuzaga keltirish qobiliyati; ko‘plab g‘oyalarni yaratish qobiliyati; tahlil qilish qobiliyati; stereotiplarni yengish qobiliyati; ko‘plab uyushmalarni topish qobiliyati; qiziqish; mukammallikka intilish; tavakkal qilish qobiliyati; motivatsiya; xayoliy xotira; emotsionallik; xulq-atvorning spontanligi; maqsadga muvofiqligi; tashqi o‘tkir idrok etish qobiliyati; o‘ziga ishonch; individualizm; diqqat; tasavvur; sezgi; xayol surish qobiliyati; yangiliklarni ijobiy idrok etish va qo‘llashga munosabat; qarorlarning mustaqilligi; tushuncha; hodisalarni turli nuqtai nazardan ko‘rib chiqish qobiliyati”.

Jumladan, D.B.Bogoyavlenskiy “o‘zining ekspremintal ishlarida talabalarning kreativ sifatlarini rivojlantirishda intellektual faoliyatning uchta darajasini aniqlaydi: rag‘batlantiruvchi – samarali, evrestik va ijodiy tomonlarini tavsiflagan[90].

---

[84] Usmonboyeva M., To‘rayev A. “Kreativ pedagogika asoslari” Toshkent 2016-yil. 18-19 betlar.
[85] Shofqorov A.M. Oliy ta’lim talabalarining shaxsiy-kreativ kompetensiyasini rivojlantirish omillari. “Science and Education” Scientific Journal. 25.11.2022. https://openscience.uz/index.php/sciedu/issue/archive
[86] Дружинин В.Н., Хазратов Н.В. Экспериментальноэ исследование формирующего влияния среды на креативност. https://arxiv.gaugn.ru/s0205-95920000621-0-1-ru-1631/.
[87] Guilford J.P. Demos G.D. Torrance E.P. Factors That Aid and Hinder creativity. https://www.semanticscholar.org/paper/Factors-that-Aid-and-Hinder-Creativity-Guilford-Vaughan/3408f253fccb14525bb47935451b3dceecb40a61.
[88] Torrance E. P. Guiding Creative Talent. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, Inc. http://dx.doi.org/10.1037/13134-000.
[89] Bono E. De. Серезное творческое мышление Mn.: 2005 416. s.
[90] Богоявленская Д.Б. Интеллектуалная активност как проблема творчества. https://rusneb.ru/catalog/000199_000009_001181731/.

Rag‘batlantirish – samarali yoki passiv daraja. Ushbu intellektual faoliyat darajasining vakillari baquvvat va vijdonan ishlaydilar, ammo dastlab topilgan harakat usuli doirasida qoladilar. Ularning faoliyati tashabbussiz. U har safar tashqaridan rag‘batlantiriladi[91].

Evretistik daraja. Ushbu intellektual faoliyat darajasiga ega bo‘lgan bo‘lajak o‘qituvchilarning u yoki bu intellektual tashabbusning namoyon bo‘lishi bilan tavsiflanadi, bu tashqi omillar tomonidan rag‘batlantirilmaydi yoki faoliyat natijalarini qoniqarsiz deb subyektiv baholaydi. Bunday intellektual faoliyat rivojlanishining egasi o‘z faoliyatining tarkibi va tuzilishini tahlil qila oladi, vazifalarni taqqoslaydi va bu hal qilishning yangi o‘ziga xos usullarini kashf etishiga olib keladi. “Evrist” har bir yangi naqshni kashfiyot, ijodiy topilma sifatida baholaydi. Bu obyektni o‘rganish va undan yangi narsalarni olish imkonini beradigan mantiqiy tahlil mahsulidir”[92].

Demak, intellektual faoliyatning kreativ darajasi. Kreativ darajaga ega bo‘lgan bo‘lajak o‘qituvchi uchun emperik ravishda fikrlash jarayonining so‘nggi nuqtasi emas, balki keyingi tadqiqotlarning mustaqil maqsadiga aylanadi. Bu ijodkorlikning eng muhim omili sifatida tan olingan va ko‘plab sezgirlik testlarida aniqlanadi. Bunday bo‘lajak o‘qituvchi muammoning tubiga kirib borishga harakat qiladi, garchi uni xech kim buni qilishga majbur qilmasa ham. U bilim obyektini faktlarning mohiyatini tushuntiradigan va hodisalarning sabablarini, tushunishga harakat qiladigan nazariyani yaratishga olib keladi. Shunday qilib, bo‘lajak o‘qituvchilarning ma’lum bir vaziyatdan chiqib ketishiga to‘sqinlik qiladigan psixologik to‘siq yo‘q qilinadi. Bunday holda, bir qator vaziyatlarni taqqoslashning hojati yo‘q va siz o‘zingizni faqat bitta muammoni hal qilish bilan cheklashingiz mumkin, ammo buning uchun hodisaning dalillarini topish kerak[93].

---

[91] Богоявленская Д.Б. Интеллектуалная активност как проблема творчества. https://rusneb.ru/catalog/000199_000009_001181731/.

[92] Богоявленская Д.Б. Интеллектуалная активност как проблема творчества. https://rusneb.ru/catalog/000199_000009_001181731/.

[93] Богоявленская Д.Б. Интеллектуалная активност как проблема творчества. https://rusneb.ru/catalog/000199_000009_001181731/.

Shuningdek, “bo‘lajak o‘qituvchilarning intensiv aqliy faoliyati, intellektual faoliyatning evristik va rag‘batlantiruvchi ishlab chiqarish darajalari vakillari keng aqliy faoliyat bilan ajralib turadi. Har bir vakilning o‘ziga xos xususiyati uning vazifaga bo‘lgan yondashuvidir. Shunday qilib, rag‘batlantiruvchi – ishlab chiqarish darajasiga ega bo‘lgan kishi ma’lum bir doirada ish sur’atini oshiradi va o‘z faoliyatini kengaytirilgan miqyosda mexanik ravishda takrorlaydi, evristik muammoni hal qilishning tobora ko‘proq yangi usullarini qo‘llaydi va ijodiy odam hodisani nazariy tushuntirishlarini topib, mavzuni chuqurroq o‘rganadi”[94].

Xususan, psixolog olim E.P.Torrance “bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ sifatlarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan bir necha omillarni aniqlaydi. Bu ijodiy fikrlash qiymatini tan olish, bo‘lajak o‘qituvchilarning atrof-muhit stimullariga sezgirligini rivojlantirish, obyektlar va g‘oyalarni erkin manipulyatsiya qilish, ijodiy jarayon haqida konstruktiv ma’lumot berish, tanqidni emas, balki konstruktiv tanqidni rivojlantirish, o‘z qadr-qimmatini rag‘batlantirish, baholash qo‘rquvini yo‘q qilish”[95]-ekanligini ta’kidlagan.

Olim “muammolarga nisbatan sezgirlikni va ularni kreativlik omili sifatida anglashni ta’kidlaydi, shuningdek, ularning bilimi, yechim izlay olish qobiliyati, taxminlar, gipotezalarni shakllantirishdan norozilik, shuningdek, kreativlikni fikrlash nuqtai nazaridan tavsiflovchi” J.P.Guilford fikriga qo‘shiladi[96].

Ijodiy fikrlash – bu qiyinchilik, muammolarni, ma’lumotlardagi bo‘shliqlarni, yetishmayotgan elementlarni, biror narsada tarafkashlikni his qilish jarayoni, bu kamchiliklarni taxmin qilish va gipotezalarni shakllantirish, bu taxmin va farazlarni baholash va tekshirish, ularni qayta ko‘rib chiqish va tekshirish imkoniyati va nihoyat, umumlashtirish hamda natijalar[97].

A.Maslow “kreativ sifatlarning rivojlanishiga bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy xususiyatlari, shuningdek hissiy va motivatsion omillar ta’sir qiladi. Shu bilan birga, hozirgi vaqtda psixologiya va pedagogika fanida kreativlikning

[94] Богоявленская Д.Б. Психология творческих способностей. М.:, 2002. 320с.
[95] Torrance E. P. Teaching creative and gifted learners. https://studopedia.net/15_58541_Torrance-EP-Teaching-creative-and-gifted-learners--Handbook-of-research-on-teaching--Wittrock-MC-NY-.html.
[96] Torrance, E.P. The nature of creativity as manifest in the testing. https://psycnet.apa.org/record/1988-98009-002.
[97] Guilford J.P. Creativity. American Psychologist, 5, 444-454. http://dx.doi.org/10.1037/h0063487.


motivatsion xususiyatlari to‘g‘risida kelishuv mavjud emas. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, kreativ sifatlar shaxsni o‘zini eng yaxshi tarzda anglashga, imkon qadar o‘z imkoniyatlariga mos kelishga, yangi faoliyat turlarini o‘zlashtirishga harakat qiladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ sifatlarini rag‘batlantirish, ularning imkoniyatlari chegarasini sinab ko‘rishga asoslangan deb hisoblashadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsini rivojlantirishning umum ilmiy, psixologik-pedagogik asoslarini ijtimoiy his-tuyg‘ularga moslashtirish asosida ijtimoiy muammolarni bartaraf qilish, ta’lim jarayonini tavsiflovchi omil sifatida ijtimoiylashgan muhitning ustuvorligi, jamiyatga munosabat va jamiyat oldidagi burchini o‘tashda kasbiy faoliyat nuqtai nazaridan yondashish, shaxsning shakllanish asosi sifatida mayllarning rivojlanishiga oid nazariy yondashuvlar va ijtimoiy pedagogik g‘oyalarni tashkil etadi”[98]-degan purmano fikrlari ayni muddaodir.

Shuningdek, S.L.Rubinshteyn va A.N.Leontev “motivatsiyani insonning obyektiv ehtiyoji sifatida tushunadilar”. “Motivatsiya ehtiyoj va maqsaddan farq qiladi. Motivatsiya insonni ma’lum bir tarzda harakat qilishga majburlaydigan ichki va tashqi motivlar tizimidir. Bir qarashda, bu mavhum va uzoq narsadir, ammo bu holda na istaklar va ularni amalga oshirish quvonchi mumkin emas, shuning uchun u individualdir. Shuningdek, u shaxsning intilishlarini belgilaydi va shu bilan birga uning psixofiziologik xususiyatlari bilan shartlanadi”[99]-deya izoh bersa, Ye.A.Pavlov “o‘z-o‘zini tarbiyalashni pedagogik rag‘batlantirishni “talabalarning o‘z-o‘zini tarbiyalashga bo‘lgan munosabatini shakllantirish uchun shaxsning motivatsion va ehtiyoj sohasining turli tomonlariga qaratilgan professor-o‘qituvchining maqsadli ta’siri”[100]-deb ta’riflasa.

[98] Maslow A. Новые рубежи человеческой природы. http://psyberia.ru/ book/maslow01.pdf.
[99] https://studme.org/148403/psihologiya/deyatelnostnyy_podhod_rubinshteyna_leonteva.
[100] Павлов Е.А. Педагогические пути развития профессионалного творчества курсантов в ходе рационализаторской работы. Вестник университета (ГУУ). 2013. № 23. С. 279-282.

I.A.Alyoxin “rag‘batlantirish – bu shaxsga, jamoaga, odamlar guruhiga, shuningdek, shaxsiy tarkibga tashqi ta’sir ko‘rsatish, ularning motivatsion sohasini faollashtirish va shu orqali ma’lum bir faoliyatdir”[101]-degan so‘zlari o‘rinli.

Rag‘batlantirishga ta‘rifni davom ettirgan Ye.A.Pavlov “bu professor-o‘qituvchilarning talabalarning muayyan ro‘yobga chiqarish va keyinchalik ularni muayyan tarbiyaviy harakatlarni bajarish zarurati bilan qondirishni chiniqtirish uchun maqsadli harakatidir”[102]-deya ta`riflaydi.



1.2-rasm. Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirishga ta’sir etuvshi omillari

Bizning fikrimizcha, bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ faoliyatini rag‘batlantirish – bu talabaning shaxsiga tashqi ta’sir qilish, uning motivatsion sohasini, kognitiv ehtiyojlarini faollashtirish va ular orqali ijodiy faoliyatni rivojlantirish hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan kognitiv bilimlarni egallash va kreativ fikrlash jarayonida bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirishga ta`sir qiluvchi quyidagi omillar o ‘z ijobiy ta’siri bilan ajralib turadi.

[101] Алёхин И.А. Опережающий характер развития образования - это прогрессивно. Мир образования - образование в мире. 2014. № 1. С. 4-17.
[102] Павлов Е.А. Педагогические пути развития профессионалного творчества курсантов в ходе рационализаторской работы. Вестник университета (ГУУ). 2013. № 23. С. 279-282.

Har qanday insonning shaxsi, jamiyat, oila ta’siri ostida shakllanadi. Aynan jamiyat, uning mavjud ta’lim tizimi, urf-odat va an’analari insonda eng muhim shaxs fazilatlarini shakllantiradi. Ushbu fazilatlar ko‘pchilik odamlar uchun xosdir, ammo ular o‘ziga xos sharoit, muhit, tarbiyaga qarab individual ravishda namoyon bo‘ladi. Turli xil odamlarning ma’lum shaxsiy xususiyatlarini shakllantirishga genetik moyilligi mavjudligini inkor etish mumkin emas.

Shunday qilib, bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ sifatlarini rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillar ikki xil: vaziyatli va shaxsiy unsur sanaladi.

Insonning kreativ sifatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan vaziyat omillariga quyidagilar kiradi: vaqt chegarasi; stress holati; tashvishi kuchaygan holati; tezda yechim topish istagini yuqoriligi; juda kuchli yoki juda zaif motivatsiya; ma’lum bir yechim uchun qat’iy fikrga ega bo‘lish; avvalgi muvaffaqiyatsizliklar tufayli o‘ziga bo‘lgan shubha; qo‘rquv; qat’iyatni mustahkam emasligi; shart-sharoitni taqdim etish usuli hal etishning noto‘g‘ri usulini qo‘zg‘atuvchi vazifalar.


Shaxsiy omillar – bu ma’lum bir vaziyat tufayli yuzaga keladigan sharoitlarga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan barqaror xususiyatlar, shaxsiyat xususiyatlari yoki shaxsning xarakter xususiyatlari.

Shunday qilib, shaxsiy va vaziyat omillari ta’siri ostida tashqi ta’sir obyekti bo‘lib, o‘qituvchi bilan o‘quv faoliyatida o‘zaro aloqada bo‘lishi, talabalar ijodiy jarayonining bir qismiga aylanadi. Har qanday kishining shaxsi jamiyat, jamoa, oila ta’siri ostida shakllanadi. Aynan jamiyat, uning mavjud ta’lim tizimi, urf-odat va an’analari insonda eng muhim shaxs fazilatlarini shakllantiradi. Kreativlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadigan shaxsiy omillarda yoritilgan.

Ushbu fazilatlar ko‘pchilik odamlar uchun xos bo‘lib, ammo ular o‘ziga xos sharoit, muhit, tarbiyaga qarab individual ravishda namoyon bo‘ladi. Turli xil odamlarning ma’lum shaxsiy xususiyatlarini shakllantirishga genetik moyilligi mavjudligini inkor etish mumkin emas. Tanlangan omillarga tashqi ta’sir bilan kreativlikning namoyon bo‘lishini rag‘batlantirish mumkin, bunday ta’sir ijodiy salohiyatning to‘liq ochilishini kafolatlamaydi.

Kreativlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadigan shaxsiy omillar (1.3-rasm) da yoritilgan.

Kreativlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadigan shaxsiy omillar



1.3-rasm. Kreativlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadigan shaxsiy omillar

Kreativ fikrlashni ma’qullaydigan shaxslar xususiyatlari orasida quyidagilar ajralib turadi: o‘ziga ishonch; quvonch hissiyotlarining ustunligi va hatto ma’lum miqdordagi tajovuzkorlik; xavfga moyillik; g‘alati va g‘ayrioddiy ko‘rinishdan qo‘rqmaslik; muvofiqlikning yetishmasligi; yaxshi rivojlangan hazil tuyg‘usi mavjudligi; tarkibga boy bo‘lgan ong osti ongi; kelajak uchun xayol qilish va rejalar tuzishga bo‘lgan ishtiyoq.

T.P.Kandaurovaning ilmiy tadqiqotlariga ko‘ra, “quyidagi rag‘batlantiruvchi omillar bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ sifatlarini rivojlantirishga yordam beradi: bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘zi bo‘lish istagini har qanday rag‘batlantirish, uning “o‘zini” tinglash va uning “maslahatiga” muvofiq harakat qilish qobiliyati; bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsini hurmat qilish, uning o‘ziga xosligi, individualligi; ijodiy faoliyat uchun motivlardan foydalanish, bo‘lajak o‘qituvchilarning tomonidan uning ahamiyatini anglash; ijodkorlikning qiymati; muvaffaqiyatga intilish motivini qo‘llab-quvvatlash va muvaffaqiyatsizliklardan qochish motivini zararsizlantirish; ijod muhitini yaratish; munozaralarni to‘g‘ri o‘tkazish; tanqidni ta’qiqlash; ijod muhitini yaratish; ijobiy his-tuyg‘ularga ishonish (ajablanib, quvonch, xush yoqish, muvaffaqiyat tajribasi) bo‘lajak o‘qituvchilarning asosli xavfga moyilligini

rag‘batlantirish, g‘ayrioddiy, o‘ziga xos harakatlar va qidiruv yo‘nalishlari; mantiq bilan tekshirilgan intuitiv harakatlarni boshlash; bo‘lajak o‘qituvchilarga ta’limning mazmuni, maqsadlari, shakllari va usullarini tanlash huquqini berish; tashabbuskorlik, mustaqillikka ishonish, bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘zini o‘zi takomillashtirish, o‘zini-o‘zi qadrlash, o‘zini anglash, ongli ravishda o‘zini o‘zi faol yaratish istagini rahbatlantirish; tanqidiy fikrlashni rivojlantirish; o‘xshashlikka salbiy munosabat, murosa qilmaslik, ko‘pchilik fikriga yo‘naltirish (ko‘pchilik har doim ham to‘g‘ri kelavermaydi); chegaraviy tushuncha va formulalarni taqqoslash; o‘quv materialida inversiya, ziddiyatlardan foydalanish, o‘quvchilarni izlanish faoliyatiga undash; bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘zini-o‘zi belgilash, o‘zini-o‘zi tashkil etish, maqsadni aniqlash, me’yorni belgilash, maqsadga muvofiqlik aks ettirish kabi tashkiliy va faoliyat qobiliyatlarini rivojlantirish; tasavvurni rivojlantirish; xayol surish tendensiyasini rag‘batlantirish, fikrning yuqori parvozi; o‘z nuqtayi nazarini isbotlash uchun aniq muammolar va dalillarni hal qilishning nostandart usullarini izlash; ichki mojarolarni o‘z ichiga olgan va bo‘lajak o‘qituvchidan mustaqil ijodiy qarorlar qabul qilishni talab qiladigan vaziyatlarni yaratish, o‘z-o‘zidan transsedensiya (haddan ziyod chiqib ketish); faoliyatning ekstremal sharoitlarini modellashtirish vaqt tanqisligi sharoitida yangi, ahamiyatsiz bo‘lmagan yechimlarni qidirishni talab qilish va cheklangan vositalar to‘plamini talab qilish; yagona to‘g‘ri yechim bo‘lmaganida ochiq turdagi muammolardan foydalanish (bu faqat topilishi yoki taxmin qilinishi kerak); xayoliy bo‘lsa ham, haqiqatdan uzoqroq bo‘lsa ham, iloji boricha ko‘proq yechimlarni (gipotezalarni) topishga o‘rgatish; bo‘lajak o‘qituvchilarning doimiy faollikka chorlaydigan usullardan unumli foydalanish, mustaqil kashfiyot fikrini rag‘batlantiradigan muammoli ta’lim usulidan foydalanish; ma’lum masalalar yuzasidan ilmiy bilimlar evolyutsiyasini yoritish; o‘zlashtirilgan fikrlash usullarini o‘xshash vazifalar va vaziyatlarga ekstrapolyatsiya (obyektlar yoki hodisalarning ma’lum bir qismi to‘g‘risidagi xulosalar berish) qilish qobiliyatini rivojlantirish”[103].

[103] Кандаурова Т.П. Развитие познавателной деятелности курсантов военного вуза при изучении естественнонаучных диссиплин: дис. ... канд. пед. наук. Челябинск. 2010. 166 с.

Xususan, kreativ sifatlarni rivojlantirish muammosi bo‘yicha ilmiy ish olib borgan taniqli tadqiqotchi A.N.Luk yetuk “olimlar, ixtirochilar, rassomlar va musiqachilarning tarjimayi holiga tayanib, quyidagi ijodiy qobiliyatlarni ta’kidlaydi: muammoni boshqalar ko‘rmaydigan joyda ko‘rish qobiliyati; aqliy operatsiyalarni qisqartirish, bir nechta tushunchalarni bitta bilan almashtirish va tobora ko‘proq ma’lumot talab qiladigan belgilarni ishlatish qobiliyati; bir muammoni hal qilishda olingan ko‘nikmalarni boshqasini hal qilishda qo‘llash qobiliyati; voqelikni qismlarga ajratmasdan, bir butun sifatida qabul qilish qobiliyati; uzoq tushunchalarni osongina bog‘lash qobiliyati; xotiraning kerakli vaqtda kerakli ma’lumotni berish qobiliyati; fikrlashning moslashuvchanligi; muammoni tekshirishdan oldin uni hal qilish uchun muqobillardan birini tanlash qobiliyati; mavjud bilim tizimiga yangi qabul qilingan ma’lumotlarni kiritish qobiliyati; narsalar qanday bo‘lsa ularni shundoqligicha ko‘rish, kuzatilganlarni talqin etish bilan olingan boshqa narsalardan ajratib ko‘ra olish qobiliyati; g‘oyalarni yaratish qulayligi; ijodiy tasavvur; dastlabki rejani takomillashtirish uchun qismlarni qayta ishlab qobiliyati”[104].

Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirish, bo‘lajak o‘qituvchilarning yangi kreativ ko‘nikmalarni hosil qilish xususiyatlarini ishlab chiqishga qaratilgan ko‘p bosqichli psixologik va pedagogik jarayon hisoblanib, atrof-muhit haqidagi ma’lumotlarni o‘rganish, assimilyatsiya qilish, harbiy xizmat vazifalarini bajarishga sifatli tayyorgarlik ko‘rish uchun atrof-muhit to‘g‘risidagi ma’lumotlarni qayta ishlashlari kerak bo‘ladi.

Yondashuvlarning asl mazmun-mohiyatga nisbatan o‘z pozitsiyamizni ishlab chiqishga imkon berdi, bu bir necha asosiy yo‘nalishni o‘z ichiga oladi: chaqiriqqacha harbiy ta’lim muassasalari pedagogik muhiti uchun sharoit yaratish, bo‘lajak o‘qituvchilarning barcha o‘quv va xizmat faoliyatida ijodiy faollikka ko‘maklashish;muammoli va evristik usullarga o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish

[104] Лук А.Н. Психология творчества. https://search.rsl.ru/ru/record/ 01007801167.

usullarini ishlab chiqarish va o‘quv jarayoniga joriy etish; bo‘lajak o‘qituvchilarda ong va mustaqillikni tarbiyalash.

Demak, harbiy ta’limning asosiy masalalaridan biri bunday mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘lib, u har bir bo‘lajak o‘qituvchi individual imkoniyatlari, qobiliyatlarini to‘la rivojlanishi va uning kelajakda har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydi. Muammoning ushbu jihatiga bir nechta yondashuvlar mavjud. Birinchi yondashuvga ko‘ra, o‘quv dasturlarida aks ettirilgan ta’lim mazmuni ta’limni rivojlantirishning hal qiluvchi omili hisoblanadi, shuning uchun rivojlanish muammosini hal qiladigan bunday ta’lim mazmunini tanlash kerak.

Jumladan, L.A.Zatsepilovaning “rivojlanish konsepsiyasida ba’zi mualliflar o‘z-o‘zini harakatga keltiradilar, shaxsning individualligini o‘zgartiradilar, uning psixikasini shakllantirish jarayonida umumlashtirilgan tajribaga ega bo‘ladilar: shaxsni shakllantirish jarayoni, uning harbiylashuvi va tarbiyasi natijasida shaxsning harbiy sifatlarining rivojlanishi deb hisoblashadi; shaxsning shaxsiy yo‘li davomida mavjud bo‘lishining asosiy usuli sifatida. Boshqa bir yondashuv o‘qitish usullarini takomillashtirishni, avvalombor, bo‘lajak o‘qituvchilarning tafakkurini rivojlantirishning asosiy usuli aqliy faoliyat metodlarini o‘rgatish hisoblanadi”[105].

V.V.Davidov “rivojlanishni o‘rganishga yondashish va tashkil etishda eng muhim narsa tinglovchilar faoliyatining tabiati ekanligini bayon qiladi”[106].

Bo‘lajak o‘qituvchilarning haqiqiy rivojlanishi uchun o‘qitish mazmuni nafaqat an’anaviy ta’lim tizimida odatdagidek bilim va ko‘nikmalar, balki ijodiy faoliyat tajribasi, dunyoga hissiy va qadriyat munosabati tajribasi ham bo‘lishi kerak. Bundan tashqari, ushbu tarkibni bo‘lajak o‘qituvchilar tomonidan o‘zlashtirilishini ta’minlash yo‘llari muammosini aniqlash va ilmiy asoslash kerak.

Zamonaviy o‘qitish tizimi bilim olishda faol mavqega ega bo‘lgan va dars jarayonida ishtirok etadigan o‘qitish usullaridan foydalanishni hamda uni amalda qo‘llay olishni o‘z ichiga oladi, shu bilan o‘quv tizimini ijodiy fikrlashni va mustaqil ravishda qaror qabul qilish kreativ sifatlarni rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Ta’lim

[105] Затсепилова Л.А. “Развитие креативности курсантов при изучении гуманитарных дисциплин в высшем военно-учебном заведении”. Дис. Кан пед наук. Улянск. 2011. 27. с.
[106] Давидов В. В. Проблемы развивающего обучения. М.: 2004. 282.с.

berishda kreativ shaxsni shakllantirishga intilib, bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ fikrlash uslubining barqaror tarkibiy qismlarini tashkil etuvchi intellektual va psixologik rivojlanish tizimi bo‘lgan kreativ pedagogika darajasiga erishdilar.

Shuningdek, M.M.Zinovkinaning fikriga ko‘ra “birinchi variantga asosan tushuntirish va tasviriy o‘qitish usullari, namunaviy mashqlar, dasturga asoslangan mashg‘ulotlar, aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich rivojlantirish qo‘llanilsa, ikkinchi variantda muammoli o‘rganish, kasbiy vaziyatlarni hal qilish, tinglovchilarning mustaqil qidiruv faoliyati qo‘llaniladi. Ikkala variant ham ta’lim jarayonida bir xil qo‘llanilishiga qaramay, tadqiqotimiz maqsadiga muvofiq, o‘zaro aloqaning ikkinchi variantining usullaridan foydalanishga intildik. Kreativ pedagogika vakillarining qarashlarida ijodning reproduktiv bilim bilan aloqasi noaniq deb e’tirof etiladi. Ko‘pgina o‘qituvchilar ijodiy yoki evristik faoliyatni har doim reproduktiv faoliyatning eng past darajasidan oldingi guruhlardan biri sifatida talqin qilishadi. O‘quv jarayonini tashkil etishda bo‘lajak o‘qituvchilarning bilimlari qidiruv faoliyati sxemasida dominant deb tan olingan”[107].

Shunday qilib, ko‘plab manbalarda kreativ pedagogika turli pozitsiyalardan tadqiq e’tiladi: o‘quv ma’lumotlari bilan ishlashning eng samarali usullarini takomillashtirish; muammolarni hal qilishda intellektual vaziyatlarni algoritmlashtirish orqali yangi tizimga aylanish uchun turli yechimlarni izlash samaradorligini oshirishga imkoniyat yaratiladi, samarasiz izlanishlar va xatolarga vaqt sarflashni deyarli butunlay yo‘q qiladi; o‘rganish motivatsiyasini oshirish; o‘rganish sizga yangi tizimga o‘tish imkonini beradi oliy ta’limning motivatsiyasini sezilarli darajada o‘zgartirish, o‘tilayotgan o‘quv fanlarning dastlabki bosqichlarida harbiy fanlarning o‘ziga xos texnik tizimlarini loyihalash bilan bog‘liqligini aniqlash; kasbiy ishda kreativ sifatlardan foydalanish orqali tashkiliy va boshqaruv muammolarga yechim topishga imkon beradi.

[107] Зиновкина М. М. Креативная технология образования. https://opac.mpei.ru/OpacUnicode/app/webroot/index.php?url=/notices/index/IdNotice:35021/Source:default.

Shu bilan birga, “professor-o‘qituvchilarning kreativ salohiyati professional muammolarni nostandart tarzda idrok etish va hal qilish, eng maqbul vositalardan foydalangan holda, atrof-muhit bilan muvaffaqiyatli aloqada bo‘lish, ayniqsa, nostandart vaziyatlarda, ijtimoiy ahamiyat, yangilik yaratish qobiliyatida, ta’limni tashkil etishga noa’nanaviy yondashishda har qanday kasbiy muammolarni ijodiy hal qilish, tinglovchilar, hamkasblar, tinglovchilarning ota-onalari bilan o‘zaro aloqada bo‘lish qobiliyati, tarbiyalanuvchilarning ijodkorligini rivojlantirish qobiliyatida ular uchun hayot normasiga aylanadigan hatti-harakatlarda aks etadi”[108].

Mashg‘ulot rahbarining kreativlikka asoslangan faoliyati ta’lim jarayonini o‘zgartiruvchi omili sifatida namoyon bo‘ladi, ta’lim mazmunini insonparvarlashtirish imkoniyatlarining kengayishi, o‘quv materiallari mazmunining uzluksiz tarzda o‘zgarishi, o‘quv predmetlari tarkibining yangilanishi, mashg‘ulot rahbaridan o‘quv jarayoniga ijodiy yondashgan holda o‘qitishning yangi metodlari va texnologiyalarini izlab topish va ijodiy yondashgan holda qo‘llashni talab qiladi. Bunday vaziyatda mashg‘ulot o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish muhitida pedagogik bilimlar va ijodkorlik ko‘nikmalarining ahamiyati ortib boradi, ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajalariga nisbatan mashg‘ulot rahbarining munosabati o‘zgarmokda. Bu sohada ham harbiy pedagogik yangiliklarni qo‘llash jadallashmoqda. Bunday sharoitla mashg‘ulot rahbari harbiy pedagogik faoliyatning yangi usullari va yo‘llarini ijodiy tarzda qo‘llashga kirishmoqda.

Mazkur jarayonda mashg‘ulot rahbarining innovatsion faoliyat tajribasi erkin tanlov va tadqiqotchilik xarakterga ega bo‘lmoqda, bozor iqtisodiyoti talablari ortib borayotgan hozirgi sharoitda ta’lim jarayonida raqobatbardosh kadrlarni yetishtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirish ularning raqobatbardoshligini ta’minlashning muhim shartlaridan biridir. Chunki kreativ sifatlarga ega bo‘lgan mashg‘ulot rahbarigina fanning eng so‘nggi yutuqlari va ilg‘or pedagogik tajribalarini ta’lim jarayonida qo‘llash mahoratini o‘zlashtiradi.

[108] Арипджанова А.Р. Развития креативного потенциала педагоговвысших образовательных учреждений в условиях информатизатсии образования. дис. ... док фил (ПҳД) педаг наук. 2017-йил. 15 с.

Demak, M.X.Mansurova “kreativ sifatlarning mohiyatida barcha mutaxassislarning individual qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy holatlar yaxlit holda namoyon bo‘ladi. Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarga ega bo‘lishi uchun kasbiy faoliyatida quyidagilarga e’tiborni qaratishi zarur: kasbiy faoliyatga ijodiy yondashish; yangi-yangi g‘oyalarni yaratishda faollik ko‘rsatish; ilg‘or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o‘rganish; kompetensiyalarga mos ravishda darslarni tashkil etish; o‘zidan kasbiy tajribasi yuqori bo‘lgan hamkasblari bilan hamkorlikda faoliyat yuritish; fan, ilmiy-ijodiy to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilar bilan ishlash; dars jarayonida yangi zamonaviy metodlardan, innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish”[109]-diya ta‘riflaydi.

Tadqiqot ta’lim metodlarining ijobiy yoki salbiy natija berishi bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy tayyorligiga bog‘liq bo‘lishi hamda mashg‘ulot rahbarining kasbiy mahorat bilan birga: soha va fanni juda mukammal egallaganligi; o‘z bilimlarini tengdoshlariga o‘qtira olishi; o‘quv faoliyati jarayonini samarali tashkil eta olishi; bo‘lajak o‘qituvchilarni boholash mezonlari orqali odilona baholay olishi; bo‘lajak o‘qituvchilar imkoniyatlarini anglagan holda uni to‘g‘ri yo‘naltira olishi.

Tanlangan har qanday pedagogik metodlar ta’lim maqsadlariga mutanosib bo‘lishi kerak. Har qanday ta’limning maqsadi bilim va malakalarni shakllantirib shunga mos shaxsning sifat va xislatlarini ishlab chiqish bilan belgilanadi. Ta’lim-tarbiya jarayonining har bir bosqichi uchun belgilangan maqsadlar turli usullar majmuida amalga oshiriladi. Shuning uchun ham pedagogikada metod eng muhim omil bo‘lib, aniq o‘quv mashg‘ulotining didaktik vazifasiga xizmat qiladi. Pedagog o‘zining mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni ko‘proq faoliyat ko‘rsatishga olib keladigan loyihalash usuli, ishbilarmonlik o‘yinlari kabi o‘quv-amaliy mashg‘ulotlarini

[109] Mansurova M.X. “Ta’lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologilar va o‘qituvchi kreativligining ahamiyati” “Science and education" scientific journal”. https://www.iiste.org/.

o‘quvchining o‘zi tomonidan olib borilishini ta’minlash yanada yaxshi samara beradi[110].

Harbiy mashg‘ulotlarni olib borishdagi ta’lim berish ham xuddi boshqa soha fanlaridagi kabi ta’lim jarayoni (mashg‘ulot rahbarining faoliyati) va o‘zlashtirish jarayoni (talaba) faoliyati)dan iborat bo‘ladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘zlashtirish jarayonidagi faoliyatlari bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallashdan iborat bo‘lib, ta’lim jarayoni esa tarbiya jarayoni bilan chambarchas bog‘langan holda amalga oshiriladi. Harbiy mashg‘ulotlar nazariy, amaliy, ko‘rgazmali, taktik, taktik saf, nazorat shakllarida o‘qitilishi va ularning aksariyat qismi amaliy bo‘lib O‘zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari nizomlarining talablari asosida olib borilishi, otish tayyorgarliklari bo‘yicha mashg‘ulotlari o‘quv va jangovar qurollar bilan ishlash bo‘yicha ko‘rsatma va yo‘riqnomalarga amal qilinishi, mashg‘ulotlarning aksariyat qismi, o‘quv-moddiy baza bilan chambarchas bog‘liqligi, harbiy ta’lim mashg‘ulotlarining o‘ziga xos tomonlari bo‘lib hisoblanadi[111].

Bundan keyin bu boradagi ishlarni rivojlantirish va mavjud ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, harbiy kadrlar tayyorlash bo‘yicha o‘quv dasturlarni takomillashtirish nuqtayi nazaridan soha mutaxassislarining kreativ yondashuvlarini shakllantirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolishi tabiiydir. Ta’kidlash joizki, har bir mashg‘ulot rahbari interfaol uslublarni samara beradiganini saralay olishi, uni o‘rganuvchilarning faolligini oshirishda ta’lim shakllarining samarali va tejamli ekanligi anglay olishi hamda mashg‘ulot rahbarining pedagogik mahorati va mashg‘ulotga tayyorgarlik jarayoniga kreativ yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada mashg‘ulot rahbarining harbiy mashg‘ulotlarning o‘ziga xos prinsiplaridan og‘ishmagan holda o‘z faoliyatiga tanqidiy qarashi, ta’lim berishning ilg‘or yangi uslublarini qo‘llashda orttirilgan tajribalarga tayanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

[110] Mansurova M.X. “Ta’lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologilar va o‘qituvchi kreativligining ahamiyati” “Science and education" scientific journal”. https://www.iiste.org/.
[111] Sotvoldiyev A.Y. Chaqiruvga qadar harbiy ta’limni tashkil etish va uning metodikasi. T.: Aloqachi. 2010-yil. B. 68-69.

1.3. Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirishning ijtimoiy ahamiyati.

Mamlakatimiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi O‘zbekiston Respublikasida “2030-yilgacha Oliy ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi” universal bilimlar, ko‘nikmalar, malakalarning yangi tizimi, shuningdek, ta’lim oluvchilarning mustaqil faoliyat va shaxsiy ma’suliyat tajribasi, ya’ni zamonaviy asosiy kompetensiyalar sifatida xizmat qiladi[112]-deb ta’kidlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” nomli asarida “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz shart va zarur. Bu bizga rivojlanishning eng qisqa yo‘lidan borish imkonini beradi. Chunki intelektual va madaniy salohiyatning qanday noyob boylik, nodir iste’dod egalarini tarbiyalab kamolga yetkazishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini unutishga haqqimiz yo‘q”[113] -deb e’tirof etilishi salmoqli xususiyatga ega.

Pedagogika va psixologiyaga oid tadqiqotlarda pedagogik kreativlikni turli yo‘nalishlarda turlicha tadqiq qilingan. J.G‘.Yo‘ldoshev[114], N.N.Azizxodjayeva[115], O‘.Q,Tolipov[116], U.N.Nishonaliyev[117], V.A.Slastenin[118], V.A.Kan-Kalik[119] larning ishlarida pedagogik kreativlikni ta’limdagi innovatsion jarayonining jadallashishi, yangiliklarni tizimli tarzda qabul qilishga psixologik tayyorgarligi bilan bog‘liq holda yoritilsa, A.V.Petrovskiy[120], A.Maslow[121] larning izlanishlarida pedagogik

---

[112] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son farmoni. T.; 2019-yil. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019-yil. 06/19/5847/3887.

[113] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T.; 2021-yil. B. 24-bet.

[114] Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: RTM, 2004-yil. B. 104.

[115] Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T.; Moliya, 2003-yil. B. 192.

[116] Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. T.: Fan, 2006-yil. B. 247.

[117] Нишоналиев У. Инновационные педагогические технологии обучения и развития. В сб. материалов научно-практической конференции “Актуалные вопросы профессионалного воспитания молодежи”. Алма-Ата: Респ. издат. каб. казахск. акад. образования им. И.Алтынсарина, 2000. С 235-240.

[118] Сластенин В.А., Подымова Л.С. Педагогика: Инновационная деятелност. http://www.prometeus.nsc.ru/contents/books/slasten.ssi.

[119] Кан-Калик В.А. Учителю о педагогическом общении. https://www.booksite.ru/fulltext/kankal/text.pdf.

[120] Петровский А.В. Личност в психологии. https://pidru4niki.com/17530607/psihologiya/petrovskiy_lichnost_psihologii_paradigma_subektivnosti.

[121] Maslow A. Самоактуализация Психология личности. https://www.worldcat.org/title/toward-a-psychology-of-being/oclc/223343.

kreativlik shaxsning muloqotga kirishuvchanlik qobiliyati, muloqot madaniyatining namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq tarzda o‘rganiladi.

G.T.Boymurodova[122], B.B.Ma’murov[123], A.T.Asmalov[124], Ye.V.Bondarevskaya[125], A.I.Leontev[126], K.R.Rojers[127], G.T.Boymurodova[128], B.B. Ma’murov[129] lar ta’lim va o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni pedagogik kreativlikning asosiy xususiyati sifatida talqin qiladilar.

Xususan, G.N.Ibragimovaning fikricha, “shaxs ijodiy faoliyatining asosini kreativlik tashkil etadi. Shuningdek, kreativlik insonning borliqni bilish va o‘zgartirishga yo‘naltirilgan ongli, maqsadli faoliyati bo‘lib, uning natijasida yangi, betakror, ilgari mavjud bo‘lmagan jamiyatning moddiy va ma’naviy hayotini yaxshilashga qaratilgan buyumlar va boshqalar yaratiladi. Shu nuqtai-nazardan, kreativlik inson aql zakovatini barcha ijobiy sifatlarini o‘zida mujassamlashtirgan, yangilik yaratish bilan bog‘liq alohida faollik kasb etgan mustaqil faoliyat turi hisoblanadi. Yuqorida ta’kidlanganidek, shaxsning kreativligi nafaqat fan-texnika, madaniyat, san’at va ishlab chiqarish sohalarida balki, ta’lim-tarbiya jarayonida ham yaqqol namoyon bo‘ladi”[130]-deb ta’kidlaydi.

Jumladan, D.Sh.Djo‘rayeva “psixologlar tomonidan umumiy va maxsus ijodiy qobiliyatlar borligi to‘g‘risidagi tushuncha qabul qilinganligini ham eslatib o‘tish joiz. Shu ma’noda olib qaraganda, umumiy qobiliyatlar inson har xil faoliyat turini olib borishda foydalanadigan bilim va malakadan iborat bo‘ladi. Chunki u intellekt, o‘rganishga moyillik umumiy aqliy qobiliyat hamda intellektual

[122] Boymurodova G.T. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kasbiy-shaxsiy tayyorgarligining texnologik tizimi. Ped. fanl. nomz.dis. Avtoref.– T:.2009-yil. – B. 24.
[123] Ma’murov B.B. O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari. Ped. fanl. nomz.dis. Avtoref.– T.; 2009-yil. B. 26.
[124] Асмалов А. Экология, психология и историко-эволюсионный подход к развитию человека. http://www.irbis.gnpbu.ru/Aref_1996/F0002326.pdf.
[125] Бондаревская Е.В. Гуманистическая парадигма личностно ориентированного образования. https://elibrary.ru/item.asp?id=21850730.
[126] Леонтев А.А. Психология общения. http://www.law.vsu.ru/structure/criminalistics/books/leontyev_psy.pdf.
[127] Rogers C. R. Искусство консультирования и терапии. https://search.rsl.ru/ru/record/01000984755.
[128] Boymurodova G.T. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kasbiy-shaxsiy tayyorgarligining texnologik tizimi. Ped. fanl. nomz.dis. Avtoref.– T:.2009-yil. – B. 24.
[129] Ma’murov B.B. O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari. Ped. fanl. nomz.dis. Avtoref.– T.; 2009. B. 26.
[130] Ibragimova G.N. Interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. Des. fal dok (PhD).T:. 2017. B. 33-34.

qobiliyatlarga asoslangan bo‘ladi. Umumiy qobiliyatlardan aniq faoliyatni o‘zida aks ettiradigan maxsus qobiliyatlar ajralib turadi”[131]-degan fikrni yoritib beradi.

N.G‘.Aloutdinova “ijodiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish maqsadida o‘qituvchi har bir darsda – u xoh an’anaviy, xoh noan’anaviy bo‘lishidan qat’iy nazar, og‘zaki va yozma nutqni hosil qilish, o‘stirish, takomillashtirishga xizmat qiladigan topshiriqlardan o‘rinli foydalana bilishi zarur”[132] ligini ta’kidlaydi.

Ma’lumki, inson uchun zarur bo‘lgan barcha tasavvurlarning dastlabki elementlari oila muhitida shakllanadi. Harbiy tasavvurlarning shakllanishida oilaning ijtimoiy holati, ya’ni oiladagi bolalar soni va bolalarning nechanchi farzand ekanligining ham o‘ziga xos ahamiyati mavjud” ekanligini aytib o‘tgan.

D.Ch.Umarova “o‘spirin yoshlarda harbiy tasavvurlar shakllanishida oila, ta’lim va ijtimoiy tashkilotlarning o‘ziga xos o‘rniga to‘xtalgan[133].

Pedagogik-psixologik manbalarda, bo‘lajak o‘qituvchilar muhitini kuchli ijtimoiylashtiruvchi ta’lim ta’siriga ega ekanligi. Umuman olganda, ta’limning vazifasi ta’lim oluvchilarning kreativ sifatlarini rivojlantirish bo‘lishi kerak, bu esa talaba shaxsini pedagogik faoliyatlarida ijodiy qobiliyatlarini yanada ochib berishga yordam beradi.

Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantiruvchi faoliyat turlari kreativ sifatlarni rivojlantirish jarayonida mustaqil faoliyatni rag‘batlantirishga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatadigan ijobiy muhitni yaratish, xususan, bo‘lajak o‘qituvchilar jamoasini hamfikrlar doirasi sifatida shakllantirishning o‘rni katta.

Mamlakatimiz olimlaridan N.A.Muslimov kasbiy kompetentlik sifatlaridan birini “kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy

[131] Djurayeva D.Sh. “Muammoli yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish” Des. fal dok (PhD). 2022-yil. B. 16.
[132] Aloutdinova N.G‘. Ona tili darslarida ijodiy fikrlash ko‘nikmasini shakillantirish metodikasi. Dess....Ped. fan. nom. T.: 2008-yil. B. 26.
[133] Umarova D.CH. O‘spirinlarda harbiy tasavvurlar shakillanishinig ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Des... Ped fan nomz. T.: 2011-yil. B. 39.

yondashish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish”[134]-deb tasniflagan.

Demak, O.N.Ovsyannikova “talabalarning kreativ sifatlarini rivojlantiruvchi faoliyat turlari kreativ sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan o‘qitish texnologiyasini ishlab chiqishda aytilganlarni hisobga olish kerak. Bular turli xil insoniy fazilatlar: “shaxs”, “shaxsiy”, “subyekt”, “individuallik” va ularning rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lib, ularni o‘zaro bog‘liq o‘zaro ko‘payuvchi sifatida ochib beradi. Bu hayot yo‘liga kiritilgan insonning kasbiy hayoti va faoliyati, uning jamiyat manfati uchun ishlashi, turli xil faoliyat turlarida professional sifatida rivojlanishini nazarda tutadi”[135].

Shuningdek, psixolog olimlar “kreativlikning mohiyati haqida quyidagicha xulasa bildirishadi: kreativlik – bu yangi yondashuvlar va yangi mahsulotlarga bo‘lgan ehtiyojga moslashuvchan javob berish qobiliyatidir va mavjud bo‘lgan yangiliklardan xabardor bo‘lishga imkon beradi, garchi jarayonning o‘zi ham ongli, ham ongsiz bo‘lishi mumkin; yangi kreativ mahsulotning yaratilishi, avvalo, ijodkorning shaxsiyati va uning ichki motivatsiyasi kuchiga bog‘liq; kreativ jarayon, mahsulot va shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari ularning o‘ziga xosligi, mustaqilligi, haqiqiyligi, vazifaga mosligi va yaroqlilik deb atash mumkin bo‘lgan yana bir xususiyat – estetik, ekologik, maqbul shakl”[136].

Xususan, Sh.S.Sharipov ilmiy izlanishlarida kreativlikni ijodkorlik tushunchasi bilan bog‘liq holda talqin etgan. Muallif talabalarda ixtirochilik ijodkorligini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini mehnat va kasb ta’limi ixtisosliklarini egallayotgan mutaxassislar misolida ochib berishga muvaffaq bo‘lgan[137].

M.Usmonboyeva, A.To‘rayevlarning ilmiy mulohazalariga muvofiq, “fikrlash kengligi – xususiy tomonlarni nazardan qochirmasdan, muammoni to‘liq

---

[134] Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – T.; 2015-yil.B 120.

[135] Овсянникова О.Н. “Психолого-педагогические условия развития креативных способностей у курсантов военного вуза (на материале изучения курса иностранного языка)”. Дес. Кан пед наук. Орел-2005. 28. с.

[136] Арипджанова А.Р. Развития креативного потенциала педагоговвысших образовательных учреждений в условиях информатизатсии образования. дис. ... док фил (ПҳД) педаг наук. 2017. 15 с.

[137] Шарипов Ш.С. Педагогические условия формирования изобретателского творчества.

qamrab olish qobiliyatidir. Tafakkurning teranligi – murakkab savollarning mohiyatigacha kira olish qobiliyatida ifodalanadi. Teran tafakkur qilishga qarama-qarshi bo‘lgan sifat yuzaki fikrlash bo‘lib, inson mayda narsalarga e’tibor qaratib, asosiy qismni ko‘rmaydi. Mustaqil tafakkur yuritish insonning yangi muammolarni qo‘ya olishi va boshqalarning yordamiga murojaat qilmasdan ularni yechish yo‘llarini topish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi bilan tavsiflanadi”[138].

Bizning fikrimizcha, ta’lim muassasalarining bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilaridan maxsus bilimlarni egallashning o‘zi yetarli emasliki, shaxsning individual mayllariga, ijodiy salohiyatiga eng mos keladigan bunday jihatlarini rivojlantirishni hisobga olish kerak.

Bularning barchasi, faoliyatini ijodkorlik, o‘ziga xoslik va kreativ sifatlarni ro‘yobga chiqarishga yo‘naltirilgan bo‘lib, soha mutaxassislarini tayyorlashda o‘z aksini topishi kerak.

Jumladan, R.B.Abdurahmonova “kreativ salohiyat deganda, ijodiy faoliyat doirasida o‘zaro bog‘liq bo‘lgan va shaxsning tashqi muhitdan kelib chiqadigan bilimlari va ma’lumotlari asosida yangi g‘oyalar va tushunchalarni ishlab chiqsh qobiliyati bilan tavsiflangan intellektual va ijodiy vositalar majmuasi tushuniladi”[139]-deb ta’kidlasa.

A.I.Avazboyev, J.E.Pardaboyevlar “kreativlik sifatlariga ega bo‘lajak pedagog kasbiy faoliyatini tashkil etishda ijodiy yondashish, yangi, ilg‘or, bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘quv faoliyati, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g‘oyalarni yaratishda faollik ko‘rsatish, ilg‘or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o‘rganish, shuningdek, hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo‘lishga e’tibor qaratadi”[140]-degan fikrni bildirsa.

[138] Usmonboyeva M., To‘rayev A. “Kreativ pedagogika asoslari” Toshkent 2016-yil. 18-19 betlar.
[139] Абдурахманова Р.Б. Становление профессиональной направленности педагогов и психологов: Автореф. дис. ... канд. психол. наук. Т.; НУУз, 2005-йил. 26 с.
[140] Avazboyev A.I., Pardaboyev J.E. Talabalarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yo‘llari. Zamonaviy ta’lim / Sovremennoye obrazovaniye 2018-yil. 8. B. 20-25.

S.B.Jumanova “pedagogikada kreativlik muammoli vaziyatlar nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi va umuman olganda, qaror qabul qilish qobiliyati doimiy o‘zgaruvchan sharoitlarda son-sanoqsiz vazifalar ekanligini” [141]-ta’riflab o‘tgan.

Turli vaziyatlarda qaror qabul qilish qobiliyati quyidagi vakolatlar majmuini ifodalaydi: o‘z ehtiyojlari va manfaatlarini ifoda etish xususiyati; boshqa ma’lumot manbalarini topish qobiliyati; turli pedagogik vaziyatlarda qaror qabul qila olish qobiliyati; muammoni hal qilishning original usullarini yaratish imkoniyatidan foydalanish.

Kreativ fikrlash – bu muammoning yangi yoki takomillashtirilgan yechimini topishga olib keladigan fikrlash. Tanqidiy fikrlash, ularni qo‘llash imkoniyatlarini aniqlash uchun taklif qilingan yechimlarni sinovdan o‘tkazmoqda. Kreativ fikrlash yangi g‘oyalarni yaratishga, tanqidiy fikrlash esa ularning kamchiliklarini aniqlashga qaratilgan. Muammoni samarali hal qilish uchun ham ijodiy, ham tanqidiy fikrlash kerak.

Xususan, Y.R.Varlakovaning “muammolarga juda ko‘p nostandart yechimlarni taklif qilish qobiliyati, bir vazifadan ikkinchisiga tezda o‘tish qobiliyati, uzoq birlashmalarni yaratish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, bo‘lajak o‘qituvchilar uchun mashg‘ulotlar davomida olingan bilimlarni qo‘llash bilan birga muammolarni ijodiy hal qilish qobiliyati alohida ahamiyatga ega”[142]-degan mushohadasi ahamiyatli.

L.A.Zatsepilova “Kreativ pedagogika evristik o‘qitish usullari va bo‘lajak o‘qituvchilarning qidiruv faoliyatiga asoslangan. Shu bilan birga, evristik o‘rganishda qidiruv kognitiv faoliyatining obyektlari nafaqat muammolar va vazifalar bajarishga imkoniyat yaratadi. Kreativlilik ta’limning barcha sohalarini qamrab olib, turli ta’lim muassasalarida qo‘llanilishi mumkin, ammo harbiy ta’limni o‘qitish sharoitida u yetarli darajada rivojlanmagan. Bo‘lajak o‘qituvchilarning tizimli fikrlash va kreativ sifatlarni rivojlantirish maqsadi ustuvor bo‘lishiga


[141] Jumanova S.B. Kreativ fikrlash. — «Izdatelskiye resheniya”, 2020. ISBN 978-5-00-511636-9.
[142] Varlakova Yu.R. “Razvitiye kreotivnosti budushix bakalavrov pedagogicheskogo obrazovaniya v vuze” Des. kan.ped.nauk. Krasn. 2013.

qaramay, o‘qituvchilarning zamonaviy ish usullari nostandart kreativ fikrlash qobiliyatlarini o‘quv jarayonining mahsuli deb hisoblamaydi”[143].

Bizning fikrimizcha, o‘qituvchining pedagogik muloqoti jarayonidagi kreativligi bir nechta ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining mukammal bilish jarayonidagi kreativligi; o‘zaro hamkorlik tizimidagi kreativligi; bevosita ta’limni tashkil qilishdagi kreativligi; o‘z xulq-atvorini boshqara olishda (muloqotni o‘zini o‘zi bilgan holda bir maromda olib borish) kreativligi; o‘zaro munosabatlarni tashkil qilish jarayonida kreativligi namoyon bo‘ladi.

Jumladan, T.S.Orlovaning “o‘n to‘qqizta taniqli kreativ shaxslarning (yozuvchilar, rassomlar, haykaltaroshlar, bastakorlar va olimlar) tarjimayi hollarini tadqiq qilishi natijasida quyidagilar ma’lum bo‘ldi”[144].

T.S.Orlovaning o‘n to‘qqizta taniqli kreativ shaxslarning tarjimayi hollarini tadqiq qilishi natijasi:



1.4-Rasm. T.S.Orlovaning o‘n to‘qqizta taniqli kreativ shaxslarning tarjimayi hollarini tadqiq qilishning konseptual tizimi.

[143] Zatsepilova L.A. “Razvitiye kreativnosti kursantov pri izuchenii gumanitarnыx dissiplin v vыsshem voyenno-uchebnom zavedenii”. Dis. Kan ped nauk. Ulyansk. 2011. 27. s.
[144] Orlova T.S. Kreativnost ekonomicheskogo soznaniya. Monografiya. Yekaterinburg. Ural. 2004. 79. s.

Ma’lumki, N.M.Gnatko “pedagogika va psixologiyada” “ijodkorlik” insonning ijodiy qobiliyati va uning imkoniyatlari hamda shaxsning muayyan maxsus xususiyati (barqaror xususiyati) sifatida qaraladi, bu esa ijtimoiy ahamiyatga ega kreativ-ijodiy faoliyatni ko‘rsatish qobiliyatlarini belgilaydi. “Ijodkorlik” va “kreativlik” tushunchalarini ajratish uchun zamonaviy tadqiqotchilar ikkita xususiyatdan foydalanadilar: protsessual – samarali (ijodkorlik uchun) va subyektiv – shart-sharoitlar (kreativlik uchun)”[145]-deya ta’riflaydi.

Bizningcha, bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining birgalikdagi ijodiy faoliyati kreativ sifatlarni rivojlantirish uchun kuchli rag‘batdir. Guruh faoliyatida nafaqat mashg‘ulotlar, yuqori malakali ishga tayyorgarlik, balki eng muhimi – intensiv guruhning har bir a’zosining shaxsiyatini shakllantirish va talabalarning shakllanishi nazarda tutiladi.

Shuningdek, A.R.Aripdjanovaning fikricha, “professor-o‘qituvchilar pedagogik muammo va vaziyatlarni o‘quvchilar oldiga qo‘yib, ularni o‘xshatish, kombinatsiyalash kabi usullardan to‘liq foydalanishga undaydi. Doimiy o‘z-o‘zini tarbiyalashga qaratilgan shaxsiyat – bu oliy o‘quv yurtida auditoriyada olgan bilimi bilan cheklanib qolmay, doimo takomillashib, dunyoqarashini kengaytirishga intiluvchi kreativ insondir”[146]-deb ta’riflanadi.

A.Maslowning fikriga ko‘ra, “shaxsiy faoliyat – maxsus faoliyat turi yoki maxsus faoliyat, uning asosiy xususiyatlarining kuchayishi bilan tavsiflanadi (maqsadlilik, motivatsiya, xabardorlik, harakat usullarini o‘zlashtirish, emotsionallik), shuningdek, bunday xususiyatlarning mavjudligi ham tashabbus ham vaziyat. Inson faoliyati insonning eng muhim sifati va atrofdagi voqelikni o‘z xohishiga ko‘ra o‘zgartirish qobiliyati sifatida alohida ahamiyatga ega ehtiyojlari, qarashlar, maqsadlar. Ijodiy faoliyatga undaydigan shaxs – bu muntazamlikni qabul qilmaydigan va shuning uchun doimo yangi, o‘ziga xos narsalarni qidiradigan va topadigan odam. U dastlab ijodiy bo‘lishga undaydi. Yaratish, ixtiro qilish, sinash -

[145] Gnatko N.M. Проблема креативности и явление подражания. https://search.rsl.ru/ru/record/01001690092.
[146] Арипджанова А.Р. Развития креативного потенциала педагоговвысших образовательных учреждений в условиях информатизатсии образования. дис. ... док фил (ПҳД) педаг наук. 2017. 15 с.

bu uning odatiy kasbiy holati, shuning uchun u kreativ sifatlarni hammadan ko‘proq rivojlantirishi kerak”[147]-deya ta’kidlaydi.

Jumladan, E.R.Varlakova “pedagog uchun o‘quv jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘quv faoliyatni amalga oshirish qobiliyatini rivojlantirish muammosini hal qilishi kerakligini anglatadi. Muayyan turdagi muammolarni hal qilishni ta’minlovchi operatsialar tizimi harakat tartibi deb ataladi. Shunday qilib, o‘rganishning yakuniy maqsadi harakat qilish usulini shakllantirishdir. Fan asoslari bo‘yicha har qanday ta’lim shu bilan birga tegishli aqliy harakatlarni o‘rgatadi va ma’lum bilimlarni o‘zlashtirmasdan turib aqliy harakatni shakllantirish mumkin emas. Shu sababli, o‘quv maqsadlari nuqtai nazaridan asosiy narsa bilim emas, uning bir qismi bo‘lgan faoliyat va harakatlar tushunilishini” [148]-e’tirof qilgan.

Xususan, I.Z.Kalmikova “kreativ va reproduktiv tafakkur o‘rtasidagi farqni predmetni bilishga nisbatan aqliy faoliyat jarayonida olingan mahsulotning yangilik darajasida” ko‘radi. Kreativlik ilgari mavjud bo‘lmagan yangisini yaratishga yo‘naltiradi. Pedagogik ta’lim bo‘lajak chaqiriqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarni rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, natijada talabalarning tafakkuri, ongi va shaxsiyatida sifat jihatidan o‘zgarishlar bo‘lishi”[149]-mumkin ekanligini ilmiy yondashuvlari orqali ifoda qiladi.

O.N.Ovsyannikova “zamonaviy ta’lim tizimida mavjud bo‘lgan fanlararo to‘siqlar bo‘lajak o‘qituvchilarga subyektlarning o‘zaro aloqasini ko‘rish, ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida va hayotdagi o‘rni va rolini aniqlash imkonini bermaydi. Shuning uchun sinfda fanlararo aloqani olib borish qobiliyatiga katta e’tibor berish muhimdir, chunki bo‘lajak o‘qituvchilar o‘z-o‘zini o‘qitish paytida ishlaydigan o‘quv materiallarining aksariyati fanning turli sohalari (fizika, muhandislik, matematika, elektronika bo‘yicha bilimlarga ega bo‘lishni talab

[147] Maslow A. Новые рубежи человеческой природы. http://psyberia.ru/ book/maslow01.pdf.
[148] Варлакова Ю.Р. “Развитие креотивности будуших бакалавров педагогического образования в вузе” Дес. кан.пед.наук. Красн. 2013.
[149] Kalmikova Z.I. Samarali fikrlash o‘rganish asosi sifatida. https://search.rsl.ru/ru/record/01001056173.

qiladi), ya’ni bo‘lajak o‘qituvchilar fanning turli sohalariga “sho‘ng‘ishlari” kerak[150]-deya integratsion informatsiyalarni umumlashtiradi.

Demak, Y.R.Varlakova rivojlanish jarayonida pedagogik yo‘nalish, o‘z bilimlari, qobiliyatlari, ko‘nikmalarini egallash va amalga oshirishga shaxsiy munosabat, shuningdek, kasbiy o‘zini-o‘zi anglash zarurati bilan ifodalangan motivatsion va qadriyat komponenti. Ehtiyojlarning mavjudligi har qanday faoliyat uchun shartdir, lekin ehtiyojning o‘zi hali faoliyatiga aniq yo‘nalish berishga qodir emas. Motivlar ehtiyojlarning samarali mazmunli xususiyatini o‘z ichiga oladi. Motivatsion qiymat komponenti pedagogik va badiiy faoliyatga qiziqishni (barqaror motivlar) nazarda tutadi[151].

I.N.Rezvitskiyning fikrlarida shaxsni shakllantirishda ta’lim yetakchi o‘rin tutishini hisobga olsak, talabalar bilan hamkorlik qiladigan, o‘quv jarayonini yaxshilaydigan, zamonaviy o‘qitish texnologiyalarini birgalikda yaratadigan va amalda ishlatadigan o‘qituvchi kelajakdagi mutaxassisni shakllantirishda muhim o‘rin egallaydi. O‘qituvchi har bir talabaning o‘quv faoliyati uchun psixologik yordam ko‘rsatishi kerak. Buning uchun o‘quv jarayonining maksimal samaradorligini ta’minlaydigan individual va guruhli test, trening va maslahatlarni o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarning mamlakatimizning turli mintaqalarida faoliyat olib boradi, bu yerda ham professional, ham ijtimoiy muammolarni hal qilishga ijodiy yondashish qobiliyati talab etiladi. Kelajakdagi harbiy kasbiy faoliyatda bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining individualligini ifoda etish shakllari haqida ham to‘xtalish kerak. Yoshga bog‘liq psixologik rivojlanish, ilmiy adabiyotlarda ta’kidlanganidek, inson o‘sib ulg‘aygan sari individualizatsiya kuchayishi bilan tavsiflanadi[152].

---


[150] Овсянникова О.Н. “Психолого-педагогические условия развития креативных способностей у курсантов военного вуза (на материале изучения курса иностранного языка)”. Дес. Кан пед наук. Орел-2005. 28. с.

[151] Варлакова Ю.Р. “Развитие креотивности будуших бакалавров педагогического образования в вузе” Дес. кан.пед.наук. Красн. 2013.

[152] Rezvitskiy I.N. Lichnost. Individualnost. Obщestvo. http://opac.hse.ru/absopac/app/webroot/index.php?url=/notices/index/IdNotice:290421/Source:default.

Xususan, O.N.Ovsyannikova psixologiya va pedagogikada shaxsni rivojlantirishning ko‘plab ilmiy yo‘nalishlari o‘rganilmoqda: Birinchi yo‘nalish kasblar psixologiyasi ilmiy asoslarini ishlab chiqish bilan bog‘liqligi. Kasbiy o‘zini-o‘zi belgilash, kasbiy yaroqlilik, kasbiy tanlash va o‘qitish, kasbiy malaka kabi muhim psixologik kategoriyalarning mohiyati va mazmunini ochib berishga imkon berdi; ikkinchi yo‘nalish kasbiy faoliyatning har hil turlarida individual psixologik xususiyatlar va o‘ziga xos shaxsiy xususiyatlarni bevosita o‘rganish bilan bog‘liq[153]-ekanligini ta‘kidlaydi.

Shunday qilib, “bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativligini rivojlantirish jarayoni modeli maqsad, tamoyillar, yondashuvlar, pedagogik shart-sharoitlar, mazmuni, shakli, vositalar, mezon va natijalardan iborat. Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirishda dastlab talabaning individual xususiyatlarini takomillashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi, individuallikni amalga oshirishning asosiy funksiyalari (1.5-rasm) da yoritilgan.



1.5-rasm. Kreativ individuallikni amalga oshirishning asosiy funksiyalari

[153] Ovsyannikova O.N. “Psixologo-pedagogicheskiye usloviya razvitiya kreativnых sposobnostey u kursantov voyennogo vuza (na materiale izucheniya kursa inostrannogo yazыka)”. Des. Kan ped nauk. Orel-2005. 28. s.

Y.R.Varlakovaning fikricha pedagogik faoliyatga yaqin sharoitlarda bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining olgan bilim, qobiliyat, malaka, pedagogik intuitsiya, hayotiy tajribaga tayangan holda mustaqil ravishda, kasbiy muammolarni hal qilishga ijodiy yondashishga, o‘qitishning innovatsion texnologiyalarini ijodiy idrok etishda va o‘zlari yaratishga, kelajakdagi faoliyati ijodiy salohiyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradi kutilayotgan natija-kelajakda talabalar uchun kreativ qobiliyatning tegishli darajasiga erishishdir[154]-degan fikrlari o‘rinli ekanligini ta‘kidlash lozim.

Shuningdek, J.P.Guilford o‘z fiklarida “kreativlilikni divergent tafakkurning unumdorligi bilan bog‘laydi. Pedagogik manbalarda siz uning “kreativ-divergent tafakkur jarayonidir” degan fikrini uchratishingiz mumkin. Dastlab, kreativlik strukturasida divergent tafakkurdan tashqari o‘zgaruvchanlik qobiliyati, yechimning aniqligi va boshqa intellektual parametrlarni birlashtirdi. Shuningdek, u kreativlik va intellekt o‘rtasida o‘zaro uzviy aloqa borligini isbotladi. Divergen fikrlashni turli yo‘nalishlarda ishlaydigan, muammoni hal qilish usullarini o‘zgartirishga imkon beradigan va kutilmagan xulosalar va natijalarga olib keladigan fikrlash turi sifatida tushunishni”[155] taklif qildi.

Tadqiqotlarni o`rganish natijasida bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirish uchun talabalarda quyidagi qobiliyatlarni: muammolarni aniqlash va yuzaga keltirish qobiliyati; tafsilotlarni ko‘shish orqali obyektni takomillashtirish qobiliyati; turli tezkor vaziyatlarda nostandart qarorlarni qabul qilish qobiliyati; muammolarni tezkor hal qilish qobiliyati; turli vaziyatlarni tahlil qilish va sintez qilish qobiliyatini rivojlantirish kerak ekanligini aniqladik. Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirishda dastlab talabaning individual xususiyatlarini takomillashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi, individuallikni amalga oshirishning asosiy funksiyalarida yoritilgan.

[154] Варлакова Ю.Р. “Развитие креотивности будуших бакалавров педагогического образования в вузе” Дес. кан.пед.наук. Красн. 2013.
[155] Guilford J. P. Creative Talents. https://www.amazon.com/Creative-Talents-Their-Nature-Development/dp/0943456150.

G.S.Altshullerning ta‘kidlashicha Geshtalt psixologiyasida “kreativlikning aqliy ombori uchun quyidagi talablar majburiy deb hisoblangan: cheklanmaslik, odatlar bilan yashiringan bo‘lmaslik; sizga o‘rgatilgan narsalarni sodda va odatiy tarzda takrorlamang; mexanik harakat qilmaslik; qisman pozitsiyani egallamaslik; yo‘k muammo tuzilishining cheklangan qismiga qaratilgan diqqat bilan harakat qilish; qisman operatsiyalar bilan emas, balki erkin, yangi g‘oyalar uchun ochiq fikr bilan harakat qilish, vaziyat bilan ishlash, uning ichki o‘zaro bog‘liqligini topishga harakat qilish”[156]-kabi fikrlar kreativlikka qo‘yilgan talablar sifatida etirof etiladi.

A.Maslow kreativlik xulq-atvorni aniqlashda motivatsiyalar, qadriyatlar va shaxsiy xususiyatlar asosiy rol o‘ynaydi. Ijodiy shaxsning asosiy xususiyatlariga kognitiv qobiliyat, muammolarga sezgirlik va mustaqil fikr yuritish[157]-kirishi haqida o‘z ilmiy qarashlarini aytib o‘tgan.

Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirishda, yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, ular o‘zlarining bilim faoliyatini namoyish etishlari, olingan bilimlardan kasbiy faoliyatida xaqiqatdan ham foydalanish istagini his qilishlari uchun motivlar va sharoitlarni yaratish muhim rol o‘ynaydi.

Buning uchun bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining muhim shaxsiy fazilatlarni rivojlantirishga, shuningdek muammoli ta’lim elementlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ma’lumotli va kognitiv materiallardan foydalanish maqsadga muvofiq, ular o‘quvchilarning qidiruv faoliyatini tashkil etishga, turli xil hayot va kasb-hunarlarni aniqlash va hal qilishga asoslangan ular tomonidan ziddiyatlar aniq ko‘rsatilgan.

Professor-o‘qituvchilar va bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir metodlariga ko‘ra o‘qitishning izohli-illyustrativ, qisman izlanuvchan, muammoli va tadqiqot metodlaridan foydalanish samara beradi.

Jumladan, J.P.Guilford “kreativlikni obyektning funksiyalarini qayta ko‘rib chiqish, undan yangi miqyosda foydalanish qobiliyati deb hisoblanadi. Uning

[156] Алтшуллер Г.С. Как стат гением. https://royallib.com/book /altshuller_g /kak_stat_geniem.html.
[157] Maslow A. Новые рубежи человеческой природы. http://psyberia.ru/ book/maslow01.pdf.

fikricha, konformizm kreativ shaxsga xos emas. Bu unga boshqa odamlar kulgili ko‘rinishdan qo‘rqib, kirishga jur’at etmaydigan yo‘llarni o‘rganishga imkon beradi, kreativ sifatlarga ega inson hayot va jamiyat haqidagi g‘oyalarda, shuningdek, o‘z harakatlarida dogmatizm va mukammallik sari rivojlanishi bilan ajralib turadi”[158]-deya ta’kidlasa.

C.Taylor “kreativlikning quyidagi ko‘rsatkichlarini belgilaydi: tafakkur unumdorligi, faoliyatni rejalashtirish qobiliyati, harakatlarning bashoratliligi, qaror qabul qilish va ularni amalga oshirish, umumlashtirish qobiliyati”[159]-sifatida e’tirof etadi.

Xususan, Amerikalik psixolog E.Fromm “kreativlik konsepsiyasining quyidagi ta’rifini taklif qildi: “Bu ajablanish va o‘rganish qobiliyati, nostandart vaziyatlarda yechim topish qobiliyati, bu yangi narsalarni kashf etishga e’tibor va ularning tajribasini chuqur anglash qobiliyati””[160]-deya e’tirof etgan bo‘lsa.

R.Mayerning fikricha, “kreativlik nima ekanligini tushunish uchun beshta asosiy savolga javob topish kerak, kreativlik aslida nima?: insonning mulki, mahsulotni yoki jarayonmi?, kreativ ijtimoiy yoki shaxsiy xodisami?, Uning tashuvchilari (odamlar, jarayonlar, mahsulotlar) qanday xususiyatga ega: maxsusmi yoki umumiymi?, Kreativ subyekt hayotining barcha sohalari uchun umumiy hodisami yoki uning har birida alohida turlari bormi?, Bu sifat toifami yoki miqdoriy toifami?”[161]-kabi savollarning berilishi subyektning izlanishini ta’minlaydi.

X.E.Tryk “kreativlik bilan jarayonning o‘tmishini, unga hamkor bo‘lgan keyingi xususiyatlarini tushunadi, buning natijasida odam(yoki yuir guruh odamlar) ilgari mavjud bo‘lmagan narsani yaratadi. Kreativlik mezoni, uning fikricha, aqliy mahsuldorlikni faollashtiruvchi xususiyatlar va jarayonlardir, shu munosabat bilan o‘quvchilarda atrofdagi dunyo o‘zgarishlariga tez javob berish, tanqidiy fikrlash va fikr yuritish qobiliyatini rivojlantirish kerak. U shuningdek, haqiqiy ijodkorlikni soxta va yarim kreativlikdan ajratish zarurligiga ishora qiladi, bu ham faqat

[158] Guilford J. P. Creative Talents. https://www.amazon.com/Creative-Talents-Their-Nature-Development/dp/0943456150.
[159] Taylor, C. Various approaches to and definitions of creativity / C.Taylor// Sternberg R., Tardif T. (eds.). The nature of creativity. — Cambridge: Cambr. Press, 1988. - P. 99-126.
[160] Fromm E. Бегство от свободы. Человек для самого себя / Э.Фромм. – М.: Изида, 2004. - 400 с.
[161] Mayer R. Fifty Years of Creativity Research // Ed. by R. J. Sternberg. Handbook of Creativity. Cambridge, 1999. P. 21.

nonkonformizm va mavjud bo‘lgan narsalarni ko‘r-ko‘rona rad etishga asoslangan intizomning yetishmasligi va boshqalarga o‘xshamaslik istagi tufayli yangilik belgisi. Uning fikricha, bu xil “yangilik”ning ijodga aloqasi yo‘q”[162]-deb ta’kidlaydi.

C.R.Rogers pedagogik kreativlikning asosiy xususiyati sifatida ta’lim va o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni[163] talqin qiladi.

Olimlarning kreativlik ta’riflarini umumlashtirib, biz ushbu muammoga yagona yondashuv yo‘q degan xulosaga kelishimiz mumkin, ammo bizga taqdim etilgan ta’riflarni kreativlikni ko‘rib chiqadigan to‘rt jihatga ko‘ra tasniflash mumkin: kreativ jarayon, ijodiy qobiliyat, kreativ shaxs va kreativ muhit (ijodkorlilikka qo‘yiladigan talablarni shakllantiruvchi soha, tuzilma, ijtimoiy kontekst). Kreativ jarayonga qo‘shilish orqali shaxs kreativ muhitda faollashadi, kreativ shaxs xususiyatlariga ega bo‘ladi, natijada kreativ sifatlari rivojlanadi.

Xorij olimlaridan E.P. Torrance[164], X.E.Tryc[165], S.A.Mednick[166] “kreativlikni jarayon deb hisoblob kreativlik 3 harakatga bo‘lingan degan fikrga qo‘shiladilar: gipotezani ilgari surish harakati; ijodkorlik harakati; mantiqiy ishlab chiqilgan g‘oyaning harakati”.

Puankare va Hadamard tadqiqotlariga ko‘ra “kreativ jarayon 4 bosqichda amalga oshirish nazarda tutilib: tayyorgarlik bosqichi muammoni yechishda odatiy holda hal qilishga urinishlarni o‘z ichiga oladi; inkubatsiya davri muammolarni hal qilishning odatiy usullarining ishlamayotganligini anglashdan iborat, shu munosabat bilan ularni hal qilish kechiktiriladi, odam boshqa faoliyatga o‘tadi; tushunchaga ongli javobning to‘satdan paydo bo‘lishi bilan tavsiflanadi; tekshirish topilgan yechimning yaroqliligi va joizligini har tomonlama tahlil qilishni o‘z ichiga oladi”[167]. Olimlardan G.N.Ibragimova[168], A.R.Aripdjanova[169], O.G.Pozdnyakov[170],

---

[162] Tryk X.E. Основные направления экспериментального изучения творчества M:. 2002.
[163] Rogers C. R. Искусство консультирования и терапии. https://search.rsl.ru/ru/record/01000984755.
[164] Torrance E. P. Guiding Creative Talent. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, Inc. http://dx.doi.org/10.1037/13134-000.
[165] Tryk X.E. Основные направления экспериментального изучения творчества M:. 2002.
[166] Mednick S.A. The associative basis of the creative process. https://doi.org/10.1037/h0048850.
[167] Пуанкаре А. «О науке» / А.Пуанкаре. М.: Наука. 1990. – 213 с.
[168] Ibragimova G.N. Interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. Des. fal dok (PhD).T:. 2017. B. 33-34.
[169] Арипджанова А.Р. Развития креативного потенциала педагоговвысших образовательных учреждений в условиях информатизатсии образования. дис. ... док фил (ПҳД) педаг наук. 2017. 15 с.
[170] Поздняков.О.Г. Педагогические пути развития творческих способностей к познавателной деятелности у курсантов военных вузов. Дес. Кан пед наук. Красно. 2013. 39. с.

O.N.Ovsyannikova[171], J.P.Guilford[172], E.P.Torrance[173], X.E.Tryk[174], S.A.Mednick[175] larning tadqiqot ishlarida qayd etilgan ilmiy metodologik tavsiyalaridan, bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirish bo‘yicha olib borayotgan tadqiqot ishimiz bilan o‘zaro uyg‘unlashtirdik: pedagoglar o‘quv dasturlari va o‘quv ma’lumotlarini yaratishga nisbatan kreativ yondashib, bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining umumiy rivojlanishi hamda kasbiy shakllanishiga e’tibor qaratishi; tayyorlangan o‘quv materiallarining g‘oyaviyligini, ilmiyligini, vizualligini, tizimliligini, o‘quv axborotlarining izchil bayon etilishini, o‘quv axborotlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliqligini inobatga olish; topshiriqlar bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining yosh xususiyatiga mosligi, amaliy ahamiyatga egaligi, aniq maqsadga yo‘naltirilganligi hamda bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining ehtiyoj va qiziqishlariga muvofiq tayyorlanishi; bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantiruvchi metod, vosita va texnologiyalarning maqsadli, izchil qo‘llanilishi, shuningdek, pedagogik faoliyatni tashkil etishda hamda amalda joriy etishda, axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan unumli foydalanishni mustahkamlaydi; bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlari rivojlantirilsa va o‘qituvchi tomonidan samimiy muhit bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining juftlikda, kichik guruhlarda faol ishlashlari uchun sharoit yaratilsa, mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlash qobiliyatlari hamda kreativ sifatlari rivojlanadi.

Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlari eng avvalo mustaqil tanlov, yangi narsalarni kashf etish paytlarida, bilimlarni boshqa holatlarga o‘tkazish qobiliyatida, asl, nostandart muammolarni hal qilishda namoyon bo‘ladi. Mavjud bilimlarga asoslanib, bo‘lajak o‘qituvchilarni kelajakda

[171] Овсянникова О.Н. “Психолого-педагогические условия развития креативных способностей у курсантов военного вуза (на материале изучения курса иностранного языка)”. Дес. Кан пед наук. Орел-2005. 28. с.
[172] Guilford J. P. Creative Talents. https://www.amazon.com/Creative-Talents-Their-Nature-Development/dp/0943456150.
[173] Torrance E. P. Guiding Creative Talent. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, Inc. http://dx.doi.org/10.1037/13134-000.
[174] Tryk X.E. Основные направления эксперименталного изучения творчества M:. 2002.
[175] Mednick S.A. The associative basis of the creative process. https://doi.org/10.1037/h0048850.

yetuk mutaxasis sifatida o‘zgaruvchi muhitda tezda to‘g‘ri qarorlarni qabul qilishi, ularning oqibatlarini vaqt nuqtai nazaridan bashorat qilishi talab etiladi.

Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirish orqali nostandart qarorlar qabul qilish, kreativ yechimlarni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq e’tish jarayoni muhim o‘rin tutadi, bular asosida bo‘lajak o‘qituvchilar kreativ fikrlashga o‘rganadi.

II BOB. BO‘LAJAK CHAQIRIQQACHA HARBIY TA’LIM O‘QITUVCHILARINING KREATIV SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

2.1. Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirish shart-sharoitlari

Kreativ fikrlash bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil harakat qilish sifatini rivojlantirish chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishining ustivor vazifasi bo‘lib, bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirishning eng muhim yo‘nalishini harbiy tayyorgarlik bo‘yicha o‘quv-me’yoriy hujjatlar belgilaydi.

6011200-Chaqiriqqacha harbiy ta’lim bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablariga ko‘ra umumiy: o‘rta ta’lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar ta’limida “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” rahbari va “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” o‘qituvchisi maktabdan tashqari muassasalarida ishlash; O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining tegishli idora va muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni tashkil qilish va amalga oshirish; umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalarida “Jismoniy tarbiya” fanidan o‘rnatilgan tartibda dars berish; ta’lim tizimida kabinet mudiri; mos ta’lim yo‘nalishlar bo‘yicha ta’limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida metodist bo‘lib ishlash; aniq va tabiiy fanlar yo‘nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida kichik ilmiy xodim bo‘lib ishlash; mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari hamda joylardagi ma’naviyat va ma’rifat markazlarida ishlash; ishlab chiqarish sohalarida, kasbiy ta’lim pedagogikasi va texnologiyasi, o‘qitishning didaktik vositalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni ko‘zda tutadi.

O‘quv reja va fan dasturini o‘zlashtirishning meyoriy muddati 3-yil. 6011200-Chaqiriqqacha harbiy ta’lim bakalavriat ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasiga muvofiq

majburiy fanlarga 3360 soat, tanlov fanlariga 1140 soat ajratilgan. Shuningdek, pedagogik amaliyotga 720 soat, bitiruv malakaviy ishlarga 180 soat belgilangan.

Ilmiy tadqiqot ishimiz asosan majburiy fanlar tarkibidan “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni tashkil etish va uni o‘qitish metodikasi” fani doirasida olib borildi. Ushbu fanga ajratilgan umumiy yuklamaning hajmi 780 soatni tashkil etadi.

Jumladan auditoriya mashg‘ulotlari 390 soat, mustaqil ta’lim uchun 390 soat “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayorgarlikni tashkil etish va uni o‘qitish metodikasi” fan dasturi va shu dastur asosida tuzilgan o‘quv-me’yoriy hujjatlar 6011200-Chaqiriqqacha harbiy ta’lim bakalavriat ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

60112000-Chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan umumiy talablar. Bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan umumiy talablar: dunyoqarash bilan bog‘liq tizimli bilimlarga ega bo‘lishi; gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi; Vatan tarixini bilishi, ma’naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o‘z fikrini bayon qila olishi va ilmiy dalillar orqali asoslay olishi, milliy istiqlol g‘oyasiga tayanib faol hayotiy nuqtayi nazarga ega bo‘lishi; tevarak-atrofda ro‘y berayotgan voqea va hodisalarga daxldorlik tuyg‘usini his qilish haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o‘z kasbiy faoliyatida foydalana bilishi; insonlarning o‘zaro munosabatini rivojlantirish, jamiyatga va atrof muhitni asrashga qaratilgan huquqiy hamda ma’naviy mezonlarni anglab yetishi, kasbiy faoliyatida ularni qo‘llashi; turli axborot-informatsiyalarga ega bo‘lishi va ularni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va fan nuqtayi nazardan tahlil qilish usullarini ishlab chiqishi, o‘z professional faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi; tegishli bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha raqobotbardosh kasbiy kompetensiyasi yuqori darajada rivojlangan va umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi; egallangan yangi bilimlarni amaliy tatbiq qila olishi, o‘z ustida muntazam ishlashi va pedagogik

faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi; sog‘lom turmush tarziga rioya qilish zaruriyati to‘g‘risida ilmiy tasavvur hamda hayotiy tajribalarga, o‘zini jismoniy chiniqtirish uquv va ko‘nikmalarini egallashi lozim.

Bakalavr: ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha oliy ma’lumotli shaxslar egallashi lozim bo‘lgan lavozimlarda mustaqil ishlashga; tegishli bakalavriat yo‘nalishlari doirasida tanlangan mutaxassislik bo‘yicha magistraturada oliy ta’limni davom ettirishga; kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida qo‘shimcha kasb ta’limi olish uchun tayyorlanadilar.

60112000-Chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyatlariga qo‘yiladigan malaka talablari pedagogik faoliyatida: ta’lim mazmunini belgilash tamoyillari va mezonlariga rioya etish, o‘quv materiallarini tanlash va tizimlashtirishga doir zamonaviy yondashuvlarni hisobga olish, o‘quv materiallarini modellashtirish; yaxlit pedagogik jarayonning umumiy qonun, qonuniyat va tamoyillariga amal qilish, ta’lim-tarbiya jarayonida gnoseologik, tashkiliy, psixologik, didaktik, sotsiologik va kibernetik qonuniyatlarning uyg‘unligiga erishish; ta’lim-tarbiya jarayoni tarkibiy qismlari (maqsad, natija, mazmun, shakl, metod va vosita)ning o‘zaro aloqadorligi va umumiyligini hisobga olish; ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy va samara beruvchi shakllaridan unumli foydalanish; o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini samarali tashkil etish va o‘tkazish; ta’lim-tarbiyaning xilma-xil metodlarini, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni oqilona tanlay olish, kreativ yondashuv asosida metod va texnologiyalarning milliy qadriyat hamda mentalitetga mutanosibligini ta’minlash qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak.

Ta’lim muhitining asosiy vazifasi bo‘lajak o‘qituvchilarning bilim egallashi uchun imkoniyatlar yaratish,chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo`nalishi o‘quv muhitida bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirish qo‘yidagi ilmiy maqsadlarni ko‘zlaydi: bo‘lajak o‘qituvchilarning ilmiy-tadqiqot ishlariga qiziqishini orttirish va ilmiy-tadqiqot ishlariga bo‘lgan ijodkorlik yondashuvlarini rivojlantirish; bo‘lajak o‘qituvchilarning harbiy ta’lim ishlarida faol ishtirokini ta’minlash to‘garaklar, ilmiy konferensiyalar, eng yaxshi

ilmiy tadqiqot ishlari uchun tanlovlar o‘tkazish va ularni taqdirlash, ilmiy-amaliy seminarlarni tashkil e’tish va ularni o‘tkazishга doir malakalarini rivojlantirish; bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining mustaqil ilmiy-tadqiqotlarda qatnashishi va ilmiy tadqiqot olib borishda duch keladigan muammolarga yechim topish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlariga yordamlashish; konferensiyalar, seminarlar, tanlovlar, mutaxassisliklar va fanlar bo‘yicha olimpiadalar, munozara klublari, ilmiy ishlar tanlovlari; bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarni rejalashtirilgan ilmiy konferensiyalar, seminarlar, tanlovlar va boshqa imliy tadbirlar, ularda ishtirok etish imkoniyatlarini oshirish; bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilari bilan boshqa oliy harbiy ta’lim muassasalari o‘rtasida aloqalarni o‘rnatish va hamkorlikni rivojlantirish; ilmiy-pedagogik muammolarni mustaqil ravishda hal qilish metodikasi va uning usullarini o‘rgatishга doir ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish.

Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirishdagi tarbiyalash omillari: O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar muzeyi, O‘zbekiston tarix muzeyi, Amir Temur muzeyi, Qatag‘on qurbonlari muzeyi, Shon sharaf muzeyi, Adiblar xiyoboni va G‘alaba bog‘iga tashrif buyurish orqali; O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun 8-dekabr, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil topgan kun 14-yanvar, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning tavallud kuni 14-fevral, buyuk sarkarda sohibqiron Amur Temurning tavallud kuni 9-aprel, Xotira va qadrlash kuni 9-mayni nishonlash orqali.

Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirishning ustuvor maqsadlarini amalga oshirish: bo‘lajak o‘qituvchilarni ma’naviy-psixologik tayyorlash; bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirish; bo‘lajak o‘qituvchilarni kreativ sifatlarini rivojlantirishning texnologik xaritasini tuzish”.

Demak, bo‘lajak o‘qituvchilarni kreativ sifatlarini rivojlantirish ishlar doirasida turli axborot manbalari, ma’lumot resurslari va ta’limning zamonaviy texnologiyalari bilan ishlash qobiliyatlari rivojlanadi. Olib borilayotgan ilmiy

ishlarning tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki pedagogika va psixologiyadagi yondashuvlar orqali bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining ta’lim beruvchilik, tarbiyachilik va rivojlantiruvchilik funksiyalarni ta’lim jarayoniga nisbatan asosiy yondashuvi sifatida qo‘llab kelinmoqda.

Mutaxassislar tomonidan mashg‘ulot rahbarining pedagogik faoliyatida asosiy o‘rin egallaydigan funksiyalar ajratib ko‘rsatilgan. Bu funksiyalarni muvaffaqiyatli bajarish bo‘lajak o‘qituvchilardan turli sohalardagi bilimlarni o‘zlashtirishlarini talab qiladi. Agar ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarni mustaqil tenglashtirish va o‘z bilimlarini tadbiq etish kabi sifatlari namoyon bo‘lsa, bu o‘z navbatida, mashg‘ulot rahbaridan rivojlantiruvchi ta’lim vazifalarini yaratishni talab qiladi.

Bunday vazifalarda bo‘lajak o‘qituvchilarga ta’lim mazmuni va usullarini mustaqil tanlash taklif etiladi. Rivojlantirish vaziyatini yaratish esa, bo‘lajak o‘qituvchilardan topqirlik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, loyihalashtirish va muloqotga kirishuvchanlik hamda to‘g‘ri qaror qabul qilish funksiyalariga ega bo‘lishni taqozo qiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘z faoliyatini mustaqil tashkil qilish sifatini shakllantirish mashg‘ulot rahbarlaridan ularni mustaqil izlanish va o‘quv materiallari mohiyatini tushunishga yo‘naltirilgan vaziyatlarni hosil qilishni talab etadi. Bunday sharoitda rivojlantiruvchi ta’lim vaziyatini tashkillashtirish mashg‘ulot rahbarlarini tashkilotchilik vazifalarini bajarishga undaydi. Sohaga oid mavjud konsepsiyalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining ajratib ko‘rsatilgan pedagogik funksiyalari yangi davrda boyitilishi va kengroq qamrovga ega bo‘lishi taqozo qilinmoqda.

Bo‘lajak o‘qituvchilardan topqirlik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, loyihalovchilik, muloqotga kirishuvchanlik va to‘g‘ri qaror qabul qilish funksiyalarini kasbiy faoliyat funksiyalari tarkibiga kiritish mumkin. Boshqacha so‘z bilan aytganda, mazkur vazifalar bo‘lajak o‘qituvchilarning umumkasbiy vazifalari sirasiga kiradi. Mashg‘ulot rahbarining bo‘lajak o‘qituvchilar bilan kirishuvchanlik va ijtimoiylashtiruvchilik funksiyalari bo‘lajak o‘qituvchilarga

shaxsiy-hissiy ta’sir ko‘rsatuvchi imkoniyatlarni izohlab, ijtimoiy madaniy vaziyatlarni o‘zgarishi sharoitida ta’lim jarayonidagi bo‘lajak o‘qituvchilarning shakllanishlariga ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqotimiz davomida interfaol yondashuvlar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ sifatlarni rivojlanishi ularning o‘ziga xosligini ifodalovchi, ko‘nikmalarda aks etuvchi, moddiy ta’minotni pedagogik tadqiqot obyekti sifatida anglashlarini ta’minlovchi, muammoli ta’lim paradigmasini bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy salohiyatlarini namoyon qilish imkoniyati sifatida tushunish, shaxsiy-kasbiy muammolarni tahlil qilishga moyilliklarini rivojlantiruvchi, ta’lim-tarbiya bo‘yicha hamkorlik jarayonining barcha ishtirokchilari uchun kreativ sifatlarni rivojlantiruvchi pedagogik hodisa ekanligiga asoslandi.

Ta’lim jarayonida kafolatlangan natijaga erishish ta’lim oluvchilar ijodiy faoliyatning muayyan turini o‘zlashtirishlarini taqozo qiladi. Ijodiy faoliyatning mazkur turi aksariyat hollarda kasbiy xarakterga ega bo‘lishi lozim. Bunday faoliyat o‘ziga bilim, ko‘nikma va malakalarni mujassamlashtirishni talab qiladi. Chunki bunday bilim, ko‘nikma va malakalardan ta’lim oluvchilar ijodiy tarzda foydalangan holda muayyan faoliyatni bajaradilar. Ta’lim natijasida bo‘lajak o‘qituvchilar o‘ziga xos individual ijodiy yutuqlarga erishadilar.

Bunda “bilim, ko‘nikma va malakalar o‘rniga o‘quv harakatlarining yengilligi yoki murakkablik darajalari baholanadi. Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilariga taqdim etilgan o‘quv faoliyatini tez va oson bajarsa, ular izchil tarzda ijodiy faoliyat tajribasini ham o‘zlashtiradilar. Agar bo‘lajak o‘qituvchilar mazkur o‘quv harakatlarini bajarish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelsa, ijodiy faoliyat tajribasini o‘zlashtirish mashqlarini davom ettirishlari kerak. Muayyan topshiriqlarni bajarish xarakteri emas, balki bunday turdagi mashqlarni bajarish mustaqilligining darajasi baholanishi lozim”[176].

[176] https://tmatm.uz/site/wp-content/uploads/2015/09/2.-SHAHSGA-JUNALTIRILGAN-TALIM-TURLARI-VA.pdf.

Interfaol metodlar bugungi kunda mashg‘ulot rahbari faoliyati uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining innovatsiyalarga oid bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish uchun ularning kreativ sifatlarini rivojlantirish talab etiladi. Pedagogik innovatsiyalar o‘z-o‘zidan vujudga kelmaydi, ular pedagogik izlanishlar natijasi, ilg‘or pedagogik tajribalar mahsulidir.

Yangi shakllangan ta’lim texnologiyalarini amaliyotga tadbiq etish vazifasi birinchi navbatda mashg‘ulot rahbarining zimmasiga yuklanadi. O‘quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni tadbiq etish bilan bog‘liq tarzda mashg‘ulot rahbari o‘z zimmasiga uddaburonlik, maslahatchilik, yo‘naltiruvchilik, tarbiyaviy vazifalarini o‘z ichiga oladi.

Bunday holatlar, bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilaridan maxsus harbiy pedagogik-psixologik tayyorgarlikni talab qiladi. Buning sababi, mashg‘ulot rahbarining kasbiy faoliyatida nafaqat o‘z faniga doir bilimlar joriy etiladi, balki harbiy pedagogika va psixologiyaga oid zamonaviy bilimlar, ta’lim-tarbiya texnologiyalari va kreativ faoliyat tajribasi ham keng qo‘llaniladi. Xuddi mana shu bilimlar negizida pedagogik idrok, pedagogik innovatsiyalarni baholash va amaliyotga tatbiq qilish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Monografiyada interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari asosida bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarning kreativ sifatlarini rivojlantirish modeli takomillashtirildi.

Mazkur model mazmunida bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarda kreativ sifatlarni rivojlantirishdan ko‘zlangan maqsad, uning asosiy yo‘nalishlari, bosqichlari, zaruriy pedagogik shart-sharoitlarni hamda interfaol texnologiyalari va yakuniy natijalari asoslanadi. Innovatsiya yangilik tushunchasini ifodalab, ta’lim jarayonidagi yangiliklarni kiritish va uni o‘zgartirish demakdir. Innovatsiyalar pedagogik vosita va jarayon sifatida o‘quv jarayoniga yangiliklar kiritishni taqozo qiladi.

Ta’lim jarayonida o‘rganiladigan yangiliklar, uning maqsadi, mazmuni, metodlar va shakllari, mashg‘ulot rahbari hamda bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy

ta’lim o‘qituvchilarining hamkorlikdagi faoliyatlarini tashkil etish usullarini o‘zgartirishni talab qiladi. Shuningdek, harbiy ta’lim mashg‘ulotlarida texnologik jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlari va mazmunini aniqlashga yo‘naltirilgan izlanishlarning ko‘lami kengaymoqda.

Harbiy ta’limdagi innovatsion jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlarini tushunishda bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining e’tibori ikkita muhim muammoga qaratilishi lozim: ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish, umumlashtirish va ommalashtirish; harbiy pedagogika psixologiya fanlarining so‘nggi yutuqlarini ta’lim-tarbiya amaliyotiga tatbiq e’tishdan iborat.

Ikkinchi tomondan mashg‘ulot rahbarining kreativligi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uning yordamida yangiliklar yaratiladi va amaliyotga joriy etiladi. Shu sababli ham texnologik jarayonlarning mazmuni va amalga oshirish mexanizmlarini o‘zlashtirish, bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb e’tadi.

Pedagogik tajribalarni o‘rganish, uni umumlashtirish va ommalashtirish jarayoni o‘zining muayyan maqsad va vazifalariga ega. Ta’limning texnologik jarayonlarining natijalari umumiy pedagogik jarayonning nazariy-amaliy jihatlariga mos keladigan yangiliklarni tatbiq etish ko‘nikmasi bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarida kreativ sifatlarni ongli tarzda rivojlanishi muhimligidan dalolat beradi. Bu esa pedagogik yangiliklarni o‘zlashtirish va amalda foydalana olish ko‘nikmasining zarurligini ko‘rsatadi.

Pedagogik jarayonlarda bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilari kreativ faoliyat muallifi, yangi loyihalarni ishlab chiquvchisi, tadqiqotchi, yangi pedagogik texnologiyalarning foydalanuvchisi va targ‘ibotchisi sifatida namoyon bo‘lishi aniqlandi.

Mazkur jarayonni boshqarish bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilaridan ilg‘or pedagogik yondashuvlar, usullar va texnologiyalarni tanlash, o‘z amaliy faoliyatida qo‘llash tajribasini o‘zlashtirishni talab kiladi. Shu bilan bir qatorda, bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilari chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik va uni o‘qitish metodikasi fanida taklif qilinayotgan

yangi g‘oyalar va metodikalarni qo‘llashga harakat qilishlari maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilari pedagogik faoliyatining kreativ sifatlarini rivojlantirishga yo‘nalganligi ularni pedagogik yangiliklarni yaratish, o‘zlashtirish va amaliyotda qo‘llash jarayoniga jalb etishni talab qiladi. Buning uchun oliy ta’limning pedagogik ta’lim jarayonida yangiliklarni qo‘llash va ijod qilishga yo‘naltirilgan muayyan pedagogik muhitni tashkillashtirish lozim.

Bugungi kunda harbiy pedagogik faoliyatni kreativlikka asoslangan holda yangiliklarni o‘zlashtirishga yo‘naltirish muayyan holatlar bilan bog‘lik tarzda amalga oshirilishi belgilandi: Respublikamizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’naviy va ilmiy yangilanishlar ta’lim tizimida bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilari faoliyati o‘zgartirilishini taqozo etdi. Ushbu vaziyatlar ta’lim muassasalarida interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalarini rivojlantirish asosida o‘zlashtirish va qo‘llashning yangi mexanizmlarini mujassamlashtiradi.

O‘z navbatida, mavzuli nazariy tahlilni aniqlash imkonini beradigan va bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirish tuzilmasining mexanizmiga quyidagilar kiradi: maqsadlar, vazifalar, subyektlar, obyektlar, qarama-qarshilik, prinsiplar, usullar, shakllar va natijalar, belgilangan maqsadlarga erishishni taklif qiladigan uchta tashkiliy-uslubiy bosqichlarda amalga oshirilgan pedagogik chora-tadbirlar bilan xarakterlanadi.

Birinchi bosqich: 1-bosqich talabalari. Ushbu bosqichda kreativlig sifatlarini rivojlantirish qiyin, chunki dastlabki kurslar uchun asos harbiy xizmat tizimi bo‘lib, ular haqida to‘liq tasavvurga ega emas. Bu holat kreativ sifatlarni rivojlantirish uchun maqsadli faoliyatni amalga oshirishni qiyinlashtiradi.

Ikkinchi bosqich: 2-bosqich talabalari. Ta’lim subyektlarining bilim olish faoliyatida kundalik harbiy faoliyatning asosi bilim, ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lgan bo‘lajak o‘qituvchilarga tayanishi mumkin. Ular, asosan, mustaqil ravishda qidirish va zarur qarorlar qabul qilish uchun “intellektual tayyorgarlik” jarayoniga kirishadi.

Uchinchi bosqich: 3-bosqich talabalari darajasi. Ushbu darajada bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarini o‘qitishda subyektiv yondashuvga ustuvor ahamiyat beradi. Ular bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari uchun bu bosqichda o‘quv jarayoni subyektlari va bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilari, motoo‘qchi guruh komandiri (harbiy mutaxasislik) sifatida pedagogik mahoratni tashkil etishning uslubiy jihatlariga e’tibor qaratishi zarur.

Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilari tasniflash darajalari (2.1-jadval)da o‘z ifodasini topgan.

Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilari tasniflash darajalari.

2.1-jadval

Razvedkadagi ziyraklik darajasi	Bunga odatiy tizimli “chizmalar”, hissiyotlar, konformlik o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Mavjud bo‘lgan ko‘nikmalarga xos bo‘lmagan narsalarni ko‘rish bu oddiy kuzatuvchanlikdan ko‘p.
Asab tizimining axborotni kodlash qobiliyati darajasi	Miya har qanday fikrni u yoki bu shaklga aylantira oladi; har xil odamlar kodlardan foydalanishda bir xil qobiliyatga ega emas. Miyaning tug‘ma xususiyatlari va hayotning dastlabki yillarida rivojlanish shartlari ma’lum ma’lumotlar kodlarini sinab ko‘rishga moyillikni oldindan belgilab beradi. Kodlash usuli natijalarning tashqi ifodasi shaklini muhrlaydi, kengroq qaralganida fikrlashning mazmuni muayyan sohani tanlashga ta’sir o‘tkazadi.
Aqliy operatsiyalarni qisqartirish darajasi	Fikrlashning uzoq zanjiri, tushunchalar bitta umumlashtiruvchi operatsiya bilan almashtiriladi va shu bilan fikrlash mavhumlikning yuqori darajasiga o‘tadi, tobora ko‘proq ma’lumotga ega bo‘lgan belgilardan foydalaniladi.
Transfer darajasi	Bu bitta muammoni hal qilishda olingan ko‘nikmalarni boshqasini hal qilishda qo‘llash qobiliyati, umumlashtirilgan strategiyalarni ishlab chiqish qobiliyatidir.
Lateral fikrlash darajasi	Chetdan ma’lumotlardan foydalangan holda nostandart, noan'anaviy yechim yo‘lini ko‘rish qobiliyati.
Idrokning yaxlitlik darajasi	Haqiqatni bir butun sifatida, uni maydalamasdan idrok etish qobiliyati. Ijodiy ish jarayonida faktlarni kattaroq suratlarga sig‘dirishga harakat qilish uchun ularni mantiqiy ko‘rib chiqishdan voz kechish kerak.
Xotirani rivojlantirish darajasi	Obyektning xususiyatlarini esga olish va bu bilimlarni vazifa bilan bog‘lash qobiliyati. Bu xotiradan ma’lum informatsiyani va uni anglab mazmunini tushunish tezligiga ishora qiladi.
Tushunchalarning assotsatsion darajasi	Assotsatsiyaning qulayligi va ular orasidagi bog‘langan “semantik mazmunning” bog‘liqligi.
Tafakkurning o‘stirish darajasi	Bir hodisadan ikkinchisiga tez va oson o‘tish, mazmuni birinchisidan uzoqda. “Semantik masofalar” – insonning funksional qat’iyligi ta’sir qiladigan o‘zgaruvchan qiymat; turg‘unlikni yengish qobiliyati fikrlash moslashuvchanligining ko‘rinishlaridan biridir.
Aqlning moslashuvchan	Noo‘rin fikrlardan o‘z vaqtida voz kechish qobiliyati.

lik darajasi	
Harakatlarni baholash darajasi	Sinovdan oldin ko‘plab alternativlardan birini tanlash va uni baholash.
Differensial likni anglash darajasi	Qabul qilingan ogohlantirishlarni birlashtirish, yangi ma’lumotlarni oldingi shaxsiy tajriba bilan tezda bog‘lash, ularning o ‘zaro farqini aniqlash.
G‘oyalarni yaratuvchanlik darajasi	Inson qanchalik ko‘p g‘oyalar yaratsa, ular orasida yaxshi g‘oyalar ham shunchalik ko‘p bo‘ladi
So‘zlashuvdagi ravonlik darajasi	Yangi fikrni so‘z bilan ifodalash uchun shakllantirish qulayligi zarur. Shu bilan birga, uni tushunish ahamiyatga molik.
O‘z fikrlarini xulosalash darajasi	Bu nafaqat qat’iyatlilik, xotirjamlik va kuchli irodali munosabat, balki tafsilotlarni aniqlashtirish, asl g‘oyani rivojlantirish darajasidir.

Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirish tuzilmasining asosiy elementi bo‘lajak o‘qituvchilarda harbiy xizmat vazifalarini bajarishga sifatli tayyorgarlik ko‘rish uchun atrof-muhit to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘rganish, assimilyatsiya qilish, qayta ishlash va o‘zgartirish bilan bog‘liq tegishli faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradigan samarali ishlarni amalga oshirishdan iborat.

Tadqiqot jarayonining subyektlari tomonidan hal qilinadigan asosiy vazifalar uning strukturasi lokalizatsiya darajalariga qarab aniqlanishi kerak:

Dastlabki daraja: bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarida bilim, ko‘nikma va malakalarning yetarli salohiyatini yaratish, o‘z-o‘zini tarbiyalashda intellektualizatsiya va yaratuvchanlik namoyon bo‘lishi uchun zarur shart-sharoitlar sifatida; harbiy xizmat vazifalarini bajarishda mas’uliyat va ishonchni uyg‘otish.;

Asosiy daraja: bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarida analitik ma’lumotlarni to‘plash, tahlil qilish va harbiy faoliyatiyatning turli muammolarini hal qilish bo‘yicha ko‘nikmalarni ishlab chiqish; vizual – samarali fikrlash ko‘nikmalarni rivojlantirish;

Yakunlovchi daraja: bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ sifatlarini rivojlantirish o‘quv amaliyotning barcha shakllarida qo‘llab-quvvatlash.

Mazkur darajalarning subyektlari quyidagilardir: chaqiriqqacha harbiy ta’lim professor-o‘qituvchilari; O‘zbekiston Respublikasi ommaviy axborot vositalari; oliy ta’lim muassasasining rasmiy internet resurslari; bo‘lajak o‘qituvchilar

bo‘linmalarining o‘quv guruhlari; bo‘lajak o‘qituvchilarning oilalari va yaqin qarindoshlari.

Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilari kreativ sifatlarini rivojlantirishning asosiy usullari quyidagilardir: ta’lim yo‘nalishi usullari; amaliy usul; vizual usul (illyustratsiya, namoyish); og‘zaki usul (tushuntirish, hikoya, suhbat, brifing, ma’ruza, munozara); kitob bilan ishlash (o‘qish, o‘rganish, referanslash, tez ko‘rish, taklif qilish, taqdim etish, reja tuzish, xulosa); videometod (ko‘rish, o‘qitish, elektron nazorat ostida mashq qilish, nazorat qilish).

Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirishning tarbiyaviy yo‘naltirish usullari: ishontirish (aniqlash, isbotlash, rad etish, shaxsiy tajribaga murojaat qilish, boshqa odamlarning tajribasiga asoslangan ishontirish); mashq bajarish; boshqalarga namuna tariqasida ko‘rsatish; musobaqa uyushtirish; tanqidiy fikrlashni rivojlantirish; rag‘batlantirish.

Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarni rivojlantirishda mazkur usullar asosiy omillar sifatida xizmat qiladi. Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilari o‘rtasida kreativ sifatlarni rivojlantirish jarayoning maqsad va vazifalarini amalga oshirishning yetakchi shakllari: bo‘lajak o‘qituvchilarning ta’lim va xizmat ko‘rsatish jarayonining miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlarini pedagogik monitoring qilish; bo‘lajak o‘qituvchilar tomonidan umumharbiy nizomlarining (ichki xizmat nizomi, garnizon va qorovullik xizmati nizomi, ko‘riqlash xizmatining vazifalarini amaliy bajarish); harbiy ilmiy ishning turli shakllari (harbiy ilmiy doiralar, harbiy ilmiy konferensiyalar); davra suhbatlari; biznes o‘yinlari; ijodiy yondashuv va ustaqillikni talab qiladigan shaxsiy topshiriqlarni bajarish; badiiy havaskorlik; ijodiy tanlovlar (guruh shaxsiy tarkibida saf harakatlari va amallari, saf ko‘shiqlari tanlovi); professional mahorat tanlovlari; muzeylarga ekskursiyalar; devoriy gazetalar tayyorlashni o‘z ichiga oladi.

Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilari kreativ sifatlarini rivojlantirishning asosiy ta’limiy vositalari quyidagilar: bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilari turli hil ta’lim va harbiy-professional faoliyati (ichki xizmat, garnizon va qorovul xizmati, o‘quv ishlari, ta’lim ishlari, harbiy-ilmiy

ishlari); kreativ sifatlarni namoyon qiluvchi bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarini ma’naviy va moddiy rag‘batlantirish; bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilari dasturiy-uslubiy vositalar va kompyuterlashtirilgan axborot vositalari majmuasi bo‘lib, unda harbiy xizmatchilarning qaror qabul qilishda mustaqillik va ijodkorlikning yuqori darajasi namoyon bo‘lishini talab qiladigan jangovar va oddiy rasmiy vaziyatlarning real sharoitlarini ta’limiy jarayonda modellashtirishga imkon beradi; professor-o‘qituvchilarning kollektiv va individual harbiy-kasbiy va pedagogik-psixologik mahorati; chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka oshirish majmuasi bo‘lajak o‘qituvchilari jamoat kengashlari hisoblanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ sifatlarini rivojlantirish o‘qituvchi va talabalarning o‘zaro hamkorligiga, ularning shaxsiy va kasbiy fazilatlariga, o‘zi tanlagan o‘qitish usullariga, ko‘pincha o‘zi yaratishi kerak bo‘lgan o‘quv materiallariga bog‘liq, chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlarlikni tashkil etish va uni o‘qitish metodikasi fani mashg‘ulotlarida profeyesor-o‘qituvchilarning eng muhim vazifalaridan biri ijodiy fikrlashni rivojlantirish bo‘lib, u tafakkurning reproduktiv va divergent turlari bilan tavsiflanadi.

Pedagogik faoliyat eng dinamik faoliyatlardan biri bo‘lib, o‘quv jarayonidagi har bir lahza noyob, takrorlanmas, hatto mashg‘ulotning mazmunini interfaol metodlardan foydalangan holda tashkil etish tavsiya etiladi.

Demak, treningni tashkil qilishda biz amerikalik psixolog olim Ye.R. Torrance pozitsiyasini asos qilib olishimiz mumkin, “bu kreativ sifatlarni rivojlantiradi. Maxsus tashkil etilgan mashg‘ulotlar jarayonida erkinlik, moslashuvchanlik, o‘ziga xoslik va fikrlash murakkabligi kabi tarkibiy qismlar shakllanadi. Ammo buning uchun kreativ sifatlarni rivojlanishiga hissa qo‘shadigan muayyan sharoitlarni yaratish tavsiya etiladi”[177].

Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirish bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiyatida tavakkalchilik, fikr

[177] Torrance E.P. Scientific views of creativity and factors affecting its growth.https://www.cc.gatech.edu/classes/AY2018/cs4803cc_spring/research_papers/Torrance-Viewsofcreativity.pdf

mustaqilligi, impulsivlik, sinchkovlik, tanqidiy fikrlar, o‘ziga xoslik, tasavvur va fikrlarning teranligi, mehr tuyg‘usi, kreativlikka doimiy e’tibor, motivatsion va ijodiy faoliyat kabi xususiyatlar, kreativ sifatlar rivojlanishining eng yuqori darajasi bilan tavsiflanadi.

Pedagogik-psixologik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilari o‘rtasida kreativ sifatlarni rivojlantirishda o‘quv jarayonida ijodiy muhit yaratish uchun imkon yaratadigan talablar tizimiga tayanish zarur. Avvalo, bu o‘quv faoliyatini izlash va tadqiq qilish, amaliy muammolarni hal qilishda mustaqillikni rag‘batlantirish, bo‘lajak o‘qituvchilarning qat’iy tartibga solingan kundalik tartibida juda muhim bo‘lgan o‘qitishni tashkil etishga muammoli yondashuvdan keng foydalaniladi.

“Pedagogikada kreativ sifatlarni rivojlantirish o‘quv jarayoni bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi va voqelikni bilish va o‘zgartirishga, yangi xos mavzularni yaratishga qaratilgan ongli, faol inson faoliyati sifatida tavsiflanadi. O‘qitish va tarbiyalashning eng samarali usullarini izlashda, darsliklarni yaratishda, bilimlarni topishda” asosiy rol o‘ynaydi.

Jumladan, P.Drapeau “ta’lim jarayoniga nisbatan kreativ yondashishda nafaqat o‘quv fanlarini o‘zlashtirishda yuqori natijalarga erishayotgan, kreativ fikrlashda yaxshi natijalarni qayd etayotgan bo‘lajak o‘qituvchilarga, balki ko‘proq e’tiborni talab etadigan, ijodiy, kreativ fikrlash layoqatiga ega bo‘lmagan ta’lim oluvchilarga ham e’tiborni qaratishlari zarur”[178]-deya ta’kidlaydi.

Shuningdek, E.S.Afanaseva tomonidan berilgan ta’rif “bilim faoliyati tashqi nazorat va baholash asosida o‘qituvchi tomonidan maxsus berilgan o‘quv vazifalarini hal qilishda, o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘z-o‘zini hurmat qilish orqali, o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘z-o‘zini baholashni amalga oshirishda aqliy harakatlarning umumlashtirilgan usullarini hamda bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘z-o‘zini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi”[179].

[178] Drapeau P. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. pp 16.
[179] Афанасева Е.С. Педагогические пути повышения эффективности познавательной деятелности курсантов военных вузов в ходе изучения гуманитарных диссиплин: дис канд.пед. наук. М, 2011. 278 с.

Ye. F. Kolomiyetsning fikricha “har bir talabadagi kreativ sifatlarning rivojlanishi individual hisoblanadi. Kreativ sifatlarning rivojlanishining sistemallik faktori ta’limning ijtimoiylashuvi bo‘lib hisoblanadi. Kreativ sifatlarning dastlabki ko‘rinishlari har bir insonga xos xislatlardir. Biroq, u o‘sayotgan, tarbiyalanayotgan, ta’lim olayotgan muhitdagi turli xil ta’qiqlab, ijtimoiy shablonlar, ijodiy faoliyatning blokirovka (yopilish)siga olib keladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ sifatlarni rivojlantirish uchun psixologik bosimlardan ozod qilib, ijobiy turtki berish lozim. Bunda yetakchi rolni nafaqat bilimlar hajmi, balki ularning tizimliligi, aniqligi, harakatchanligi ham bajaradi. Bilimlarning boshqarilishi va harakatchanligi, ishlab chiqarish sharoitlariga moslashuvi bitiruvchini amaliy faoliyatga yaroqli qiladi”[180]-deb hisoblagan.

Pedagogika fanlari doktori professor A.Xoliqov esa “o‘qituvchining muloqoti kasbiy-ijodiy kategoriya bo‘lib, pedagogik faoliyatda o‘qituvchi tomonidan ko‘plab kommunikativ vazifalarni hal qilish jarayoni va ijobiy natijalar majmuasidir”[181]-digan fikrni bildiradi

Harbiy ta’limga innovatsion yondashuv masalasida turli yondashuvlar mavjud. Bir yondashuvda o‘qitish texnologiyalari o‘qitishning barcha vositatalarini qamrab olgan qandaydir jihozlash sifatida ham belgilanadi. Unda texnologiya o‘quv jarayonini texnikalashtirishni taqozo qiladi.

Boshqa yondashuvda texnologiya ta’lim amaliyotini yangi yoki zamonaviylashtirilgan bilimlar bilan ta’minlashning usuli sifatida qarashga imkoniyat beradi. Bunda texnologiya ta’limning ilmiy tamoyillari va amaliyotini tadbiq etish sifatida qaraladi. Harbiy ta’limni o‘qitish jarayoniga yangi pedagogik innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalasiga esa ikki xil yondashuv bilan qarash harbiy mashg‘ulotlarning olib borish prinsiplariga zid kelmaydi.

Birinchi yondashuvda fan mashg‘ulotlarining samaradorligi nafaqat yangi pedagogik innovatsion texnologiyalarni qo‘llanishiga, balki O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumharbiy Nizomlari talablari, shuningdek

[180] Коломиес Е.Ф. Когнитивниэ аспекти современного исследования креативности Ананевские чтения, 2009. С.201-202.
[181] Xoliqov A. “Pedagogik mahorat” Toshkent “Iqtisod moliya” 2011-yil. 79-80 bet.

bevosita o‘quv-moddiy baza, moddiy ta’minot, o‘quv qurol va tabel buyumlar bilan ta’minlanganligi hamda mashg‘ulot rahbarining tayyorgarlik darajasiga, bog‘liq,- deb qaraladi.

Ikkinchi yondashuvda o‘qitish jarayonini loyihalashtirilgan holda izchil va muntazam tashkil etish deb talqin qilinadi. Harbiy ta’limni o‘qitish jarayoni mantiqiy ketma-ketlik bilan aniq amalga oshiriladi. Ketma-ketlik quyidagi bosqichlardan iborat: bo‘lajak o‘qituvchilar oldiga topshiriq qo‘yish; bilimga bo‘lgan qiziqishni hosil qilish; yangi ma’lumotlarni qabul qilish; olingan bilimlarni tahlil qilish va umumlashtirish; ilmiy tushunchalarga ega qilish; yangi qonunlarni o‘zlashtirish; olingan bilim, alaka va ko‘nikmalarni tekshirish; ta’lim-tarbiya bo‘yicha natijalarni tahlil qilish vositasida asoslanadi.

Hozirgi kunda ta’lim muassasasining turidan qat’iy nazar, mashg‘ulot rahbarining kreativligi ta’lim muassasasi pedagogikasining bosh muammolaridan biridir. Chaqiriqqacha harbiy ta’lim muassasalari bo‘lajak o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirish, innovatsiyaning ijtimoiy-madaniy va hayot faoliyatini asosiy omillaridan deb qaralmoqda. Zamonaviy darsga qo‘yiladigan tarbiyaviy, psixologik, gigiyenik, didaktik talablar bilan birga interfaol metodlar va zamonaviy yondashuvlarni puxta egallagan bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlashni talab etmoqda.

Texnik taraqqiyot ishlab chiqarish sohasi bilangina cheklanib qolmay, ta’limning barcha sohalariga ham kirib kelishi, axborotlar hajmining keskin ko‘payishi, fan va texnika taraqqiyotining keskin o‘sishi, ayniqsa, raqibni aniqlash tizimi masofadan avtomatik boshqariluvchi datchiklar, retranslyatorlar va axborotni qayta ishlash markazlari jihozlanib bo‘lgan bir davrda harbiy ta’lim tizimini asosiy omili bo‘lgan mashg‘ulotni mazmunan isloh qilish hamda mashg‘ulot rahbarining kreativ sifatlarini yuksak darajada takomillashtirish talabini qo‘ymoqda.

Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilari harbiy hisob raqamiga bo‘yicha “motoo‘qchi guruh komandiri”, shuningdek, umumiy o‘rta ta’lim maktablari, akademik litsey va professional ta’lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik rahbari mutaxasisliklariga ega bo‘ladilar. Ana shunday

mutaxasislikka ega bo‘layotgan bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirish, nostandart qarorlarni qabul qila olish imkoniyatlariga ega bo‘lish, ta’lim jarayonining muhim bo‘lgan vazifalaridan biridir.

Harbiy kadrlarni tayyorlashda majburiy harbiy fanlar qatori ijtimoiy fanlarning, jumladan, harbiy pedagogikaning ham ahamiyati beqiyosdir. Chunki o‘z bo‘ysunuvchilarga ta’lim-tarbiya berish bo‘yicha yetarli bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lmay turib zamonaviy talablarga javob beruvchi harbiy mutaxassisni tayyorlash ishini samarali amalga oshirish mumkin emas.

Demak, bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kelajakda professional mutaxassis sifatida yuqori kreativ sifatlarni rivojlantirish talab qilinadi, bu eng avvalo mustaqil tanlov, yangi narsalarni kashf etish paytlarida, bilimlarni boshqa holatlarga o‘tkazish qobiliyatida, asl, nostandart muammolarni hal qilishda namoyon bo‘ladi.

Monografiyada ijtimoiy, ilmiy, texnik va madaniy rivojlanishning dinamikasi va murakkabligi, insoniyat oldida turgan muammolarning favqulodda o‘zgaruvchanligi bilan ajralib turadi. Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilari uchun yuqori kasbiy tayyorgarlik va intizom yetarli emas, ular keng umumiy ma’lumot va maxsus bilimlarni, texnik va tashkiliy va psixologik muammolarni ijodiy hal qilish sifatlarini talab qiladi. Mavjud bilimlarga asoslanib, o‘zgaruvchan muhitda tezda to‘g‘ri qarorlarni qabul qilishi, ularning oqibatlarini vaqt nuqtai nazaridan bashorat qilishi kerak.

Mazkur vazifalarni talab darajasida amalga oshirishda bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilari quyidagi fazilatlarga ega bo‘lish talab etiladi: topqirlik, o‘z-o‘zini tanqid qilish va tanqidiylik, moslashuvchan fikrlash, mustaqillik, fikr-mulohazalar, jasorat va g‘ayrat, matonat, ishni oxirigacha yetkazishda matonat, maqsadga muvofiqlik. Kreativ sifatlarini rivojlantirish bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining o‘quv jarayonida, ularni mustahkamlash shakllantirish masalalari malakaviy amaliyot jarayonida amalga oshirilishi aniqlandi.

2.2. Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirish modeli

Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi jarayonida ularning kreativ sifatlarini rivojlantirishning ishlab chiqilgan tarkibiy modeli ochiq, yaxlit va dinamik rivojlanayotgan tizimlardan biri bo‘lib, quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topgan: maqsadlar, vazifalar, talabalarni ijodiy qobiliyatga yo‘naltirish tamoyillari, ushbu vaziyatlarga ta’sir qiluvchi omillar, ta’lim mazmuni, rivojlanish shakllari, usullari, vositalari, kreativ fikrlashning shakllanish bosqichlari va natijasi bilan bog‘liq.

Model oliy ta’lim tizimidagi harbiy ta’lim fakultetlarining o‘ziga xos xususiyatlariga muvofiq muammoli ta’lim texnologiyalarining tarkibiy qismlarini taqdim etadi. Maqsadni belgilash kabi komponent nafaqat modellashtirish jarayonida asosiy ahamiyatga ega, balki kelajakdagi texnologiyaning asoslarini belgilaydi.


D.Sh. Djurayevaning fikricha, “bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ sifatlarini rivojlantirish maqsadlari belgilanadi: davlat ta’lim standarti bo‘lajak o‘qituvchilar va malaka talablari hisobga olinadi; umumiy va har bir alohida intizom bo‘yicha o‘qitishning maqsad va vazifalari; shaxsiy xarakterdagi shaxsiy motivlar va ehtiyojlar ham hisobga olinadi, bu mantiqan butun jamoaning ijtimoiy ahamiyatga ega maqsadlari va qadriyatlarini jalb qilishni talab qiladi”[182].

Harbiy mashg‘ulotlar jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ sifatlarini rivojlantirish uchun muammoli ta’limning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarur bo‘lib, bunda asosiy e’tibor muammoli yondashuvdan foydalanish modelining ta’lim oluvchilar kreativ sifatlarini rivojlantirishdagi ahamiyatiga qaratilgan. Muammoli ta’lim pedagogik-psixologik mazmundagi masalalarni modellashtirish orqali yechishga asosiy e’tibor qaratishni taqozo etadi. Aynan muammoli vaziyatlarni modellashtirish o‘qitishning negizini tashkil etishi va ta’lim oluvchilar kreativ sifatlarini rivojlantirishga xizmat qilishi zarur.

[182] Djurayeva D.Sh. “Muammoli yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish” Des. fal dok (PhD). 2022. B. 16.

Model (fr. Mode. Modulus “ o‘lchov, analog, namuna”)-o‘rganish, ayrim obyektlar haqida ma’lumot olish uchun mo‘ljallangan vosita bo‘lib, bilim obyektlarini o‘z modellari bo‘yicha o‘rganish, ushbu hodisalarga tushuntirishlar olish, shuningdek tadqiqotchilarni qiziqtirgan hodisalarni bashorat qilish uchun real hayot obyektlari, jarayonlari yoki hodisalari modellarini ko‘rish va o‘rganish. Modellashtirish – bu boshqariladigan vazifadir, chunki model savollar yoki muammolarni yechimiga qaratilgan[183].

J.P.Guilford fikrlashni yagona to‘g‘ri yechimga qaratilgan konvergent bilan taqqoslab, u “intellekt strukturasi modelini”, ya’ni “ISM” ni taklif etadi. Uning modeli asosida “reaksiya”, “operatsiya”, “mazmun”, “natija” intelekt strukturasi modelini yaratgan[184].



2.1-rasm. J.P.Guilfordning intellekt strukturasi modeli.

[183] O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 6-jild. – Toshkent, O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2003. – 704 b.
[184] Guilford J. P. Creative Talents. https://www.amazon.com/Creative-Talents-Their-Nature-Development/dp/0943456150.

Bo‘lajak o‘qituvchida “model” haqidagi boshlang‘ich tasavvurlarni shakllantirish uchun o‘qituvchi quyidagi “o‘lchov”, “namuna”, “obyektning o‘rin almashtiruvchi” tushunchalari jarayonida ham mazmunli, ham faoliyatli konponentlar shakllantiriladi. Bu o‘qitish jarayonining xususiyatlariga mos keladi.

Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining o‘quv faoliyatlarini tashkil qilish hamda uning samaradorligini ta’minlash quyidagi ishlab chiqilgan talablar asosida amalga oshirildi: maqsadga yo‘naltirilganlik; tizimlilik; refleksivlikdan iborat bo‘lib, bunday bo‘lajak o‘qituvchilarning ta’lim oluvchilarda muammoli ta’limning kelgusi kasbiy faoliyatida zarurligini anglab olishini ta’minlaydi.

Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarida pedagogik-psixologik mazmundagi masalalarni yechish modellarini yaratish ko‘nikmalarini rivojlantirish tamoyillari va usullariga asoslangan holda, biz amaliy mazmundagi muammoli vaziyatlar va ularni turli mashg‘ulotlarda hal etishga qaratilgan interfaol metodlarni ishlab chiqdik.


Ushbu metod bir tomondan muammoli vaziyatlarda modellashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilsa, boshqa tomondan esa ta’lim oluvchilarning motivlashgan kreativ sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Eng muhimi, kreativ elementlari deyarli barcha bosqichlarda ishtirok etishi shart. Tadqiqotimizda bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ sifatlarini rivojlantirishda biz “bilish va motivatsion faktorlarning birligi” tamoyiliga asoslanamiz.

Bunda biz ta’limdagi motivatsion va bilish jihatlarining quyidagi ketma-ketligini taklif qilamiz: real va sun’iy muammoli vaziyatlarni hosil qilish; qiziquvchanlik uyg‘otish; yangi taassurotlarga ehtiyoj hosil qilish; izlanishlarga ehtiyoj hosil qilish; qarama-qarshiliklarni yechishga ehtiyoj uyg‘otish; muammolarni yechimini topish jarayonini tashkil qilish; haqiqatni izlashga ehtiyoj hosil qilish; nazariy xulosalarni shakllantirishga imkon yaratish.

O‘qitish jarayonida bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarning o‘quv-ijodiy faoliyatini muammoli xarakterdagi vaziyatlarni modellashtirish

elementlaridan foydalangan holda tashkil etishni quyidagiga mos ravishda o‘tkazishni taklif etamiz.

O‘quv-ijodiy faoliyatni muammoli xarakterdagi vaziyatlarini modellashtirish elementlari (2.2-rasm) da yoritilgan.



2.2-rasm. O‘quv-ijodiy faoliyatni muammoli xarakterdagi vaziyatlarni modellashtirish elementlari

Modellashtirish jarayonini nazorat qilish ko‘nikmasi quyidagilardan iborat: bo‘lg‘usi faoliyat maqsadlarining mohiyatini tushunish, o‘z faoliyatining maqsadlarini qo‘yish; ma’lumotlar yetarli bo‘lmagan, ortiqcha bo‘lganda yoki ziddiyatli bo‘lgan sharoitlarda ham modelni shakllantia olish; taklif qilingan reja asosida ishlash, qo‘yilgan muammoni yechishning turli metodlarini taqqoslash, modelni tuzish bo‘yicha o‘z shaxsiy faoliyatini rejalashtirish; muammoli vaziyatlarni hal qilishning interfaol metodlarini qo‘llay olish; muammoli vaziyatlarni hal etish jarayonida qo‘llanilgan metodlar natijalarini taqqoslay olish; modellarni yaratish bo‘yicha xatti-harakatlarning natijalarini bashoratlash; modelni

shakllantirish davomida ma’lum bir og‘ishlarni ko‘ra olish va uni yuzaga keltirgan muayyan sabablarni aniqlay olish qobiliyati.

O‘quv-ijodiy faoliyatni muammoli xarakterdagi vaziyatlarini modellashtirish elementlarida yoritilgan. Muammoli vaziyatlarni modellashtirishga o‘rgatish bo‘lajak o‘qituvchilarning intellektual resurslarni rivojlantiradi, ularda shakllangan kognitiv ko‘nikmalarning boshqa sohalarga (jarayonlarga) ko‘chirib qo‘llash muammosini hal qiladi. Bu yerda gap faqat fanlararo integratsiyani rivojlantirish bilan birga talabalarning intellektual rivoji haqida bormoqda.

Ta’lim jarayonining maqsadi nafaqat dasturni o‘zlashtirishdan iborat bo‘lmay, balki interfaol metodlar (mashq va usullar) yordamida ta’lim oluvchining individual imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat. Ta’lim oluvchilarni modellar yaratishni o‘rgatishda ular, avvalo, faoliyat usullariga o‘rgatilishi zarur. Bu esa shaxsning intellektual rivojlanishiga xizmat qiladi.

Monografiyamizda bo‘lajak o‘qituvchilarga muammoli ta’limdan foydalanish modelini tuzishning metodik jihatlarini takomillashtirish shundan iborat bo‘ldiki, bu bosqichda yuqorida qayd etib o‘tilganlardan tashqari pedagogik-psixologik mazmundagi muammolarni yechishda interfaol metodlar va axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan to‘la foydalanish zarurligiga ishonch hosil qildik.

Psixologik tahlillarga asoslangan holda shunday xulosaga kelish mumkinki, “muammoli ta’lim asosida o‘quv faoliyatini pedagogik boshqarish aqliy faoliyat, evristik usullar bilan bog‘liq bo‘lgan holda rivojlantirilishi, ta’lim oluvchilar tomonidan mustaqil tarzda savollar tuzish va ularni bir necha usullar yordamida o‘rgatishga alohida e’tibor berilishi kerakligi bilan asoslidir.

Mustaqil ravishda bilimlar va faoliyat usullarining yangi vaziyatga ko‘chirilish, bu – kreativ faoliyat belgisidir. Chunki bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘zlashtirilgan bilimlarni qo‘llashga o‘rgatish ularning kreativ sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi”[185].

[185] G‘oziyev E. Umumiy psixologiya. O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati. – T.; 2010.

Tadqiqotlarni o‘rganish natijasida shuni ta’kidlashimiz mumkinki, yuzaga keladigan muammoli vaziyat o‘qitishning turli strategiyalarini qo‘llashni taqozo etadi.

Birinchi holatda bunday strategiya “ta’lim oluvchilar tomonidan (mashg‘ulot rahbari yordamida) ushbu guruhga tegishli barcha muammolarni hal etishda umumiy usulni topishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak”.


Ikkinchi holatda esa “xususiy ahamiyatga ega va yechimi avvaldan ma’lum usullar asosidagi o‘sha tipga tegishli muammolarni hal etishga o‘rgatadi”.

Uchinchi holatda esa “muammolar yechimini izlashga o‘rgatishga” qaratilgan bo‘lishi lozim.

Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni tashkil etish va uni o‘qitish metodikasi fanini o‘qitishda muammoli ta’lim o‘quv faoliyatiga motivatsiya va ta’lim oluvchilar faoliyatini rivojlantirishdagi ahamiyatli vosita hisoblanadi, shuning uchun bo‘lajak o‘qituvchilarda asosiy bilimlar tizimini rivojlantirishda, malakani orttirishda, ko‘nikmalar paydo bo‘lishida muhim o‘rin tutadi.

Ilmiy tadqiqot ishlari tahlili va kuzatuvlar jarayonida bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarini muammoli ta’lim asosida kreativ sifatlarni rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirishning modeli funksional mavjud bo‘lgan uchta tuzilmani o‘z ichiga olishi aniqlandi. Davlat ta‘lim standarti va malaka talablaridan kelib chiqib muammoli ta’lim asosida talabalarning kreativ sifatlarini rivojlantirishni qamrab oladi.

Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi: tashkiliy va diagnostik (tayyorgarlik) – bu bo‘lajak o‘qituvchilarning boshlang‘ich kreativ darajasini aniqlash; bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarning kreativ sifatlarini rivojlantirishning maqsad va vazifalarini aniqlash; harbiy tayyorgarlik jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ sifatlarini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish; harbiy tayyorgarlik jarayonida samarali ishlash uchun zarur bo‘lgan tashkiliy va pedagogik sharoitlarni yaratishdan iborat.



2.3-rasm. Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirish modeli

Modelning samarali komponenti bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi jarayonida kreativ sifatlarni rivojlantirish darajasi dinamikasini aks ettiradi. Pedagogik jarayon tuzilmasi: pedagogik shart-sharoitlar, mazmun jihatdan bo‘lajak o‘qituvchilarning muammoli ta’lim metodlarini qo‘llash usulini o‘zlashtiradilar, bunda sun’iy va real vaziyatlardan foydalaniladi.

Ish shakli jihatdan esa ta’lim oluvchilarning kreativ sifatlarini rivojlantirish yo‘llarini izlash sharti frontal, guruhli, individual, juftlikda ishlash sharoitlarida amalga oshiriladi. Vositalarda muammoli yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilar bilan muloqot qobiliyatini rivojlantirish, tarqatma materiallar audio vizual texnik vositalari, mustaqil ta’limda va AKT, internet tarmoqlari orqali qamrab olinadi.

Modelda bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ sifatlarini rivojlantirishning yangilikni his qilish, tanqidiylik, ijodiylikka yo‘nalganlik, metodlarini o‘zgartirish qobiliyati mezonlari asosida ishlab chiqiladi.

Rivojlanish darajalari: Yuqori, o‘rta, past darajalar bilan belgilanadi. Demak, muammoli ta’lim asosida bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlari rivojlantiriladi. Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining mumkin qadar ko‘proq muammoli ta’lim metodlarini qo‘llashga intilishi va biroq bilim sifatiga e’tibor bermasligi, ko‘nikma va malakalarni talab darajasida rivojlantira olmasligiga olib keladi.

Muammoli ta’lim, metodlarini qo‘llash, bo‘lajak o‘qituvchilarning metodlarni tanlash jarayoniga e’tibor qaratishida namoyon bo‘ladi. Ta’lim oluvchilar ko‘pchilik holatlarda qo‘llanilgan metodlarni natijasini tanqidiy baholashni bilmaydilar. Ta’lim oluvchilarga metodlarni qo‘llash bilan olingan natijalarni sotishtirib ko‘rishi lozim bo‘lgan rivojlantiruvchi metodlarni birin-ketin tavsiya etishadi. Yechim natijasi ijobiy bo‘lganda ta’lim oluvchi metodlarni tanlash va qo‘llash ustida ishlashni to‘xtatadi.

Pedagogik-psixologik mazmundagi muammoli ta’lim metodlarini qo‘llashning bosqichlar bo‘yicha qiyosiy tahlil jadvali

2.2-Jadval

Muammoli metodlarni qo‘llash bosqichlari	Muammoli ta’lim metodlarini tanlash va qo‘llash bosqichlarida bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ sifatlarni rivojlantirish usullarini egallashlari uchun zarur bo‘ladigan asosiy bilim, ko‘nikma va malakalar tizimi.
1. Muammoli ta’lim metodlarini ta‘lim jarayoniga qo‘llashga doir mazkur fanning mazmuni bilan tanishish bosqichi	“Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni tashkil etish va uni o‘qitish metodikasi” fani haqida bilimlarni egallash uchun kerakli bo‘lgan barcha manbalarni (sohaga doir barcha huquqiy hujjatlar)ni bilish, o‘zlashtirish va ular bilan chuqur tanishish kerak. O‘rganish jarayonida muammolarni tahlil qilishga shoshilmang.
2. Muammoli ta’lim metodlari bilan tanishish bosqichi	Ma’lumotlarni yana bir marotaba diqqat bilan o‘qib chiqing. Siz uchun muhim bo‘lgan satrlarni belgilang. Bir xatboshidan ikkinchi xatboshiga o‘tishdan oldin, uni ikki uch marotaba o‘qib mazmuniga kirib boriladi. Muammoli vaziyat yuzasidan muhim fikrlarni belgilab qo‘ying. Vaziyat tavsifida berilgan asosiy tushuncha va iboralarga diqqatingizni qarating.
3. Muammoli ta’lim metodlarini tahlil qilish bosqichi	Asosiy muammo va kichik muammolarga diqqatingizni qarating. Quyidagi savollarga javob berishga harakat qiling: “CHQBTni o‘qitish metodi”. 1. CHQBTni o‘qitishda metodlarni saralashda nimalar e’tiborga olinmadi? 2. CHQBTni o‘qitishda samarali metodlarni tanlashda qanday omillarga e’tiborni qaratish kerak? 3. Samara beradigan interfaol metodlarni qo‘llash uchun qanday harakatlarni amalga oshirish zarur?
4. Muammoli vaziyatni hal etish usul va vositalarini tanlash, asoslash bosqichi	Muammoli ta’lim metodini qo‘llash uchun barcha shart-sharoitlarni ko‘rib chiqing, samara beradigan metodni tanlang. Interfaol metodlardan tanlab oling, samara beradigan metodni sharxlang. Jadvalni to‘ldiring. Ish natijalarini yozma shaklda ilova qiling.

Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining interfaol ta’lim metodlarini qo‘llashda aqliy faoliyatning umumlashgan usullarini qo‘llash va ta’lim oluvchilarni mustaqil ravishda metodlarni saralashga o‘rgatib borish ijobiy samaralar beradi. Muammoli metodlarni qo‘llash Pedagogik-psixologik mazmundagi muammoli ta’lim metodlarini qo‘llashning bosqichlar bo‘yicha qiyosiy tahlil jadvali.

A.Yu.Sotvoldiyevning fikricha, “harbiy ta’limning o‘ziga xos tomonlari, uning amaliy mashg‘ulotlarida foydalaniladigan tushuntirish, ko‘rsatmalilik, mashq qilish singari metod va usullar hozirgi kunda ham amalda muvaffaqiyatli qo‘llanmoqda, shuningdek harbiy ta’lim mashg‘ulotlari nazariy, amaliy, ko‘rgazmali, taktik, taktik-saf, nazorat shakllaridan iborat ekanligi, ularning

aksariyat qismi amaliy bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Nizomlari talablariga binoan olib borilishi, otish tayyorgarligi mashg‘ulotlarini tashkil etish va olib borilishida o‘quv va jangovar qurollar bilan ishlash bo‘yicha ko‘rsatma va yo‘riqnomalar talablariga qat’iy amal qilinishi, shuningdek mashg‘ulotlarning aksariyat qismi o‘quv-moddiy bazalar bilan chambarchas bog‘liqligi, harbiy ta’lim mashg‘ulotlarining o‘ziga xos tomonlarini namoyon etadi. Nazariy bilimlar, amaliy mashg‘ulotlar orqali dala o‘quv maydonlarida jangovar o‘quv-faoliyatida bajariladigan mashqlar, haraqatlar va amallar bilan mustahkamlanib nazoratdan o‘tkazilib boriladi[186].

Harbiy ta’limdagi o‘ziga xosliklar tufayli, harbiy ta’limdan dars beruvchi ayrim ofitser, professor-o‘qituvchilar tomonidan harbiy ta’limda interfaol metodlarni qo‘llashga hojat yo‘qligini ta’kidlashib, harbiy ta’limdagi an’anaviy metodlardan voz kechmaslik lozimligini uqtiradi, lekin bu fikrni bir tomonlama aytilgan deb hisoblash kerak.

Chunki harbiy ta’lim ham o‘qitiladigan qator fanlar kabi metodik va texnologik tomondan rivojlantirilishi davr talabi bo‘lib qolaveradi. Harbiy mashg‘ulotlar jarayonida ham ta’lim texnologiyalarini va interfaol metodlarni qo‘llab mashg‘ulotlarni tashkillashtirish yuqori natijalar berib kelmoqda”[187].

Bizning fikrimizcha, harbiy ta’lim mashg‘ulotlarida muammoli ta’lim metodlaridan foydalanish ularning ijodkorligini rivojlantiradi. Shu tufayli bu metodni harbiy ta’lim uchun ham moslashtirish ko‘p jihatdan o‘rinli sanaladi. Ma’lumki, muammoli ta’lim metodi yaxlit axborotli majmualardan tashkil topgan bo‘lib, aniq vaziyatlarni muammo orqali tahlil qilish, ijodiy fikrlash va to‘g‘ri qaror qabul qilish kabi hislatlarni rivojlantiradi va natijada bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ sifatlari rivojlanadi.

60112000 – “Chaqiriqqacha harbiy ta’lim” ta’lim yo‘nalishida ta’lim olayotgan bo‘lajak o‘qituvchilarni harbiy mutaxassislik bo‘yicha harbiy tayyorgarligiga mo‘ljallangan oliy ta’lim muassasalari bo‘lajak chaqiriqqacha

[186] Sotvoldiyev A.Y. Chaqiruvga qadar harbiy ta’limni tashkil etish va uni o‘qitish metodikasi. T.: Aloqachi. 2010. B. 68-69.
[187] Sotvoldiyev A.Y. Chaqiruvga qadar harbiy ta’limni tashkil etish va uni o‘qitish metodikasi. T.: Aloqachi. 2010. B. 68-69.

harbiy ta’lim o‘qituvchilari tarkibidan zaxiradagi va rezervdagi ofitserlarni tayyorlash dasturining “Taktik tayyorgarlik”, “O‘t ochish tayyorgarligi”, “Harbiy topografiya”, o‘quv fanlari dasturlari talablaridan kelib chiqqan holda harbiy ta’lim mashg‘ulotlarini turli interfaol metodlar va o‘qitish texnologiyalariga asoslanib tashkil etilishi darslarni sifat va samaradorligini oshiradi va bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantiradi.

Masalan, “Taktik tayyorgarlik” ning nazariy (ma’ruza) mashg‘ulotlaridan “Bo‘linmalarni turli jang turlarida (jangovar harakatlar) boshqarish”, “Motoo‘qchi (tank) bo‘linmalarini mudofaa jangini tashkil etish va olib borish asoslari” va dushman ustidan g‘alaba qozonishga qaratilgan jangovar va taktik vazifalarni yechishga doir muammoli vaziyatlarni yechishda muammoli metodni o‘quv mashg‘ulotiga ajratilgan vaqtning hajmiga qarab ushbu metodlardan foydalanish natijasida o‘quv mashg‘ulotini oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishish samara beradi.

Biz bo‘lajak o‘qituvchilar kreativ sifatlarini rivojlanishtirish maqsadini amalga oshirishga alohida e’tibor beramiz, chunki faqat bu holda model mavjud bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bunday holatlarda kreativ sifatlarni rivojlantirish maqsadi, umumiy va maxsus moyilliklar va kreativ sifatlar modelning boshqa subyektlari tomonidan taqdim etilgan maqsad va vazifalar ta’siri ostida ham, shaxsning motivlari, ehtiyojlari, qadriyat yo‘nalishlari, niyatlari va maqsadlari ta’siri ostida ham amalga oshirilishi mumkin. Kreativ sifatlarni rivojlantirish jarayonida inson faoliyatining barcha jihatlari to‘planadi.

Natijada, maxsus faoliyatning o‘ziga xos turida, kreativ sifatlarni rivojlantirishda mujassam bo‘lgan reja tug‘iladi, kelajakda ushbu reja ijodiy o‘zini namoyon qilish darajasiga qarab takomillashadi. Ijodiy jarayon natijasida erishilgan darajaga qarab, maqsadni belgilash bosqichida biz tomonimizdan amalga oshirilgan moyillik va umumiy qobiliyatlarni birlashtirish va rivojlantirish uchun imkoniyat ochiladi.

Maqsadni amalga oshirishga biz individual va kasbiy darajadagi vazifalarga ajratadigan tadqiqotda belgilangan vazifalarning butun to‘plami yordam beradi. Shaxsiy darajadagi asosiy vazifalar: bo‘lajak o‘qituvchilarga haqiqiy rivojlanish

zonasini kengaytirishda yordam berish; bo‘lajak o‘qituvchilarga ularning kreativligini rag‘batlantiradigan shaxsiy xususiyatlarni amalga oshirishda yordam berish; o‘z xulq-atvorining moslashuvchanligini oshirish yo‘llarini topishni o‘rganish.

Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarning kreativ sifatlarini rivojlantirish qonuniyatlariga quyidagicha yondashish maqsadga muvofiqdir: Qurolli kuchlarimizda amalga oshirilayotgan islohatlar, Qurolli Kuchlarimizni modernizatsiya qilish va chaqiriqqacha harbiy ta’lim tizimini takomillashtirish orqali bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarıınıng kreativ sifatlarini rivojlantirish; harbiy ta’lim fakultetlarida tegishli tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar mavjudligi bilan bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ sifatlarini rivojlantirish jarayonining samaradorligini aniqlash; kreativ sifatlarni rivojlantirish shakllari, usullari va texnologiyalarini uning, asosiy omillari bilan o‘zviy bog‘liqligi; bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarıınıng kreativ sifatlarini rivojlantirish jarayonida samaradorlikning darajasiga bog‘liqligi; etnotolerantlikni shakllantirish jarayoni bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarning individual va shaxsiy xususiyatlariga bog‘liqligi, uning motivatsiyasi, o‘z-o‘zini takomillashtirish.

Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarning kreativ sifatlarini rivojlantirish modelining asosiy tamoyillari: oliy ta’limda kasbiy tayyorgarlikni insonparvarlashtirish tamoyili jamiyat va shaxs maqsadlarini birlashtirish zarurligini ifodalovchi ta’limning yetakchi tamoyili bo‘lib, umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligini va bo‘lajak o‘qituvchilarning erkin holatda rivojlanishini belgilaydi;
fanlararo integratsiya tamoyili akademik fanlarning birligini nazarda tutadi (psixologiya, pedagogika, falsafa va mutaxasislik fanlari) bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ sifatlarini rivojlantiradi; yaxlitlik tamoyili – kasbiy tayyorgarlikning barcha tarkibiy qismlari birligini ta’minlaydi (o‘quv jarayoni, harbiy tayyorgarlik va o‘quv ishlari); modellashtirish tamoyili – kreativ sifatlarni rivojlantirish jarayonining real harbiy-ahloqiy, kasbiy va xizmat ko‘rsatish muammolarini aks ettiruvchi vaziyatlar modellari bo‘lishi kerakligiga asoslanadi; propedevtika tamoyili o‘qitishning

proaktiv xususiyatini amalga oshirishni, bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kelajakda o‘z kasbiy faoliyatida sodir etishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarni muhokama qilishni nazarda tutadi; maqsadga muvofiqlik, uzluksizlik va intensivlik tamoyili bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi yo‘nalishini, mantig‘ini va ketma-ketligini belgilaydi.

Kreativ sifatlarni rivojlantirish faqat o‘quv materiali ma’lum bir tizimda o‘rnatilishi mumkin. Tizimlashtirilgan bilimlar bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarning kelajakdagi kasbiy vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishi uchun zarurdir. Bo‘lajak o‘qituvchilarning harbiy kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirishi uchun ma’lum bir mavzu bo‘yicha bilimlar, nafaqat jangovar tayyorgarlikning ma’lum bir mavzusi haqida yaxshi o‘rganilgan ma’lumotlar, balki amaliy ishdagi muammolarni ijodiy hal qilishga yordam beradigan kasbiy bilimlar to‘plami ham kerak.

Ushbu tamoyil bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarini sifatli tayyorlash uchun zarur bo‘lgan tashkiliy-pedagogik sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi: interfaol uslublarni ishlab chiqish va joriy etish; bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatiga qo‘yiladigan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Nizom talablarini og‘ishmay bajarishdagi yo‘l qo‘yiladigan individual xato va kamchiliklarni tahlil qilish va ularni tuzatishga choralar ko‘rish; bo‘lajak o‘qituvchilarning harbiy kasbiy tayyorlash nazariyasi va amaliyotiga inovatsion yondashish; o‘zini oqlamay qo‘ygan pedagogik g‘oyalar, qarashlar va tushunchalardan voz kechish tushuniladi.

Bu tamoyil o‘qitishda mavjudlik va tegishli intensivlikning asosiy pedagogik qoidalarini aniqlashtiradi: ma’lumdan noma’lumga o‘tish; kamroq qiyindan maksimal qiyingacha; murakkabdan o‘ta murakkabgacha. Bunga quyidagi talablarni bajarish orqali erishiladi: bo‘lajak o‘qituvchilarning intellektual imkoniyatlarini, bo‘lajak o‘qituvchilarning tayyorgarlik darajasini, ularning aqliy va jismoniy rivojlanish darajasini hisobga olgan holda o‘quv materialini tanlash, guruhlash va taqdim etishni ta’minlash; har bir darsda bo‘lajak o‘qituvchilarning maksimal kuch talab qiladigan muhit yaratish; jismoniy mashqlar o‘quv materialining uni o‘rganish

uchun ajratilgan vaqt miqdoriga muvofiqligini qat’iy nazorat qilish; darslarni o‘tkazishga jalb qilingan har bir professor-o‘qituvchining puxta nazariy va amaliy tayyorgarligini ta’minlash; onglilik, faollik va motivatsiya tamoyili tarbiyalanuvchilarning kasbiy tayyorgarlikka bo‘lgan munosabatini belgilaydi; mashg‘ulotlarda bo‘lajak o‘qituvchilar ongi – bu o‘rganilayotgan muammolarning mohiyatini tushunish, olgan bilimlarining zarurligi va amaliy ahamiyatga ishonch hosil qilish va o‘rganishga ijobiy munosabatdir.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning mashg‘ulotlardagi faolligi ularning bilim, shakllangan ko‘nikma va malakalarni o‘rganish va qo‘llash jarayonidagi intensiv aqliy faoliyati bo‘lib, bu ongli rivojlanish va kreativ sifatlarning namoyon bo‘lishining sharti va natijasi sifatida ishlaydi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning mashg‘ulotdagi motivatsiyasi ularning qobiliyatlarini yaxshilashga qiziqish munosabatidir. Shu bilan birga, ta’lim jarayonida o‘z sa’y-harakatlari, ehtiyojlari va maqsadlari, motivlari va irodasiga e’tibor qaratib, kreativ sifatlarning mustaqil, faol rivojlanishi ta’minlanadi.

Ushbu tamoyillarning asosiy talablari quyidagilardan iborat: bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarning o‘quv jarayoniga ongli ijodiy munosabatini shakllantirish, o‘rganilayotgan materialga qiziqish o‘yg‘otish; o‘quv jarayonining ijodiy asoslarini ishlab chiqish; bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarning malakasini oshirish uchun motivatsiyani rag‘batlantirish; bo‘lajak o‘qituvchilarning yangi kompetensiyalarni egallash uchun mustaqil ta’lim usullari va metodlari bilan qurollantirish, ularga individual xususiyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan shaxsiy ish va bilish faoliyatining ilg‘or metodlarini o‘rgatish; bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarning kompetensiyalarini egallashi, ularning sifati va takomillashuvi uchun ma’suliyatini oshirish; innovatsiyalar tamoyili bir tomondan bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarni tayyorlashda innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etishni, boshqa tomondan esa ularning yangilik uchun kreativ sifatlarini rivojlanishini ta’minlaydi; birgalikda ishlash tamoiyili bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarning ta’lim va tarbiya obyekti, subyekt sifatida esa – ta’lim jarayonining faol ishtirokchisi sifatida

faoliyat ko‘rsatadigan o‘qituvchilar, ofitserlar, tarbiyachilar va bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarning faoliyati; harbiy ta’lim fakultetida o‘qitish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativliligini rivojlantirishni optimallashtirish tamoyili, talabalarni o‘qitish va rivojlantirishning maqbul usullari, shakllari va vositalarini tanlash, maqsadga kafolatli erishishni ta’minlashdan iborat; bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilari kreativligini rivojlantirishni intensivlashtirish (faollashtirish) tamoyili o‘qitish va tarbiyalashning interfaol uslublaridan, shakllari va vositalaridan foydalanish, ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish orqali amalga oshirish; bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarini barcha faoliyat turlariga, pedagogik-psixologik, o‘quv va axborot ishlariga yo‘naltirish; pedagogik jamoa a’zolarini bo‘lajak o‘qituvchi shaxsiyatiga ta’siri (o‘zaro yordam, ahloqiy va hissiy qo‘llab-quvvatlash va boshqalarni hisobga olgan holda bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarning kreativ sifatlarini rivojlantirishga individual va jamoaviy yondashuvlarnig birligi tamoyili).

Ko‘rib chiqilgan tamoyillarni amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyati ularning talablarini tizimli va to‘liq bajarishdir. Taklif etilayotgan modelning muhim tarkibiy qismi kreativ sifatlarni rivojlantirish jarayon subyektlarining motivatsiyasi hisoblanadi. A.G.Maslow[188], A.V.Morozov[189] lar o‘z asarlarida faoliyat motivlariga katta ahamiyat beradilar.

O.G.Pozdnyakov “tatqiqotlari davomida motivatsiyaning ikki guruhi: tashqi va ichkidan foydalangan. Kreativlikning tashqi motivatsiyasi deganda ijtimoiy muhitning ijobiy (diqqat bilan rag‘batlantirish, tan olish, tasdiqlash, shuningdek, moddiy mukofot) va salbiy (qattiq tanqid, jazo) reaksiyasi tushuniladi. Bundan tashqari, shuni ta’kidlash kerakki, tashqi motivatsiyaning ahamiyati faqat mos yozuvlar guruhidan kelib chiqqan taqdirdagina to‘liq namoyon bo‘ladi. Tashqi motivatsiya ta’sirining ahamiyati bevosita ichki motivatsiya darajasiga bog‘liq,

[188] Маслоw А. Самоактуализация Психология личности. https://www.worldcat.org/title/toward-a-psychology-of-being/oclc/223343.

[189] Морозов А.В. Развитие творческого потенциала современного педагога. Матер Всерос. научно-практ. конф. Вып. 2. Уфа, 2005. С. 15-17.

ya’ni ichki motivatsiya darajasi qanchalik past bo‘lsa, tashqi motivatsiya shunchalik sezilarli ta’sir qiladi”[190].

Kreativ sifatlarni rivojlantirish uchun ichki motivatsiya darajasiga ta’sir qiluvchi qo‘yidagi omillarni aniqlash mumkin: shaxs tomonidan ichki qabul qilingan qiymat yo‘nalishlari; o‘z-o‘zini hurmat qilish; hissiy holatning barqarorligi; bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirish jaryoni iroda bilan chambarchas bog‘liq deb hisoblaymiz.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan sa’y harakatlarini ijobiy natijaga, quvonch tuyg‘usiga, umumiy hissiy ko‘tarilishga, o‘ziga ishonchga, faol ijodiy faoliyatni davom ettirishga intilish, kreativ sifatlarni rivojlanishiga olib keldi. Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirish jarayonining tarkibiy va mazmuniy modelining komponenti ikki tarkibiy qismga bo‘linadi: belgilangan va o‘zgaruvchan. Belgilangan qism o‘zgarmas va majburiy tarkibiy elementlardan iborat bo‘lib, uning takrorlanuvchanligini ta’minlaydi.

Belgilangan qism standart tashkiliy va uslubiy hujjatlar bilan qo‘llab quvvatlanadi, bu modelning ushbu qismining qat’iyligini va har qanday o‘qituvchi tomonidan takrorlanuvchanligini namoyish etadi. Amalga oshirish jarayonida o‘zgaruvchan qism deyarli har doim o‘zgarib turadi, tashkilotchilar, ishtirokchilar, tadbir o‘tkaziladigan joy va vaqt shaxslarining o‘ziga xos hususiyatlariga moslashadi.

Taklif etilayotgan model doirasida faoliyat mazmunini baholab, shuni ta’kidlash kerakki, u bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirishga konseptual yondashuvlar va taklif etilayotgan texnologiyaning tarkibiy qismlariga, ishlab chiqishda maksimal natija beradigan model elementlariga muvofiq g‘oyalarni kreativlik birlashtiradi. Ushbu yondashuv kreativ sifatlar rivojlanish dinamikasini, shaxsiy komponentni joriy etish imkoniyatini beradi.

[190] Поздняков.О.Г. Педагогические пути развития творческих способностей к познавателной деятелности у курсантов военных вузов. Дес. Кан пед наук. Красно. 2013. 39. с.

Kreativ sifatlar rivojlanishini modellashtirish jarayonidagi munosabatlar dinamikasi umuman pedagogik jarayonda kreativ sifatlar rivojlanishining istalgan dinamikasiga to‘g‘ri keladi. Kreativ sifatlarni rivojlantirishning yakuniy maqsadi turli xil professional vaziyatlarda nostandart qarorlar qabul qilish qobiliyatidir. Kreativ sifatlarni rivojlantirish modellashtirish, tashkil etish va amalga oshirish algoritm jamoaviy ijodiy ish yaratish va o‘tkazish prinsipi asosida qo‘rilgan va shunga muvofiq uning barcha asosiy bosqichlarini o‘z ichiga oladi.

Farqi shundaki, jamoaviy va individual ishlarning kombinatsiyasi mavjud, bu yerda g‘oyalar muallifligi rag‘bantiriladi, kreativ yondashuvni tashkil qilish istagi, maqsadlarni belgilash va jamoa tarkibining shaxsiy tabiati, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash va o‘zaro tushunish, munosabatlarga ijodiy yondashuv mavjud. Ushbu nazariy modelda kreativ sifatlar tuzilishini va kasbiy muhim fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirishni ko‘rib chiqamiz. Ushbu maqsadga, qoida tariqasida, turli xil usullarni (so‘rov, test, faoliyatni tashkil etish va tashkiliy-fikrlash o‘yinlari va boshqalarni kompleks qo‘llash orqali erishiladi).

Modelning mazmuniy komponenti uning faoliyat komponenti bilan chambarchas bog‘liq. Modelning faoliyat tarkibiy qismiga tashkiliy shakllar, usullar va vositalar, shuningdek bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilari kreativ sifatlarni rivojlantirishning asosiy bosqichlari kiradi. Model tizimining barcha elementlari bizga kreativ sifatlarni rivojlantirish imkoniyatini beradi, ammo biz mashg‘ulotlar davomida qo‘llaniladigan texnologiyalarga alohida e’tibor beramiz.

O‘qitish usuli (yunoncha metodos – biror narsaga yo‘l) professor-o‘qituvchi va bo‘lajak o‘qituvchilarning berilgan o‘quv maqsadiga erishishga qaratilgan tartibli faoliyati. O‘qitish metodlari (didaktik usullar) ko‘pincha maqsadlarga erishish, ta’lim vazifalarini hal etish yo‘llari majmui sifatida tushuniladi. Bizning xulosamizga ko‘ra usullarni faol va passivga bo‘lish to‘g‘ri emas, chunki professor-o‘qituvchilarning tajribasida har doim o‘qitish usullarining bilim samaradorligini faollashtirish uchun bir qator zahira usullar mavjud bo‘ladi.

Demak, “bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirishning asosiy usullari quyidagilardir: bo‘lajak o‘qituvchilar

uchun olingan bilim, ko‘nikma va qobiliyatlardan bo‘lajak chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik rahbarining kasbiy faoliyatiga iloji boricha yaqin muhitda foydalanishni faollashtiradigan sharoitlar yaratiladigan muammoli o‘qitish usuli”[191]; “bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilari uchun birgalikdagi faoliyatning amalga oshiriladigan qismining an’anaviy fiksatsiyasini yengib o‘tish va mutaxassisning shaxs turini shakllantirishda mustaqil tahlil qilish va bitiruvchining nostandart qarorlarini qabul qilishga qodir bo‘lgan faol talabani tayyorlashga o‘tishni o‘z ichiga olgan faol o‘qitish usullari”[192]; “bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy bilim kompetensiyalarni egallashga, shuningdek ijodiy qobiliyat va shaxsiy fazilatlarni hamda kreativ sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan ishi; professor-o‘qituvchilar qidiruvning alohida bosqichlarini amalga oshirishda bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining ishtirokini tashkil qilishi, vazifa tuzishi, uni mustaqil ravishda amalga oshirishi, mavjud bo‘lgan narsalarni yangilashidan iborat qidiruv (evristik) usul bilim, ularning harakatlarini rag‘batlantirish”[193]; ishbilarmonlik o‘yinining usuli-tanlash va qaror qabul qilish holatini yaratish, unda haqiqiyga yaqin sharoitlar takrorlanadi. Bu ishtirokchilarning yangi funksiyalarni tushunish, tajriba va o‘zlashtirishga imkon beradigan rollarini o‘z ichiga oladi.

Bizning fikrimizcha o‘qitish metodini tanlash bir qator shartlarga bog‘liq: o‘rganilayotgan mavzuning o‘ziga xos xususiyatlari; o‘quv guruhining xususiyatlari; metodlar mavjuasidan foylanash imkoniyati; mutahassis tayyorlash vazifalari.

Ushbu shartlardan tashqari, professor-o‘qituvchilar o‘qitishning mavjud vositalarini ham hisobga olishi kerak, biz ularni o‘quv ma’lumotlarini uzatuvchi va o‘quv rolini bajaradigan elementlar va hodisalar to‘plami deb hisoblaymiz. O‘quv vositalar bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘rganilayotgan hodisalarning mohiyatini anglash, yangi fakt va hodisalarni aktuallashtirishga imkon beradi. Ushbu maqsadga

[191] Bogoyavlenskaya D.B. Issledovaniya tvorchestva i odarennosti v traditsiyax protsessualno-deyatelnostnoy paradigmы. Osnovnыe sovremennыe konsepsii tvorchestva i odarennosti. - M.: Molodaya gvardiya, 1997. – S. 328-348.
[192] Beskrovnыy L.G. Russkoye voyennoye iskusstvo XIX v / L.G. Beskrovnыy. - M.: Nauka, 1974.- S. 174 - 354.
[193] Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. М: Педагогика, 1989. Т. 2. 326 с.

erishish uchun o‘rganilayotgan mavzular haqida aniq va yetarlicha keng ma’lumotlar taklif etiladi.

Tadqiqot davomida biz o‘quv vositalarining to‘rt guruhidan foydalandik: o‘quv materialini tasvirlash, to‘ldirish, batafsil bayon qilish, o‘rganilgan ma’lumotlarni umumlashtirish uchun foydalaniladigan didaktik vositalar (mahalliy, tasviriy, shartli belgilar); o‘quv qo‘llanmalar (og‘zaki va yozma nutq, o‘quv adabiyotlari, lug‘atlar, matnli didaktik materiallar); maxsus jihozlar (taktik maydon, otish mashqlari uchun joy, sport shaharchasi trenajyorlar); ta’limning texnik vositalari (texnik qurilmalar, kompyuter sinflari, slayd guruhlari, filmlar, lenta yozuvlari, kompyuter dasturlari).

O‘quv vositalaridan foydalanishning o‘ziga xosligi ularni qo‘llashning murakkabligidadir. Biz ba’zi vositalardan foydalanish samaradorligini bir qator parametrlarga muvofiq baholadik: o‘quv materiallari qanchalik qulayroq bo‘ldi va bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ sifatlarini rivojlantirdi, o‘quv natijalarini monitoring qilish va baholashga imkon berdi. Tarbiya usullari va vositalaridan tashqari, tegishli tarbiya shakllaridan ham foydalandik. Biz o‘qitish shakllarini didatik maqsadlarning muayyan majmui, guruhning ma’lum tayyorgarlik darajasi, joyi, davomiyligi, o‘qitish metod va vositalari majmui bilan tavsiflanadigan mashg‘ulotlar deb hisobladik.

Ta’lim shakllari, bizning fikrimizcha, ijodiy faoliyatni ta’minlashi kerak, birgalikdagi faoliyatda kreativlikni rivojlantirish (guruh tomonidan bitta o‘quv vazifasini hal qilishda), guruh (muayyan vazifalarni hal qilishda kichik guruhlarda ishlashda) va individual (vazifalarni individual ravishda hal qilishda).

Monografiyamizda biz harbiy ta’lim mashg‘ulotlarini o‘tkazishning turli shakllariga tayandik: ma’ruza, seminar va amaliy, yarim guruhli, mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari, maslahat va mustaqil ishlar, ta’lim muassasalarida amaliyot o‘tash bizning tadqiqotimizga alohida ta’sir ko‘rsatdi, bu esa kichik kurslarda olingan bilimlarni faollashtiradi va bo‘lajak o‘qituvchilarga motivatsiya beradi, natijada kreativ sifatlari rivojlangan bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilari bo‘lib kelajakda yosh avlodning sifatli ta’lim olishiga o‘z hissalarini qo‘shadilar.

2.3. Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini muammoli ta’lim texnologiyalari vositasida rivojlantirish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” nomli kitobida “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz shart va zarur. Bu bizga rivojlantirishning eng qisqa yo‘lidan borish imkonini beradi. Chunki intellektual va madaniy salohiyatning qanday noyob boylik, nodir iste’dod egalarini tarbiyalab kamolga yetkazishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini unutishga haqqimiz yo‘q[194]-degan fikrlari tahsinga sazovor.

Demak, hozirgi vaqtda bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining ta’lim jarayonida aksariyat harbiy mashg‘ulotlarni o‘tkazilishi an’anaviy tushuntirishlar, tayyor bilimlarni bo‘lajak o‘qituvchilar tomonidan o‘zlashtirish tizimi sifatida yondashilmoqda. Bu bilimlar ular tomonidan tushuniladi va xotirada mustahkamlanadi va kerak bo‘lganda takrorlanishi mumkin. Ammo bunday mashg‘ulotlar bilan bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirishga hozirgi kun talabidan kelib chiqib yetarlicha e’tibor berilmaydi.

An’anaviy tayyorgarlik kreativ sifatlarga ega u yoki bu mutaxassislarni tayyorlashning zamonaviy voqeliklariga to‘liq mos kelmasligi sababli, bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilari bilan mashg‘ulotlarni olib borishda, innovatsion usullardan foydalanish uchun obyektiv shart-sharoitlar mavjud bo‘lib, paydo bo‘layotgan harbiy-professional va ilmiy muammolarni o‘ziga xos tarzda hal qila oladigan oliy ma’lumotli mutaxassislarni tayyorlash har qachongidan ham dolzarblik kasb etishligi yaqqol ko‘zga tashlanib qoldi.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib, biz o‘z tadqiqotimizda bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirishning

[194] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T.; 2021. B. 237

asosiy omili sifatida harbiy ta’lim fakultetlari ta’lim jarayonini muammoli ta’lim texnologiyalari asosida tashkil etishni taklif etamiz.

Muammoli o‘qitish amerikalik faylasuf, psixolog va pedagogik Dj.Dyuining nazariy qoidalariga asoslanadi va XX asrning 20-30 yillarida tarqala boshladi. Dj.Dyui “muammoli o‘qitish uchun quyidagilarni: ijtimoiy, konstruksiyalash, badiiy ifodalash, ilmiy-tadqiqot usullarni asos qilib belgiladi”[195].

Bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirish asoslarini amalga oshirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi: so‘z, san’at asarlari, texnik qurilmalar, o‘yinlar va mehnat. Bugungi kunda muammoli o‘qitish deganda mashg‘ulotlarda pedagoglar tomonidan yaratiladigan muammoli vaziyatlar va ularni yechishga qaratilgan o‘quvchilarning faol mustaqil faoliyati tushuniladi. Buning natijasida o‘quvchilar kasbiy-professional bilimlarga, ko‘nikmalarga, malakalarga ega bo‘ladilar va fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi[196].


Muammoli ta’lim usullari bilan zamonaviy yondashuvlar nazariyasi va amaliyoti hamda an’anaviy o‘qitish usullari o‘rtasidagi bevosita bog‘liqlikni ham qayd etish zarur. Bir so‘z bilan aytganda, usullar bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan, ammo undagi farq shundaki, muammoli o‘qitish usullari ko‘proq individual moyillik va kreativ sifatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Muammoli ta’limning bosh maqsadi – bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarning o‘rganilayotgan mavzuga doir muammolarni anglab yetishga erishish va ularni ijobiy hal eta olishga o‘rgatish. Muammoli ta’limni amaliyotda qo‘llashda asosiy masalalardan biri o‘rganilayotgan mavzu bilan bog‘liq muammoli vaziyatni yuzaga keltirishdan iborat.

Xususan, “muammoli ta’lim metodlarida asosiy yondashuv sifatida o‘kuv jarayoni haqiqiy ijodiy jarayonga taqlid qilish, muammoli vaziyatni yaratish va uni hal qilish yo‘llarini modellashtirishni ta’kidlash nazarda tutiladi. Bu yerda muhim jihat bo‘lajak o‘qituvchilarning izlanish va ijodiy qiziqishlarini shakllantirish,

[195] https://nsportal.ru/nachalnayashkola/obshchepedagogicheskietekhnologii/2020/02/22/problemnoe-obuchenie-d-dyui.
[196] Avliyoqulov N.X., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiya. Toshkent. “Tafakkur Bo`stoni”, 2012. B. 80.

tadqiqot, ijodiy va intellektual faoliyat uchun motivatsiyani shakllantirish va rivojlantirishdir”[197].

Muammoli ta’lim o‘quv mashg‘ulotlarini shunday tashkil etishni nazarda tutadiki, unda muammoli vaziyat yaratiladi va mashg‘ulot rahbari rahbarligida va bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilari faol mustaqil faoliyati hal qilinadi, ya’ni kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni ijodiy o‘zlashtirish tegishli kompetensiyalarni shakllantirish va kreativ sifatlarni rivojlantirish ko‘zda tutiladi.



2.4-rasm. Muammoli vaziyatlarda bilim faoliyatlari


Demak, muammmoli vazifa – bu paydo bo‘lgan muammoni hal qilish uchun yangi bilimlarni izlash uchun ma’lum kognitiv harakatlarni amalga oshirishni ta’lim vazifasi o‘z ichiga olgan. Muammoli vaziyat – bu ta’lim oluvchida yangi o‘quv yoki kasbiy vazifalarni hal qilish uchun olingan bilimlarning yetarli emasligi va nomuvofiqligini anglash natijasida paydo bo‘ladigan intellektual qiyinchilik holati[198].

[197] https://uz.denemetr.com/docs/768/index-279695-1.html?page=7.
[198] Поздняков.О.Г. Педагогические пути развития творческих способностей к познавателной деятелности у курсантов военных вузов. Дес. Кан пед наук. Красно. 2013. 39. с.

Muammoli vaziyat yaratish usullari: mashg‘ulot rahbari bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilariga dars mavzusi bilan bog‘lik ziddiyatli holatni tushuntiradi va uni yechish yo‘lini topishga yullaydi; muammoli masalaga doir turli nuqtai-nazarlarni bayon qiladi; masalani hal etish uchun yetarli darajada bo‘lmagan va ortiqcha bo‘lgan ma’lumotlar yoki masalaning qo‘yilishi mavhum bo‘lgan muammoli vaziyatni yechishni taklif etadi.

Muammoli vaziyatni yechimini topish darajalari: talabalarning o‘zlari muammoni qo‘yadi va o‘zi yechadi; professor-o‘qituvchi tomonidan muammoni qo‘yiladi va uning yechimi bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilari bilan birgalikda topiladi. Shuningdek, muammoli vaziyatni yechishda qo‘llaniladigan usullar: muammoni turli nuqtayi nazardan o‘rganish, tahlil qilish; taqqoslash, umumlashtirish; muammoga sabab bo‘lgan faktlarni aniqlash va qiyoslash; muammoli vaziyatga bog‘liq xulosalar chiqarish o‘rgatilib, tahlil qilinadi.

Muammoli ta’limning asosiy g‘oyasi bilimlarni bo‘lajak o‘qituvchilarga tayyor holda berish ular tomonidan dars mavzusiga tegishli muammolar bo‘yicha o‘quv-savollarini bajarish asosida o‘zlashtirilishini ta’minlashdan iborat.



2.5-rasm. Muammoli o‘qitishda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati

Muammoli ta’lim mashg‘ulotlarini tashkil etish va boshqarish harbiy ta’limning dala o‘quv mashg‘ulotlarini sifatli darajada tashkil etish qo‘yidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

dars mavzusini o‘rgatishda o‘rganish bilan bog‘liq muammoli masalalarni belgilash; muammoli vaziyatlarni hosil qilish va ularni yechimini topishni oldindan rejalashtirib borish; talabalarni tayyorgarlik darajasini hisobga olish; kerakli o‘quv vositalarini tayyorlash; muammoli vaziyatdagi mavjud qarama-qarshiliklarni ko‘rsatish; topshiriq mazmunini va uni yechish uchun shart-sharoitlarni aniq bayon qilish; talabalarning muammoli vaziyatni yechishda ular tomonidan yo‘l qo‘yilayotgan xatolarni va ularning xususiyatlarini ko‘rsatish; bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilar tomonidan noto‘g‘ri farazlar asosida chiqargan xulosalari natijasini muhokama etib, to‘g‘ri yo‘lni topishlariga yordam berish.

Muammoli ta’lim jarayonini uchta asosiy bosqichga ajratish mumkin: muammoli vaziyatni yuzaga keltirish; muammoni yechish farazlarini shakllantirish; yechimning natijalarini to‘g‘riligini tekshirish (yechim bilan bog‘liq axborotni tizimlashtirish bilan). Muammoli ta’lim, bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarda bilish jarayoniga haqiqiy ishtiyoqni uyg‘otadi va shu orqali ularning kreativ sifatlarini rivojlantiradi, amaliy harakatlar ko‘nikmalari hamda kognitiv malakalarini shakllantiradi.

Muammoli ta’limning mohiyati bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarning kreativ sifatlarini rivojlantirish faoliyatiga ta’sir qilishidadir. Bu bilimlarni chuqur va doimiy o‘zlashtirish faqat muammo shakllantirilganda, uning yechimini izlashda bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarning o‘zi ishtirok etganda sodir bo‘ladi, degan tamoyilga asoslanadi. Ushbu talab bajarilgandagina bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilari o‘quv ma’lumotlarini faol ravishda idrok etadi va tahlil qiladi va muammoni hal qilish eng muhim kasbiy ahamiyatga ega fazilatlarni shakllantirishga yordam beradigan ijodiy jarayonga aylanadi.

Shunday qilib, harbiy ta’lim fakultetlarida muammoli o‘qitish usuli deganda o‘quv jarayonini muayyan tashkil etish tushuniladi, ko‘plab holatlarda amaliy mashg‘ulotlarda muammoli (qidiruv) vaziyatni yaratishni o‘z ichiga oladi, bu bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarida paydo bo‘lgan muammolarni hal qilish va yengib o‘tish zaruriyatini tug‘diradi.Muammoli ta’limning psixologik komponenti yangi, munozarali, noma’lum muammoga duch kelganda uni hal qilishda turli xil, ko‘pincha butunlay qarama-qarshi fikrlarni belgilaydigan yashirin ziddiyatga asoslangan murakkab nazariy yoki amaliy masala, bo‘lajak o‘qituvchilarni hayratga tushishi va ozroq sarosimaga tushishiga olib keladi hamda bo‘lajak o‘qituvchilar ijodiy izlanishni faollashtiradi.

Harbiy topografik mavzusini muammoli ta’lim asosida tashkil etish quyidagi vazifalarni hal qilishda asosiy rol o‘ynaydi: qobiliyat, fikrlash, kreativ sifatlar va kreativ sifatlarni rivojlantirish; bo‘lajak o‘qituvchilar faol izlanish va mustaqil muammolarni hal qilish natijasida egallagan bilim va ko‘nikmalarni egallashi; bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy faol shaxsini shakllantirish-nostandart kasbiy vazifalarni oldindan ko‘ra oladigan va hal qila oladigan, kreativ sifatlari rivojlangan bo‘lajak o‘qituvchi shakllanadi.

Muammoli ta’limning muvaffaqiyati quyidagi: noma’lum va ma’lum ma’lumotlar nisbati asosida bo‘lajak o‘qituvchilar tomonidan aniqlangan muammoning qiyinlik darajasi; muammoning yechimini izlashda ijodiy ishtirok etish mezoni bilan belgilanadi.

Muammoli ta’lim mashg‘ulotlarini tashkil qilish muammoning turli darajalarini ajratib ko‘rsatish orqali qabul qilinadi: birinchisi, mashg‘ulot rahbarining o‘zi muammoli vaziyatni tahlil qilishi, muammoni ochishi, muammoni shakllantirish va bo‘lajak o‘qituvchilar mustaqil ravishda yechimlarni izlashga yo‘naltirishi bilan tavsiflanadi; ikkinchi darajaning farqi shundaki, mashg‘ulot rahbari bo‘lajak o‘qituvchilar bilan birgalikda vaziyatni tahlil qiladi va ularni muammoga undaydi va ular muammoni o‘zlari belgilaydilar va hal qiladilar; uchinchi (eng qiyin daraja) bo‘lajak o‘qituvchilarga muammoli vaziyat mavjudligi

haqida gapirib beradi, ular uni tahlil qiladilar, muammolarni belgilaydilar, vazifalarni tuzadilar va eng maqbul yechimni o‘zlari belgilaydilar.

Shubhasiz, muammoning darajasi ijodiy ishning to‘plangan tajribasini hisobga olgan holda belgilanishi va ortib borishi kerak. Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘rtasida aqliy faoliyatning rivojlanishi bilan muammoli ta’lim metodi ongli ilmiy ma’lumotlarga asoslangan holda zarur ko‘nikma va masalalarni shakllantirishga ta’sir ko‘rsatadi. Harbiy ta’lim fakultetlarining o‘quv faoliyati doirasida professor-o‘qituvchilar tarkibi fanning barcha sohalari yutuqlaridan va o‘qitiladigan fanlar muammolari bo‘yicha keng amaliy materiallardan foydalangan holda doimiy ravishda muammoli vaziyatlar yaratishga majburdir.

Tegishli metodik rivojlanish darajasi va zarur pedagogik tajriba mavjudligi bilan muammoli ta’lim harbiy ta’lim fakultetlarida barcha turdagi o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish jarayonida samarali qo‘llanilishi mumkin. Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘z aqliy faoliyatini boshlash uchun tegishli tashqi sharoitlarni yaratish kerak. Psixologlarning ta’kidlashicha, kreativ fikrlashning asosi va manbai muammoli vaziyat hisoblanadi. Bu ichki holat sifatida kognitiv ehtiyojni keltirib chiqaradi. Kognitiv ehtiyoj orqali professor-o‘qituvchilar tarkibi bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilariga yangi bilimlarni o‘zlashtirish jarayoniga ta’sir ko‘rsatishga qodir.

Muammoli vaziyat – bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining biron bir fakt, jarayon, hodisa uchun tushuntirish topa olmagan intellektual noqobilligi. Urinishlarning umumiy qabul qilingan va ma’lum usullari maqsadga erishishni kafolatlamaydi, shundan keyin bo‘lajak o‘qituvchilar yechimning yangi usullarini izlay boshlaydi. Tajriba sifatida olingan bilimlar va yangi hodisalarni qanday tushuntirishni tushunmaslik o‘rtasidagi ziddiyat bo‘lib, bu holat kognitiv ehtiyojning paydo bo‘lishi uchun shart bo‘ladi. Muammoli ta’limda ta’lim jarayonini tashkil etishdan va materialni bayon qilish uslubini tanlashdan qat’iy nazar, o‘quvchilarning diqqatini va nutqini faollashtiruvchi muammoli vaziyatlarni maqsadli va izchil yaratish asos bo‘ladi.

Muammoli vaziyatlarni taqdim etish shakli an’anaviy ta’limda qo‘llaniladigan taqdim etish shaklllariga o‘xshaydi: bular o‘quv savollari va vazifalari. Ammo an’anaviy ta’limda bu shakl va vositalardan o‘quv materialini o‘zlashtirish va mustahkamlash, ko‘nikmalarni shakllantirish uchun foydalanilsa, muammoli ta’limda ular bilishning zaruriy sharti hisoblanadi. Shuning uchun o‘quvchilarning rivojlanish darajasiga qarab, bir xil vazifa muammoli bo‘lishi mumkin yoki muammoli bo‘lmasligi mumkin. Bu muammoli ta’limning rivojlanish xarakterini belgilaydi.

Xususan, L.S.Vigotskiy “Yaqin rivojlanish zonasi” muammoli vaziyat bo‘lishi mumkin, agar bo‘lajak o‘qituvchilar buni faqat o‘zining intellektual, ijodiy va motivatsion salohiyatidan maksimal darajada foydalangan holda hal qilishi mumkin bo‘ladi”[199]. Bo‘lajak o‘qituvchilardagi intellektual salohiyat muammoli vaziyatni hal qilish orqali muayyan trayektoriyaga birlashadi.

M.I.Maxmutov “muammoli vaziyat – bu shaxsning u yoki bu fakt, hodisa, voqelik jarayonini tushuntirib bera olmagani, muammoni o‘ziga ma’lum bo‘lgan tarzda hal qila olmaydigan, bo‘lajak o‘qituvchini izlanishga majbur qiladigan harakat yoki tushuntirishning yangi usuli uchun aqliy qiyinchilikdir. Shu sababli, bo‘lajak o‘qituvchilar obyektiv ravishda yuzaga keladigan savollarga javob bera olmasa va obyektiv ravishda yuzaga keladigan qarama-qarshilikni tushuntira olmasa, vaziyat muammoli deb ataladi, chunki muammoli vaziyatda mavjud bo‘lgan ma’lumotlar ham, mavjud bilimlar ham javoblarni o‘z ichiga olmaydi”[200]-deya ta`kidlaydi.

Bir qator psixologlarning fikriga ko‘ra, “muammolarni hal qilish uchun aqliy faoliyatning paydo bo‘lishining muhim shartidir. Yuqorida aytib o‘tilganidek, muammoli vaziyat didaktik xarakterga ega bo‘ladi, faqat rivojlanish zonasida katta

[199] Vigotskiy L.S. O psixologicheskix sistemax. Psixologiya razvitiya kak fenomen kulturы: http://lib.mgppu.ru/opacunicode/app/webroot/index.php?url=/notices/index/IdNotice:179093/Source:default.
[200] Ma’murov B.B. O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari. Ped. fanl. nomz.dis. Avtoref.– T.; 2009. B. 26.

qiyinchiliklar tug‘dirsa, bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilari muammoning yechimini topadilar”[201].

Muammoli vaziyatlarni M.I.Maxmutov “odatda turli asoslarga ko‘ra bo‘ladi: ma’lum bilim va usullardan yangi sharoitlardan foydalanish yo‘nalishi bo‘yicha, yangi bilim yoki haraqat usullarini aniqlash; qarama-qarshiliklarning aniq ifodalanganligi darajasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri mutanosib ravishda muammolik darajasi bilan; o‘qitishda u yoki bu muammoli vaziyatdan foydalanish mumkin bo‘lgan fanlar va o‘quv fanlari bo‘yicha”[202].

Ilgari olingan bilim, ko‘nikma va malakalarning mutlaqo yangi o‘quv vaziyatlarida qo‘llanilishi: bo‘lajak o‘qituvchilar yangi hodisani tushuntirish uchun mavjud bilimlarining ahamiyati, o‘quv vazifalarini bajarish uchun shakllangan ko‘nikmalarning kichik darajasi; bo‘lajak o‘qituvchilarning yangi voqeani tushuntirish uchun mavjud bilimlarning ahamiyatining pastligi, berilgan o‘quv vazifalarini bajarish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Psixolog olim John Dewey “muammoli ta’limning asosi bo‘lgan, muammoli vaziyatlarni yaratishning turli yo‘llarini taklif qilgan: o‘quvchilarni qaram-qarshilikka undash va ularni yechim topishiga qaratilgan; amaliy ishda qarama-qarshilikning paydo bo‘lishi; bir masala bo‘yicha bir nechta pozitsiyalarning mavjudligi; hodisalarni turli pozitsiyalardan ko‘p qirrali ko‘rib chiqish; taqqoslash, hulosalash, umumlashtirishga undash”[203].

Muammoli ta’limning mumkin bo‘lgan dasturini ishlab chiqishda mashg‘ulot rahbari tomonidan qo‘llaniladigan muammoli vaziyatlarni yaratishning o‘nta didaktik usullarini ajratish ko‘rsatish odatiy holdir.

Bo‘lajak o‘qituvchilar tomonidan muammoli vaziyatlar o‘quv vazifalarini bajarishda yuzaga keladigan holatlar: amaliyotda yuzaga keladigan muammoli vaziyatlardan foydalanish; bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilar hodisalar, faktlar, ular orasidagi tashqi nomuvofiqliklarni nazariy tushuntirishga

---

[201] Виготский Л.С. О психологических системах. Психология развития как феномен культуры: http://lib.mgppu.ru/opacunicode/app/ webroot/index.php?url=/notices/index/IdNotice:179093/Source:default.


[202] Ma’murov B.B. O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari. Ped. fanl. nomz.dis. Avtoref.– T.; 2009. B. 26.

[203] https://files.eric.ed.gov/fulltext/EJ1158258.pdf.

undash; bo‘lajak o‘qituvchilar voqelik faktlari va hodisalarini tahlil qilishga undash, ular haqidagi kundalik g‘oyalar va ilmiy tushunchalar o‘rtasida ziddiyatlarni keltirib chiqarish; taxminlar (gipotezalar) qilish, xulosalar tuzish va ularni eksperimental tekshirish; bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilar muammoli vaziyatlarni keltirib chiqaradigan faktlar, hodisalar, nazariyalarni solishtirish, taqqoslash va solishtirishga undash; bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilar mavjud bilimlar asosida yangi faktlarni oldindan umumlashtirishga undash, bu esa umumlashtirilgan faktlarning barcha xususiyatlarini tushuntirish uchun ularning yetarli emasligini ko‘rsatishga yordam beradi; bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilar fan tarixida ilmiy muammolarni shakllantirishga olib kelgan faktlar bilan tanishtirish; mumkin bo‘lgan muammoli vaziyatlar doirasini kengaytirish uchun fanlararo aloqalarni tashkil etish; vazifalar va savollarning o‘zgarishi, isloh qilinishi.

